




IJODKOR
O'QITUVCHI

ТВОРЧЕСКИЙ
УЧИТЕЛЬ

CREATIVE
TEACHER



Scientific Research
An Academic Publisher





«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

IJODKOR O'QITUVCHI
ILMIY-USLUBIY JURNAL

MATERIALLARI TO'PLAMI

5-IYUN, 2025-YIL

49-SON



INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL



Ushbu to'plamda "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

Mas'ul kotib:

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

Nashrga tayyorlovchi

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy***kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari******nomzodi, dotsent***

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari***nomzodi, Dotsent***

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa***doktori (PhD)***

Imomqulov Tulkin Burhonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot***fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Isakova SHoxidaxon Ikramovna

Qo'qon DPI, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.***Xorijiy tillar fakulteti. Fakultetlararo chet tili kafedrası***

Umarov Farxod Umirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,***O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi***

Nurullayeva Shoirra Kushnazarovna

Urganch Davlat universiteti, Tarix fakulteti, Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Qodirova Shaxlo Salomovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiyot falasafa***fanlari doktori, PhD***

Raxmatova Dilbar Baxriddinovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,***tibbiyot falasafa fanlari doktori, PhD***

Djumayev Baxodir Zayniddinovich

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,***falsafa fanlari doktori (PhD)***

MUNDARIJA

Ғиёсов Асқар Тиркашевич <i>ҲОФИЗ ИБН КАСИРНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ</i>	7
Irzakulova Raykhon M.S.Vasikova <i>"GAMIFYING ENGLISH LESSONS WITH AI: ENGAGING LEARNERS THROUGH INTELLIGENT DESIGN"</i>	12
To'rayev Shoyadbek Axmadjonovich <i>AVTOMATIK UZATMALAR QUTISINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI</i>	15
J.Yakobjanov <i>ANDIJON TARIXIDA SEYSMIK JARAYONLAR</i>	21
J.Yakobjanov <i>BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZNING ILMIY MEROSI YOSHLAR TARBIYASIDA MUHIM OMIL</i>	23
R.Shukurov <i>AMIR TEMUR SHAHSI XORIJIIY TADQIQOTLAR TAVSIFIDA</i>	26
R.Shukurov <i>QADIMGI XORAZM TILI VA YOZUVINING AYRIM MASALALARI</i>	30
O.Sh.Uralov <i>CURRICULUM INNOVATION FOR THE 21ST CENTURY: EMBEDDING GENERIC COMPETENCIES IN UNIVERSITY INSTRUCTION</i>	34
Dauletmuratova Mexriban Eliubaevna <i>TEACHING APPROACHES AND METHODS IN ENGLISH GRAMMAR</i>	37
Muradov Sh.Sh Yusupov A.I Xaitov I.N <i>SHOLI O'SIMLIGINI BIOLOGIYASI VA O'G'TTLASH TIZIMI.</i>	42
Mamarajabov Muhammadali Botir o'g'li Axmatov Sobir Farxod o'g'li. <i>NEFTNING KIMYOVIY TARKIBI</i>	46
Sobirova Ozoda Rustamovna <i>"RAQAMLI MOLIYA TIZIMINING RIVOJLANISHI VA BANKLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI"</i>	50
Makhmudova Khafiza Samaritdinovna <i>ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	53
Farangiz Nishonova Usmonovna <i>THE INFLUENCE OF PEER PRESSURE ON TEENAGERS' DECISION MAKING</i>	56
Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna Mallayev Normamat Ramazonovich <i>"INTELEKTUAL MULK HUQUQIDA TURDOSH HUQUQ TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI"</i>	65
O.Sh.Uralov <i>INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI</i>	70
Odil Ishniyazov Mumin Babajanov Shokhrukh Chulliev <i>VOICE ASSISTANTS FOR LIBRARY AND INFORMATION SYSTEMS</i>	75
Mamur Saidmurodov <i>SAMARQAND VILOYATI DONCHILIGIDA TARKIBIY O'ZGARISHLAR: FERMER XO'JALIKLARINING YUKSALISHI VA DEHQON XO'JALIKLARI HISSASINING</i>	79

KAMAYISHI TAHLILI (2019-2020 YILLAR MISOLIDA).	
Xojamurotova Jasmina KREMNIYDAN YASALGAN DIODLARDA P-N O'TISHIDA LOKAL OBLASTLARDA ISSIKLIK OTKAZUVCHANLIKNING FURE USULI BILAN YECHICH	88
Eshonqulov Ikrom Ilhom o'g'li. Axmatov Sobir Farxod o'g'li SHARG'UN KO'MIR KONI GEOLOGIYASI	94
Mohinur Fayzullayeva Nodirjon qizi HOLAT SIFATLARIDA GRADATSIYA HODISASINING NAMOYON BO'LISHI	97
Nuraliyev Tolibjon Ne'mat o'g'li DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI DAVLAT FUNKSIYALARINI JORIY QILISH ZARURATI	99
Toshpulatov Dilshodjon Saidova Aziza THE IMPORTANCE OF CYBERSECURITY IN THE DIGITAL AGE	105
Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li YURIDIK JARAYONLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	109
Raximov Abdulaxad Nematovich Farmonov Ilhom Tursunboyevich QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI TUZISH VA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH USULI	115
Xolmurodova Sevinch Jumanazrovna Mallayev Normamat Ramazonovich "O'ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI"	121
Abdullayeva Yoqut Erkinovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA KRK VA KRS SEMINAR MASHG'ULOTLARINING O'RNI	125
Latipov Shahriyor Baxtiyorovich NOANIQLIKLAR MAVJUDLIGI SHAROITIDA ADAPTIV BOSHQARISH TIZIMLARI	134
Rustamova Shaxzoda Maripovna QIZ BOLALAR SHAXSIY RIVOJLANISHIDA MILLIY-MA'NAVY TARBIYANING METODOLOGIK ASOSLARI	139
Абидов Нозимхон Алимович Салихова Алина Муратовна СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В КИТАЕ	142
Sodikova Nozanin Nodirjonovna RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIMGA TA'SIRI: MUAMMO VA IMKONIYATLAR	146
Маъруфалиев Ахрорбек Авазбек ўғли ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ ИШТИРОКЧИСИ СИФАТИДА МУТАХАССИС ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ	150
Mamajonov Soyibjon Halilovich AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA RAZVEDKANI O'RNI	160
Baxodirova Mamuraxon Abduvaxob qizi MULK DAHLSIZLIGI	163

ҲОФИЗ ИБН КАСИРНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ

*Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом
институтини “Ҳадис ва ислом тарихи фанлари”
кафедраси катта ўқитувчиси
Ғиёсов Асқар Тиркашевич*

ҲОФИЗ ИБН КАСИР ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ

У киши имом, ҳофиз, муҳаддис, тарихчи бўлиб, асл исмлари Исмоил ибн Умар ибн Касир ад-Димашқий аш-Шофийий, кунялари эса Абул Фидодир. ҳижрий 700, милодий 1301 йилда Шомдаги Бусро вилоятининг Маждал қишлоғида таваллуд топганлар. Оталари Бусро шаҳридан, оналари эса Маждал қишлоғидан эди. Тафсир илмига оид мўътабар китоб ёзганлари учун уламолар томонидан Имоуддин дея шарафланганлар. Аллома ибн Касир илми, диндор оилада ўсдилар. У кишининг оталари Умар ибн Ҳафс ибн Касир бўлиб, ўз қишлоғларининг машҳур нофиғи, хатиби эдилар. Бўлажак аллома 4 ёшга тўлганларида оталари вафот этдилар. Оталарининг вафотларидан сўнг ҳижрий 707 йилда ёш ибн Касирнинг оиласи қишлоқдан Дамашққа кўчиб ўтишди ва “Нурий” мадрасасининг яқинига жойлашишди. Бу вақтда бўлажак олим 5 ёшда эди. Бўлажак олимнинг оиласини амакилари Абдулваҳҳоб ўз ҳимоясига олди ва акасининг оиласининг тинчлиги ва фаровонлиги учун бор куч ва ғайратини аямади. Кейинчалик мазкур амакилари ҳақида ибн Касир шундай деб эслаганлар: “Бир туғишган амаким бор эдилар. Бизга ўта меҳрибон ва ғамхўр эдилар. Ўша даврдаги Суриянинг етук олимларидан бўлмиш ал-Миззийнинг қизига уйланади ва шу билан олимлар жамиятига кўшилади. 1345 йилда қайнотасининг ватани бўлмиш Миззада қурилган янги масжидда имом хатиб бўлиб тайинланади. 1366 йилда Дамашқнинг Буюк Масжидида мутахассис даражасига кўтарилади. Ҳаётининг сўнгида кўр бўлиб қолади. Кўр бўлишининг сабаби қилиб Аҳмад ибн Ҳанбалнинг Муснадини ривоятчи емас балки мавзу бўйича тартибга солиш учун кечасилари кеч ишлаганликда қилиб кўрсатган. ҳижрий 774 йилнинг 26 Шабон пайшанба куни Дамашқда вафот этдилар. “Суфийя” қабристонида, шайхлари ибн Таймиянинг ёнига дафн этилдилар. Ибн Носируддин шундай дейдилар: “У кишининг жанозаси жуда катта маросимга айланиб кетди. Ўзларининг васиятларига биноан “Суфийя” қабристонидаги устозлари Шайхул ислом ибн Таймиянинг ёнига дафн қилиндилар”.⁴

Уламоларнинг Ибн Касир ҳақларида айтган фикрлари:

Ҳофиз Заҳабий шундай дейди: “У киши имом, муфтий, муҳаддис, факих, муфассир эдилар. Фикҳ ва ҳадисга оид матнларни ва уларнинг ровийларини батафсил ўргандилар”.

Аллома ибн Носируддин шундай дейди: “Шайх, имом, аллома, ҳофиз Имоуддин муҳаддисларнинг энг ишончлиси, тарихчиларнинг устуниси, муфассирларнинг пешқадами эдилар”.

⁴ Vikipediya, ochiq ensiklopediya internet sahifasidan

Ибн Туғрий Бардий айтади: “У зот доим илм билан машғул эдилар. Фикҳ, тафсир, араб тили ва бошқа илмларда ўта моҳир эдилар. Вафот этгунларига қадар фатво бериш ва дарс беришдан тўхтамадилар”.

Ибн Ҳажар Асқалоний айтадилар: “Барча хизматга доим тайёр эдилар, ўрганган илмларининг барчасини ёддан билардилар, кишиларнинг кўнглини олишга, кайфиятларини кўтаришга жуда уста эдилар. Ёзган асарлари тирикликларидаёқ турли ўлкаларга тарқалган эди, вафотларидан кейин ҳам инсонлар мазкур асарлардан кўп фойда олдилар”.⁵

Айний айтадилар: “У зот уламолар ва хофизлар учун энг ёрқин намуна, маъно ва лафз аҳли (тилшунослар, луғатшунослар)нинг устун эдилар. Ҳадис, тафсир, тарих борасида ўта моҳир эдилар. Забт ва таҳрирда у кишига етадигани йўқ эди”.

Довудий айтадилар: “У зот матнларни ёдлашга, ҳадисларнинг санадлари, иллатлари, ровийларини билишга ҳамда тарих илмини мукаммал эгаллашга киришдилар ва йигитлик чоғларидаёқ бу нарсаларнинг моҳир билимдонига айландилар”.⁶

Илм йўли машаққат ва риёзатни талаб этади. Бунга қатъияти ва бардоши етмаган киши юксак илм чўққисини забт эта олмайди. Ибн касирнинг ҳаёт йўли ва қолдирган илмий мероси билан танишганда ислом оламида тан олинган улуғ олимлардан бири бўлганлиги бежиз эмаслигига амин бўламиз. Айниқса, алломанинг “Ихтисор улумул ҳадис” асари асрлар оша ўз қадр-қимматини йўқотган эмас. Бугунги кунда ҳам бу асарнинг ўрни ва хизмати алоҳида аҳамият касб этади. Олим кишининг обиддан афзаллиги ҳақида Расулulloҳ (соллаллоҳу алайҳи ва саллам) шундай деганлар. Абу Умома (розияллоҳу анҳу)дан ривоят қилинади: “Расулulloҳ (соллаллоҳу алайҳи ва саллам) ҳузурларида обид ва олим зикр этилди. Шунда Расулulloҳ (соллаллоҳу алайҳи ва саллам): “Олим кишининг обиддан афзаллиги, менинг сизларнинг энг куйингиздан афзаллигим кабидир”, деб марҳамат қилдилар. Мазкур ҳадис бизга яхшилик ўргатувчи кишининг нақадар улуғ мартаба ва мақомга эгаллигини кўрсатиб беради. Яна имом Термизий ривоятида келтирилган бошқа бир ҳадисда: “Олимнинг обиддан афзаллиги ўн тўрт кунлик ойнинг бошқа юлдузлардан афзаллиги кабидир. Дарҳақиқат, олимлар пайғамбарларнинг меросхўрларидир. Пайғамбарлар динор ҳам, дирҳам ҳам мерос қолдирмаган, улар фақат илмни мерос қолдиришган. Ким уни олса, катта бахтни қўлга киритибди”, дейилган. Шундан билиб оламизки, олим кишилар пайғамбарларнинг меросхўрлари ва улар илмдан бошқа нарсани мерос қолдирмайдилар.

Ўтган уламоларимиз: *“Оз ўрганиб, унга амал қилиш умрингга кифоя қилсин”*, деганлар. Биз ёшларга у зотнинг илм ва ҳадис бобидаги ғайрат ва шижоат, қобилият ва истеъдодлари юксак намунадир. Чунки ибн Касир ёшлик пайтидан Қурон, тарих ва ҳадис илмига меҳр қўйиб, уларга алоҳида эътибор қаратади ва бу борада учраган қийинчиликларни енгиб ўтади.

⁵ Юсуф Ибн Закий Абдурахмон Абул Ҳажжож Миззий. Таҳзийбу-л-камол. Ж. 6

⁶ Vikipediya, ochiq ensiklopediya internet sahifasidan

Имом ибн Касирнинг илмий меросини тадқиқ этиш ва оммага етказиш бугунги кунда жуда зарур. Шу маънода бу зотни маънавий иллатларни даволаш ва муолажа қилишда моҳир табибга ўхшатиш мумкин. Моҳир табибнинг сўзига қулоқ солган бемор ўзини қийнаётган дарддан тез фориғ бўлади. Имом ибн Касирнинг илмий меросини маънавий шифо эканлигини ҳеч бир юртдошимиз ёддан чиқармаслиги ва ундан фойдаланиши керак.⁷

Имом Ибн Касирнинг ёзган асарлари:

- “Тафсиру ибн Касир” номи билан машҳур бўлган “Тафсиру Қуръонил Карим”. Бу асар Имом ибн Касирнинг шоҳ асарларидан ҳисобланади;
- “Ал-Бидоя ван Ниҳоя”. Бу асар борлиқнинг яратилишидан тортиб ҳижрий саккизинчи асргача бўлиб ўтган тарихий воқеаларни ўз ичига олади;
- “Ат-Такмил фи жарҳ ва таъдил ва маърифати сиқоти ваз зуъафаи вал мажаҳил”. Бу асар “Санадлар жамланмаси” номи билан билан машҳур;
- “Ал-Боис ул-Ҳасис фи ихтисору улум ул-ҳадис”. Бу асар ибн Салоҳга тегишли “Мукаддима”нинг қисқартирилган шакли ҳисобланади;
- “Жомеъ ус-сунан вал масонид”;
- “Шарҳул Бухорий”. Бу китоб Саҳиҳ ул-Бухорийнинг шарҳи бўлиб, афсуски, бизгача етиб келмаган;
- “Сийратун Набавия”;
- “Китабу табақотуш Шофеъийя”.⁸

Улумул Қуръон соҳасида:

1. Тафсирул Қуръанил азийм;
2. Фазоилул Қуръан.

Ҳадисшунослик соҳасида:

3. Аҳадис ал-усул;
4. Шарҳу Саҳиҳил Бухорий;
5. Ат-Такмил фил жарҳ ват таъдил ва маърифатис сиқоти вал мажаҳийл;
6. Ихтисору улумил ҳадис;
7. Жомиъул масанийд вас сунанил ҳадий лиақвами сунан;
8. Муснаду Аби Бакр ас-Сиддиқ розияллоҳу анҳу;
9. Муснаду Умар ибн ал-Хаттоб розияллоҳу анҳу;
10. Ал-Аҳкам ас-Суғро фил ҳадис;
11. Таҳрийжу аҳадиси адиллатит танбиҳ фий фикҳиш шофиййя;
12. Таҳрийжу аҳадиси Мухтасари ибн ал-Ҳожиб;
13. Мухтасару китаби ал-мадҳал ила китабис Сунан лил Байҳақий;
14. Жузь фий ҳадисис сувар;
15. Жузь фир радд ала ҳадисис сижл;
16. Жузь фил аҳадис ал-варидати фий фазли айямил ушрати мин Зилҳижжа;
17. Жузь фил аҳадис ал-варидати фий қотлил килаб;

⁷ muslim.uz/index.php/hadis/item/2697

⁸ Islom.uz internet sahifasidan

18. Жузь фил аҳадис ал-варидати фий каффаротил мажлис.⁹

Фикҳ ва усулул фикҳ соҳасида:

19. Ал-Аҳкам ал-Кубро;
20. Китабус сиям;
21. Аҳкамут танбиҳ;
22. Жузь фис солатил вусто;
23. Жузь фий мийрасул абавайни маъал ихвати;
24. Жузь физ забийҳа аллатий лам юзкар исмуллоҳи алайҳа;
25. Жузь фир радди ала китабил жизяти;
26. Жузь фий фазли явми арафа;
27. Ал-Муқоддат фий усулил фикҳ.¹⁰

Тарих ва маноқиб соҳасида:

28. Ал-Бидоя ван Ниҳоя;
29. Жузь муфрад фий фатҳил Қустантания;
30. Ас-Сийра ан-Набавия;
31. Табақот аш-Шофиййа;
32. Ал-Возих ан-Нафис фий маноқиб Муҳаммад ибн Идрис;
33. Муқаддима фил ансаб.¹¹

Алломанинг устозлари сифатида қуйидаги зотларни келтириб ўтиш мумкин:

- Қуръон илмида 730 ҳижрий йилда вафот этган ибн Ғайлон Баълабаккий ал-Ҳанбалий;
- Қироат илмида Муҳаммад ибн Жаъфар ал-Лаббод. Ҳижрий 724 йилда вафот этган;
- Нахв илмида Зиёуддин Зарбандий ҳижрий 723 йилда вафот этган;
- Ҳофиз ибн Асокир ҳижрий 723 йилда вафот этган;
- Тарих илмида ал-Барзалий 739 ҳижрий йилда вафот этган;
- Ибн Замалконий 727 йилда вафот этган;
- Ибн Қозий Шихба 726 йилда вафот этган.¹²
- Ҳофиз Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад аз-Заҳабий.
- Шайх Абу Исҳоқ Иброҳим ал-Фазорий.
- Шайх Шамсуддин Абу Наср Муҳаммад аш-Шерозий.
- Шайх Шамсуддин Муҳаммад ал-Асбахоний.¹³

Алломанинг шогирдлари сифатида эса қуйидагиларни келтириб ўтиш мумкин:

- Ҳофиз Алоуддин ибн Ҳожий аш-Шофеъий;
- Муҳаммад ибн Муҳаммад Ҳизр ал-Қураший;

⁹ Islom.uz internet sahifasidan

¹⁰ Islom.uz internet sahifasidan

¹¹ Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий. Сунани Термизий./ Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи: Мирзо Кенжабек. – Т.: Шарк, 2010.

¹² Ҳофиз Ибн касирнинг "ихтисор улумул ҳадис"

¹³ Islom.uz Нозимжон Хошимжон. "Ибн Касирнинг хаёти" мақоласидан.

- Қироат илми шайхларидан бўлган Муҳаммад ибн Абу Муҳаммад ибн ал-Жазарий;
- Ўз ўғиллари Муҳаммаб ибн Абу Муҳаммад ибн Исмоил ал Касир;
- Ибн Абул Иъзз ал-Ҳанафий;
- Ҳофиз Абул Маҳосин ал-Ҳусайний;
- Ҳофиз Зайниддин ал-Ироқий;
- Имом Зайлабий.¹⁴

¹⁴ Ибн Ҳажар ал-Аскалоний. Тақриб ат-Таҳзиб. – Байрут: Дор ар-Рашид, 1991.

"GAMIFYING ENGLISH LESSONS WITH AI: ENGAGING LEARNERS THROUGH INTELLIGENT DESIGN"**Irzakulova Raykhon***academic lyceum named after***M.S.Vasikova under TSUL***998934377796**@raykhon_webster*

Abstract: *This article explores the integration of gamification (the application of game elements) and Artificial Intelligence (AI) technologies in English language education. It analyzes the potential of AI-powered gamified lessons to enhance learner motivation, actively engage students in the learning process, and create personalized educational experiences. The article highlights how AI's capabilities, such as providing personalized content, real-time feedback, speech recognition, and adaptive difficulty levels, can significantly improve learning effectiveness. The paper concludes with a list of references and a summary, offering insights into the future role of AI and gamification in education.*

Keywords: *Gamification, Artificial Intelligence (AI), English Language Teaching Learner Engagement, Personalized Learning, Intelligent Design, Language Acquisition, Learning Motivation.*

In today's rapidly evolving educational landscape, increasing student engagement and maintaining their motivation are becoming increasingly crucial. As traditional teaching methods may not always captivate all learners, there's a growing need for innovative approaches. In this context, the integration of gamification (incorporating game elements into non-game contexts) and Artificial Intelligence (AI) technologies is opening up new possibilities in English language education. This article comprehensively examines the advantages, implementation methods, and impact on the learning process of gamifying English lessons with the help of AI.

The Synergy of Gamification and AI

Gamification helps make the learning process fun and interactive. Elements like points, rewards, levels, leaderboards, and missions motivate students and ignite their competitive spirit. This, in turn, boosts their drive to learn.

Artificial Intelligence (AI) elevates this process to a new level. With AI, it's possible to:

- * **Personalized Learning Experience:** AI analyzes a student's proficiency level, learning style, and interests to suggest tailored tasks and exercises. This allows each student to progress at their own pace.

- * **Real-time Feedback:** AI systems can instantly identify student errors and provide immediate corrections and explanations. This makes the learning process more efficient and prevents the reinforcement of mistakes.

- * **Adaptive Difficulty Level:** AI automatically adjusts the difficulty of tasks based on the student's performance. If a student performs well, more challenging tasks are offered; if they struggle, easier exercises are suggested.

* **Speech Recognition and Assessment:** AI-powered tools can assess students' pronunciation and help them learn correct articulation.

* **Engaging Storylines and Scenarios:** AI generative models can create engaging stories, role-playing games, and simulations for English language learning, helping students apply the language in practical contexts.

Implementation Methods

Various approaches can be used to gamify English lessons with AI:

* **Interactive Language Learning Applications:** Apps like Duolingo, Babbel, and ELSA Speak combine gamification elements (points, streaks, levels) with AI to transform language learning into an enjoyable process. AI in these apps monitors student progress and provides relevant content.

* **Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) Games:** In AI-integrated VR/AR environments, students can interact with English-speaking characters, simulate real-life situations, and practice the language in immersive scenarios.

* **Chatbots and Virtual Assistants:** AI-powered chatbots can converse with English learners, offer help with grammar and vocabulary, and answer students' questions. This allows students to practice the language in a safe and error-tolerant environment.

* **Adaptive Tests and Quizzes:** AI generates tests and quizzes to identify a student's strengths and weaknesses. Gamification elements (time limits, rankings) make these assessments more engaging.

* **Interdisciplinary Projects:** Incorporating elements from other subjects (e.g., history, science) into English lessons and creating interactive projects with AI can enhance students' general knowledge while boosting their interest in language learning.

Advantages

* **Higher Motivation and Engagement:** Gamification elements encourage students to learn and ensure their active participation in the process.

* **More Effective Learning:** AI's personalized approach and real-time feedback capabilities significantly optimize the learning process.

* **Reduced Cognitive Load:** Gamification helps frame learning as play, which reduces students' cognitive load and prevents stress.

* **Comprehensive Development of Language Skills:** Gamified AI tools aid in developing all language skills, including listening comprehension, speaking, reading, and writing.

* **Support for Teachers:** AI assists teachers in identifying each student's individual needs and tracking their progress, thereby reducing their workload.

Conclusion, Gamifying English lessons with Artificial Intelligence is bringing about revolutionary changes in education. This approach allows students not only to learn the language more effectively but also to enjoy the process. AI-powered gamified platforms, created with intelligent design, adapt to each student's individual needs, helping them achieve their goals. In the future, these technologies are expected to become more widespread in education, making the learning process even more interactive, engaging, and effective.

REFERENCES:

1. Kapp, K. M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education*. Wiley.
2. Duolingo. (n.d.). How Duolingo teaches languages. Retrieved from Duolingo Official Website
3. ELSA Speak. (n.d.). AI-powered English pronunciation coach. Retrieved from ELSA Speak Official Website
4. Prensky, M. (2001). *Digital Game-Based Learning*. McGraw-Hill.
5. Huang, W. H., & S.-M. Lin. (2018). *Gamification of Learning: Theoretical Perspectives and Practical Applications*. Springer.
6. Chen, Y., & Chen, J. (2020). Artificial Intelligence in Language Education: A Review. *Journal of Computer Assisted Learning*, 36(1), 1-13.
7. Zou, D., & Thomas, M. (2020). The Role of AI in Gamification of Language Learning: A Scoping Review. *Education and Information Technologies*, 25(6), 4691-4709.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

To‘rayev Shoyadbek Axmadjonovich

“Transport logistikasi” kafedrası dotsenti


Andijon davlat texnika instituti, Tel.: +99891 1749966

Mexanik uzatmalar qutisining (MUQ) sinxronizatorlari avtomobilning turli tezlik rejimlarida uzatmani almashtirish qulayligini ta‘minlaydi, biroq bu vaziyatda xaydovchining yuqori darajadagi e‘tiborini talab etadi. Xaydovchilarni bunday noqulayliklar va ma‘naviy yuklardan ozod etish, xamda avtotransportni boshqarish qulayligini oshrish uchun avtomatik transmissiyaning imkoniyatlari keng [1].

Bu borada General Motors kompaniyasining dastlabki avtomatik uzatmalar qutisi , avtomatik tizim bilan boshqariladigan 4 pog‘onali bo‘lib, gidromufta bilan jixozlangan edi.

U vaqt o‘tgan sari gidrotransformatorga o‘zgarib, ulanishni yanada ravon va samarali bo‘lishini ta‘minladi [2].

Gidrotransformator turbina va nasos g‘ildiraklari bilan bir qatorda reaktorga ham ega bo‘lib, dvigateldan kelayotgan burovchi momentni ishchi suyuqlik – moy orqali juda ravon uzatib beradi. Bunda burovchi momentning miqdori avtomatik tarzda o‘zgaradi (avtomobil tezligi va yo‘l sharoitiga bog‘liq ravishda). AUQning nasos g‘ildiragi dvigatel tirsakli vali bilan, turbina g‘ildiragi esa UQning yetakchi vali bilan bog‘langan (1-rasm) [3].



1-rasm. Avtomatik uzatmalar qutisi

Shu bilan birga AUQlarining quyidagi kamchiliklari mavjud:

Avtomobil uzatmalar qutisiga bilan jixozlangan avtomobil MUQ bilan jixozlangan avtomobilga nisbatan yuqori yonilg‘i sarfiga ega;

□Avtomobil uzatmalar qutisigabilan jixozlangan avtomobilni faqat ayrim hollarda barcha havfsizlik choralariga qat‘iy amal qilgan holda shatakka olinishi mumkin. Bunday vaziyatlarda evakuator xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq [4].

Sekvental turdagi AUQ

Sekvental turdagiAvtomobil uzatmalar qutisigamexanik UQdan uncha katta farq qilmaydi. Unda uzatmalar maxsus gidromexanik tizim orqali avtomatik boshqariladi. Boshqarish mashinaning elektron tizimi orqali boshqarilib, ilashmaning pedaliga hojat yo‘q. Bu uzatmada sekventallik (ketma-ket, ingliz.), uzatmalar almashishining qat‘iy navbatini anglatadi, ya‘ni uzatmalar pastda yuqoriga va aksincha qat‘iy tartib bilan har bir pog‘inadan utilishi talab etiladi [5].

Bunday turdagi AUQlari traktorlarda ham keng qo'llanilmoqda, chunki ularda burovchi moment keng diapozonda o'zgaradigan ko'p uzatmalar ishlatiladi [6].

Robotlashtirilgan (avtomatik boshqariladigan mexanik uzatmalar qutisi) UQ

Robotlashtirilgan UQ tuzilishi va ishlash prinsipi bo'yicha standart mexanik transmissiyaning texnik xarakteristikalari bilan ko'p jixatdan mos keladi. U ham uchta asosiy valga ega (yetaklanuvchi, yetakchi va oraliq), shesternyalari ham uzatish soni ham o'xshash. «Robot» atamasi, barcha jarayonlarni maxsus moslamalar - «servoyuritmalar» va «aktuatorlar» boshqarib, ular zarur vaqtda uzatmani ulash va uzish vazifasini bajaradi. Bu jarayonlarni boshqarish maxsus elektron blok yordamida amalga oshirilib, u boshqaruv komandasini reduktor yoki gidroyuritmaga ega bo'lgan elektrodvigatelga beradi (2-rasm) [7].



2-rasm. Avtomatik boshqariladigan mexanik uzatmalar qutisi

Robotlashtirilgan UQ bilan jixozlangan avtomobil xaydovchisi transport vositasi kompyuterga ishongan holda avtomatik boshqarishni topshirishi, yoki uzatmalarni almashtirish uchun rul ostiga joylashtirilgan richak yoki yaproqsimon selektordan foydalanib qo'lda boshqarishi mumkin [8].

Robotlashtirilgan UQning kamchiliklari:

- murakkab sharoitlarda harakatlanganda ilashma ravon boshqarilmasligi, chunki uzatmalarning tez-tez almashtirilishi noqulaylik tug'diradi;
- bir uzatmadan boshqasiga o'tishda yetakchi va yetaklanuvchi disklarning uzoq vaqt davomida ajralib turishi dvigatelning moslashuvchanligini kamaytiradi va mashina tezligining biroz pasayishiga olib keladi [9].

Ikkita ilashma bilan jihozlangan robotlashtirilgan UQ

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida robotlashtirilgan UQ ikkita ilashma bilan jixozlandi. Bunday konstruksiyaning ishlatilishi agregatning imkoniyatlarini sezilarli oshirdi, ya'ni hozirda ishlab turgan uzatma bilan bir qatorda keyingi ulanishi kerak bo'lgan uzatmani tanlab, oldindan uni ulab qo'yish imkoniyati mavjud (3-rasm).



3-rasm. Ikkita ilashma bilan jihozlangan robotlashtirilgan uzatmalar qutisi

Buning natijasida bir uzatmadan boshqasiga o'tish vaqti sezilarli qisqaradi, avtomobilning manevrchanligi ortadi va uni boshqarish ancha qulay bo'ladi.

Transmissiyaning variatorli turi pog'onasiz hisoblanadi. Bunday uzatmalar qutisi burovchi momentni ravon uzatish imkoniyatiga ega (4-rasm).

Mohiyati jihatidan variator pog'onasiz «avtomat» bo'lib, u doimiy uzatish soniga ega emas.



4-rasm. Variatorli AUQ

Avtomatik transmissiya agregati sifatida variator quyidagi afzalliklarga ega:

- uning konstruksiyasida shesterniya va vallar mavjud emas, chunki burovchi momentning ma'lum qiymatini tizimli ravishda dvigatelni transmissiyadan uzgan holda o'zgartirish talab etilmaydi;
- unda ma'lum uzatish soniga ega bo'lgan uzatmaning bosqichlari yo'q;
- variator orqali yetakchi valga uzatilayotgan burovchi moment konussimon shkivlarlag nisbatan ponasimon tasma qanday joylashganiga qarab doimo o'zgarib turadi;
- variator bilan jixozlangan transmissiyaning yurish ravonligi va yumshoqligi deyarli ideal.

Variatorlarning bu yutuqlari avtomobilsozlikning revolyusion konstruksiyasi bo'lishiga qaramay ular, hozirda kichik quvvatli avtomobillarda qo'llanilmoqda. Ularning asosiy kamchiliklari - resursining kamligi (taxminan 200 ming *km* gacha) va hizmat ko'rsatishning qimmatligi.

Tiptronik

«Tiptronik» atamasi UQning qandaydir bir turi emas, balki UQning konstruksiyasiga qo'shimcha qurilma o'rnatish orqali uning funksional imkoniyati paydo bo'lishiga nisbatan ishlatilishi to'g'ri bo'ladi (5-rasm) [10].



5-rasm. Tiptronik funksiyali AUQni boshqarish richagi


Avtotransportlarda qo‘llaniladigan AUQning standart shakli ba’zi dinamik parametrlarni nazorat qilish imkonini bermaydi, masalan, kuchli (tezkor) tezlanish, dvigatel bilan tormozlash yoki past uzatmaga majburan o‘tish va boshq. Bu vaziyatlarda, «tiptronik» funksiyasi bu muammolarni richak selektor yordamida elektron boshqaruv bilan bog‘langan tezlikni yordamchi roslash tizimi orqali hal etadi (6-rasm).



6-rasm. Uzatmalar qutisi

Yer usti transport tizimlari uchun dvigatellar va kuch uzatmalarining hozirgi holati, muammolari va ularning rivojlanish istiqbollari

Avtomobil uzatmalar qutisining tuzilishi ishlash prinsipi



ADABIYOTLAR:

1. Baynazarov, Khayrullo, et al. "Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation." *E3S Web of Conferences*. Vol. 471. EDP Sciences, 2024.

2. Axmadjonovich, To'rayev Shoyadbek. "THE IMPACT OF COMPOSITE POLYMER MATERIALS ON THE ENVIRONMENT AND HUMAN HEALTH." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 666-669.

3.To'rayev, Sh A., and D. D. Esonboyev. "PIYODALAR O'TISH YO'LINI TAKOMILLASHTIRISH." *Scientific Impulse* 2.14 (2023): 254-257.

4.Axmadjonovich, To'rayev Shoyadbek. "YO 'LKIRA TO 'LOVINING AVTOMATLASH TIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH." *Scientific Impulse* 2.13 (2023): 375-377.

5. Turaev, Shoyadbek. "Pressure of car parts from polymeric materials and loading of production factors on it." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.5 (2022): 138-147.

6.Axmadjonovich, To'rayev Shoyadbek. "HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL QILISH TIZIMI." *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA JURNALI* 1.1 (2023): 1-5.

7.Ahmadjonovich, To'rayev Shoyadbek. "AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN YUQORI BOSIMLI GAZ BALLONLARIDA ISHLATILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLAR TAXLILI." *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 106-111.

8.Тўраев, Ш. А. "Автомобиль втулкаларининг ҳар хил полимер материалларини ёйилишини аниқлаш." (2021): 1-88.

9.Ahmadjonovich, To'rayev Shoyadbek. "AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN YUQORI BOSIMLI GAZ BALLONLARIDA ISHLATILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLAR TAXLILI." *Scientific Impulse* 1.4 (2022): 106-111.

10. Rakhmatov, A., Primov, O., Mamadaliyev, M., Tõrayev, S., Xudoynazarov, U., Xaydarov, S., & Razzoqov, I. (2024). Advancements in renewable energy sources (solar and geothermal): A brief review. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 497, p. 01009). EDP Sciences.

ANDIJON TARIXIDA SEYSMIK JARAYONLAR

J.Yakobjanov

O'z MPU dotsenti, PhD

Zilzila deganda xayolimizga avvalo Toshkent zilzilasi keladi. Bu zilzila fan-texnika taraqqiy etgan paytda sodir bo'lgani uchun zilzilaning asoratlari, undan keyingi qayta qurish kinolentalarga, fotosuratlariga muhrlangan. Ammo yurtimizda Toshkent zilzilasidan avval ham boshqa shaharlarda zilzilalar va beqiyos vayronalıklar bo'lgan. Ana shunday zilzilalardan biri eski Yulian taqvimiga ko'ra 1902 yil 2-3 dekabr (bugungi taqvimda 16 dekabr) kunlari sodir bo'lgan va butun shaharni vayron qilgan Andijon zilzilasi.

Olimlar - R.T. Shamsutdinov, A.A. Is'hoqov hammualliflikda yozgan «Andijon tarixidan lavhalar» kitobining «Andijonning tarixiy, me'moriy obidalari nega bizgacha etib kelmadi?» deb nomlangan bobida shahardagi qadimiy obidalarining zamonamizgacha etib kelmasligi sabablari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, Andijon shahrida bir nechta kuchli zilzila bo'lgani, ayniqsa 1902 yil dekabr zilzilasi juda qattiq bo'lgani, shu tufayli shahardagi barcha binolar qulagani uchun ham Andijonda tarixiy binolar saqlanib qolmagani haqida fikr yuritgan. Shuningdek, S.A. Melik-Sarkisyan risolasida keltirilgan faktlar asosida 1902 yilda Andijonda yuz bergan zilzila ko'lamini tadqiq etgan.

S.A. Melik-Sarkisyaning risolasida yozilishicha, zilzila tufayli O'rta Osiyodagi yirik savdo va sanoat markazlaridan biri bo'lgan Andijon shahri va uning atrofida joylashgan bir qator qishloqlar to'la vayron bo'lgan. 30 mingdan ortiq uy tag-tugi bilan qulab tushgan, 5 mingga yaqin odam zilzila sodir bo'lgan paytda va keyin vayronalar orasida qolib halok bo'lgan. Uyi qulab tushgan ko'plab oilalar boshpanasiz qolgan.

O'lkada hukmron bo'lgan ruslar Andijonni qayta tiklash uchun yordam jamg'armasi tashkil etdi. Melik-Sarkisyaning yozishicha, jamg'armaga hatto Rossiya imperatori Nikolay II va rafiqasi ham mablag' ajratdi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining turli burchaklaridan Andijonga yordam jo'natildi.

Shamsutdinov va Is'hoqovlarning kitobida Andijon zilzilasiga tegishli yana bir muhim gap yozilgan. Unga ko'ra, rus yozuvchisi A.P. Chexov 1903 yil iyunda doktor Kniperga maktubida Moskva shahri teatrlarida maxsus spektakllar qo'yilib, tomoshadan tushgan mablag' Andijonga, zilzila oqibatlarini bartaraf etish uchun yuborilganini yozgan.

Zilzilada har bir xonadondan bir nechta odam halok bo'lgani va andijonliklar motam ichida qolganiga qaramay, vayron bo'lgan shahar va qishloqlarni qayta tiklashda Andijon shahri va unga tutash qishloqlar aholisi jonbozlik ko'rsatib mehnat qildi.

Andijonni tiklashda mahalliy xalq bilan birga ruslar, yahudiylar va boshqa millat vakillari, Andijonni boshqarib turgan rus ma'murlari birday harakat qildi. Andijonda faoliyat olib borgan rus, yahudiy boylari ham zilzila oqibatlarini bartaraf etishga ancha mablag' ajratdi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida Andijon zilzilasi haqida qo'yidagi ma'lumot berilgan: Andijon zilzilasi – O'rta Osiyoda sodir bo'lgan kuchli zilzilalardan biri. 1902 yil 2 dekabr (yangi taqvimda 16 dekabr) soat 10:00 da ro'y bergan. Bu zilziladan Andijon shahri va uning atrofidagi qishloqlar katta talafot ko'rgan. Yer ketma-ket uch marta silkinib, birinchisi 8–9 ball, 1–1,5 daqiqadan so'ng ikkinchisi 9 balldan ortiq va yana 30 minut o'tgach,

uchinchisi 8–9 ball bo‘ldi. 50 ming kishi yashaydigan Andijon shahri bilan atrof qishloqlarda ko‘p joylar vayronaga aylandi. Zilzilada 4 652 kishi nobud bo‘ldi. Zilzila natijasida Andijondan 5–6 chaqirim narigacha bo‘lgan temir yo‘l izlari egilib qoldi. Andijon stansiyasidagi parovoz va poezd vagonlari izlaridan chetga surib tashlandi. 2 dekabrda (16 dekabr) so‘ng ham bir necha oy davomida Andijonda er qimirlab turdi. Zilzila oqibatida Andijon va uning atrofida eni 10 santimetr gacha bir necha yoriq paydo bo‘ldi. Ayrim erlarda er sathi 70 santimetr gacha cho‘kdi. Andijon zilzilasi Janubiy Farg‘ona fleksurasi – uzilish chizig‘i bo‘ylab sodir bo‘lgan.

Bugungi kunda Andijon shahrida saqlanib qolgan obida va binolarning aksariyati o‘sha mash‘um zilziladan keyin qurilgan. Jumladan, XIX asrda qurilib, 1902 yil dekabrda kuchli zilzilada buzilib, qulab ketgan va asr boshlarida qayta tiklangan binolardan Devonbegi yoki Devonoboy masjidi (1862–1865 yillarda qurilgan). Uyg‘ur masjidi (1868–1870), Jome madrasasi (1882–1892) saqlanib qolgan. Ular ta‘mirlanib, xalqqa qaytarib berildi. Andijonliklar ulardan samarali foydalanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мелик-Саркисян С.А. Ферганское землетрясение 3-го декабря 1902-года, Москва, 1903.
2. Ilyasova. Z. “Hayot xavfsizligi asoslari”, “Moliya”, T.:2001.
3. Mavlyanova N.G. “Seysmichesiy risk v Uzbekistane» Avtoreferat dok. disser.T.2007.
4. O‘z FA. “G‘.O. Mavlonov nomidagi seysmologiya instituti 50 yoshda” (1966-2016). T.:2017.
5. Muhofaza + ” jurnali, №1.T.:2002.

**BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZNING ILMY MEROSI YOSHLAR
TARBIYASIDA MUHIM OMIL****J.Yakobjanov***O'z MPU dotsenti, PhD*

Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan so'ng ko'plab sohalarda yangilanishlar amalga oshirildi. Jumladan, ilmiy meroslarimizni yosh avlodga yetkazish ham kun tartibiga qo'yildi. O'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho merosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston, Movarounnahr deb yuritilgan bizning zamin azaldan sivilazatsiya markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish Sharq uyg'onish davri - Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog'dodda tashkil etilgan "Baytul hikma" alohida o'rin tutgan. "Baytul hikma" merosini o'rganganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (786-850) nomi birinchilar qatorida tilga olinadi. Xalifalik akademiasining mudiri bo'lgan al-Xorazmiy o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tadbiiq etdi. Bu esa matematika va astronomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi.

Bog'dod akademiasining yana bir movarounnaxrlik namoyandasi Ahmad Farg'oni (797-865) o'zining "Astronomiya asoslari" deb nomlangan fundamental asarda olamning tuzilishi, yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishga ega ekanligi xususidagi dalillari keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Yillar o'tishi bilan yana ilm-fan va madaniyat o'chog'i Bog'doddan Movarounnahr zaminiga ko'chdi. 1004 yilda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun tomonidan Gurganchda akademiya tashkil etiladi. Xorazm "Ma'mun akademiasini"ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (X a.-1034), Abulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi allomalar tashkil etishgan¹⁵. Ma'mun akademiasida to'plangan olimlar ro'yxati bizgacha yetib kelmagan. Lekin tarixchi Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) ning yozishicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan.

Xorazmning qadimgi poytaxti Gurganch, hozirda Qo'hna Urganch deb nomlanib, u bugungi Xiva shahridan taxminan 100 km. masofada joylashgan. Mahalliy xalq Ko'hna

¹⁵ Азимий Саъдуллаев. Хоразм Маъмун Академияси. – Хива. 2000. 4-б.

Urganchni ko'proq "360" deb ataydi. Rivoyatlariga qaraganda bu shaharda o'tmishda 360 ta shayx, mutafakkir va olimu-fuzalo o'tgan ekan. Mazkur 360 ta alloma aslida "Ma'mun akademiyasi" dovrug'ining halq xotirasida rivoyat shaklidagi ko'rinishidir.

Xorazm "Ma'mun akademiyasi"da faoliyat yuritgan olimlar sardori shubhasiz Abu Rayxon Beruniy (973-1048) edi. Beruniy qomusiy olim sifatida shu darajada ko'p ijod qilganki, u yozgan asarlar ro'yxatining o'ziyoq, agar mayda harflar bilan yozilsa, 60 varaqlik kitobcha hosil bo'lar ekan! Beruniy ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelgan. U geodeziya faniga asos soldi. Minerallar tasnifi va ularning paydo bo'lishi nazariyasini ishlab chiqdi. Amerikalik tarixchi Sarton shuning uchun ham XI asrni "Beruniy asri" deb atagan edi. Beruniy siymosiga mukammal ta'rifni yirik nemis sharqshunos olimi Karl Eduard Zaxau (1845-1930) bergan: "Dunyoda tog'lar ko'p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho'qqi borki, bu cho'qqini insoniyat hech qachon zabt eta olmaydi. Bu – Beruniydir".

Ma'lumki, 1017 yilda Mahmud G'aznaviy (997-1030) Xorazmni bosib olgach, "Ma'mun akademiyasi" olimlarini o'z poytaxti G'aznaga olib ketadi. Beruniy ham o'zining ilmiy faoliyatini G'aznada davom ettiradi. Ammo buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037) Mahmud G'aznaviy amriga bo'ysunmay uning g'animga aylanadi va bir necha yil davomida hukmdordan olisda eronu-xurosonda qochqinda yashashga majbur bo'ladi. Hayotining ko'p yillari tahlkada o'tgan olim 450 dan ortiq asar yaratdi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, Frensis Bekon, g'arb uyg'onish davrining buyuk namoyandalari Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo va boshqa olimlar uning asarlarini o'qib hayratga tushganlar.

Yurtimizdan chiqqan mutafakkir-olimlarning ilmiy merosi haqiqatdan ham olamshumul: Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan Maxmud Zamaxshariy (1075-1144) tarixda birinchi ko'p tilli lug'at – arabcha-forscha-turkiy lug'atni tuzgan edi. "Sharq Aristoteli" ("Ikkinchi muallim") nomi bilan mashxur Abu Nasr Forobiy (873-950) jahon tarixida birinchi bo'lib nota yaratgan. U ixtiro qilgan cholg'u asbobi – qonun hamon sozandalarimiz qo'lidan tushmaydi. Beruniy zamondoshi, Foroblik Javhariy (940-1008) o'zi yasagan qanotlar bilan uchish mumkinligini Leonardo da Vinchidan 500 yil oldin tajribada sinab ko'rgan¹⁶.

Bizning yurtimizdan nafaqat aniq fanlar balki islom huquqshunosligi (fiqx), mantiq, tasavvuf va kalom ilmining darg'alari yetishib chiqdi. Imom al-Buxoriy (810-870), imom at-Termiziy (824-894), Motirudiy (870-944), Marg'iloniy (-1197), Abduxoliq G'ijduvoni (1103-1179), Bahouddin Naqshbandiy (1318-1389) kabi allomalarimizning ilohiyot ilmidagi merosi butun dunyo ilm ahlining "Islom daraxti Makka va Madinada ko'kardiyu, lekin Movarounnahrda meva berdi" degan e'tirofiga sazovor bo'ldi. Darhaqiqat atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning "Qadim Gretsiya Yevropa sivilizatsiyasi o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallagan" degan so'zlarida katta ma'no mujassam.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Nega aynan Movarounnahrda chiqqan olimlar Bog'dod Akademiyasida yuksak sharaf va mavqega sazovor bo'lganlar? Nega butun bir XI asrni g'arb olimlari "Beruniy asri" deya e'tirof etganlar? Nega dunyoning turli nuqtalarida masalan, Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va

¹⁶ А.Иброхимов. Бизким ўзбеклар ... – Т., "Шарқ". 2011. 62, 425-бетлар.

Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg‘oniy kabi vatandoshlarimizga haykallar o‘rnatilgan.¹⁷ Chunki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganlaridek, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak¹⁷. Darhaqiqat Vatanimiz azaldan buyuk allomalarni, mard va jasur Vatan himoyachilarini, mashxur lashkarboshi va buyuk davlat arboblarni yetishtirib bergan muqaddas yurt.

Bugungi globalashuv davrida, axborot oqimlari o‘ta faollashgan zamonda barkamol avlod tarbiyasi, yoshlar ongida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga xurmat tuyg‘usini shakllantirish va uni rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biridir. Globallashuv zamonida hech bir jamiyat uzoq vaqt tashqi olamdan yopiq xolda yashay olmaydi. Agar shunday xolat ushlab turilgan taqdirda u har tomonlama qoloq va kuchsiz bo‘lib qoladi. Shunday ekan bugungi kunda xar bir ziyoli, qolaversa millat kelajagi va yurt taqdirini o‘zining taqdiri bilan bog‘liq ko‘ruvchi har bir inson yosh avlod tarbiyasiga loqayd bo‘lmasligi lozim. Zamoniviy yoshlar 20-30 yil oldingi yoshlardan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida ularning qalbiga siyqasi chiqqan eski ta’lim-tarbiya usullari vositasi orqali yondashuv har doim ham kutilgan natija bermaydi. Bugungi yoshlarning qiziqishlari doirasi juda keng. Barkamol avlod tarbiyasini samarali amalga oshirishda esa bizda ma’naviy meros yetarli. Bu boy merosdan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish sizni bizning vazifamiz va burchimizdir. Zero Vatanga, millatga muhabbat tuyg‘usi eng muqaddas, eng mo‘tabar tuyg‘udir.

¹⁷ И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., “Маънавият”. 2008. 5-6 б.

AMIR TEMUR SHAHSI XORIJIY TADQIQOTLAR TAVSIFIDA

R.Shukurov

Nizomiy nomidagi O'Zmpu dots, v/b., PhD

Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyati Vatanimiz tarixining ziddiyatli va murakkab davriga to'g'ri keldi. Ma'lumki, Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi amaliy harakatlari 1360 yildan, Tug'luq Temur xizmatiga o'tgan kundan boshlangan.

Ulus beklari dushmanga qarshi birlashib kurashish o'rniga, har tomonga qochib ketadilar. Amir Temur Tug'luq Temur ishonchiga kiradi. Biroq, uning o'g'li-taxt vorisi Ilyosxo'ja bilan aloqasi murakkablashuvi Temurbekning amir Xusayn bilan o'zaro ittifoq bo'lishini taqozo etdi. Afsuski, amir Xusayin Temurbekning qayn og'asi bo'lishiga qaramay, "Loy jangi" da hiyonat yo'lini tanlashi, ittifoqchilar orasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keldi.

1370 yilda, Balx jangida, Amir Husaynni mag'lub etib Mavoraunnahr hokimiyatini qo'lga kiritgach, o'zi tuzgan davlatga 35 yil bosh bo'ldi, 27 mamlakatni birlashtirib, buyuk imperiyani tuzdi. U o'z imperiyasini Turon, ya'ni turkiy xalqlar davlati deb atadi. Shuning uchun uning nomidan chiqqan farmonlar "Men kim Turon hukmdori Temurbek so'zim ..." deb boshlangan. U tarixda Movarounnahr va Xuroson beklklarining markazlashgan harbiy-feodal davlatga birlashtirgan buyuk davlat arbobi, harbiy sarkarda, turk davlatchilik tarixiga ilk bor mukammal qonunchilikni, mamlakatni qonun asosida boshqarishni kiritgan odil hukmdor hisoblanadi.

Amir Temur shaxsi barcha zamonlarda olimlarning diqqat markazida bo'lib keldi. Quyida sohibqiron Amir Temurning faoliyati bilan bog'liq ayrim ibratli tarixiy voqealar haqida so'z yuritimiz.

XIV-XV asr arab dunyosida, Misr tarixchilar orasida mashhur, Amir Temur bilan bir necha marta uchrashib suhbatlashgan, Amir Temurning ilmiy va ma'naviy salohiyatiga tan berib, u haqda o'z xotiralarini yozib qoldirgan Ibn Xaldun, o'zining "Asabiya" (vatanparvarlik) to'g'risidagi asarida: "forslar va arablar dunyoda peshvo millatlik asrini o'tab bo'ldi, endi bu rol Amir Temur dahosi tufayli turklarning qo'liga o'tdi" degan yuksak bahoni bergan. Ibn Xaldun Amir Temurning Suriyaga harbiy yurishi davrida (1401 yil yanvar-febral) Damashq qalasida asirda bo'lgan. Amir Temur u bilan shaxsan qiziqqanligini suriyalik shayx ibn Muflix orqali xabar topib, Dashashqdan qochish yoki Amir Temur huzuriga borishga ikkilanadi. Nihoyat, taqdirga tan berib, uning huzuriga boradi. Ibn Xaldun 35 kun davomida Amir Temur bilan davomli suhbatda bo'ladi. Ular bir-birlarini obdon o'rganadilar. Ibn Xaldun Sohibqironga Alloh nasib etgan tarixiy vazifasini yuksak darajada bajarganligini ta'kidlaydi. Suhbat davomida Ibn Xaldunning buyuk alloma ekanligiga ishongan Amir Temur esa, unga hurmat bajo keltirib, Damashq uchun arablarga yengil sulxga rozilik bildiradi.

Ibn Xaldun Qoxiraga qaytgach, yozgan xotiralarida Amir Temurga nisbatan biron marta ham salbiy o'xshatishlar ishlatmay, uni hurmat bilan tilga oladi. Ibn Xaldun arab tarixchilari orasida Amir Temur shaxsiyatiga juda to'g'ri baho bergan alloma bo'lib, Amir Temur uning

tasavvurida nafaqat “yirik sarkarda va davlat arbobi, balki o'ta bilimdan, o'qimishli, o'z davrining ma'rifatli kishilaridan biri” bo'lgan.

Shuning uchun Amir Temur ulkan davlatning asoschisi va rahbari sifatida butun faoliyatini o'z davlatining mustahkam asosi bo'lgan yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimni yaratish va saqlab qolishlikning nazariy prinsiplari, qonun va qoidalarini to'g'ri belgilashga qaratdi. Amir Temur fuqorolarning, jamiyatning, davlatning hayotida tartib o'rnatish mexanizmlari bo'lib ishlaydigan qonunlarni belgilashni o'zining eng birinchi burchi deb hisoblagan. Shu bois, u mamlakat qonunchiligining asosi sifatida “Tuzuklar”ni turkiy tilda yaratdi. Unga amal qilishni qat'iy yo'lga qo'ydi.

- Ali, S., et al. (2011). Early detection of illicit drug use in teenagers. *Innovations in Clinical Neuroscience*, 8(11), 34-39.
- Allen, M., et al. (2003). Comparing the influence of parents and peers on adolescent behavior: A review of the literature. *Criminal Justice and Behavior*, 30(4), 444-472.
- American Psychological Association. (2023, February). Reducing social media use significantly improves body image in teens, young adults. <https://www.apa.org/news/press/releases/2023/02/social-media-body-image>
- Bandura, A. (1977). *Social learning theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
- Black, S. E., Devereux, P. J., & Salvanes, K. G. (2013). Under pressure? The effect of peers on outcomes of young adults. *Journal of Labor Economics*, 31(1), 119-153.
- Bonein, A., & Denant-Boèmont, L. (2015). Self-control, commitment, and peer pressure: A laboratory experiment. *Experimental Economics*, 18(4), 543-568.
- Brown, B. B. (2004). Adolescents' relationships with peers. In R. M. Lerner & L. Steinberg (Eds.), *Handbook of adolescent psychology* (pp. 363-394). Hoboken, NJ: Wiley.
- Chan, S. M., & Chan, K. W. (2013). Adolescents' susceptibility to peer pressure relations to parent-adolescent relationship and adolescents' emotional autonomy from parents. *Youth & Society*, 45(2), 286-302.

Dumas, T. M., Ellis, W. E., & Wolfe, D. A. (2012). Identity development as a buffer of adolescent risk behaviors in the context of peer group pressure and control. *Journal of Adolescence*, 35(4), 917-927.

Festinger, L. (1954). A theory of social comparison processes. *Human Relations*, 7(2), 117-140. <https://doi.org/10.1177/001872675400700202>

Hebert, A., Hernandez, A., Perkins, R., & Puig, A. (2023, March 1). Protecting your child's privacy online. *Consumer Advice*. <https://consumer.ftc.gov/articles/protecting-your-childs-privacy-online>

Luxton, D. D., June, J. D., & Fairall, J. M. (2012). Social media and suicide: A public health perspective. *American Journal of Public Health*, 102(S2), S2-S6. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3477910/>

Lyness, D. (2015, July). Peer pressure. *Teens Health*. <https://kidshealth.org/en/teens/peer-pressure.html>

Maurya, C., Muhammad, T., Dhillon, P., & Maurya, P. (2022). The effects of cyberbullying victimization on depression and suicidal ideation among adolescents and young adults: A three year cohort study from India. *BMC Psychiatry*, 22(1). <https://bmcp psychiatry.biomedcentral.com/articles/10.1186/s12888-022-04238-x>

Nixon, C. (2014). Current perspectives: The impact of cyberbullying on adolescent health. *Adolescent Health, Medicine and Therapeutics*, 143. <https://www.dovepress.com/current-perspectives-the-impact-of-cyberbullying-on-adolescent-health-peer-reviewed-fulltext-article-AHMT>

Potard, C., Courtois, R., & Rusch, E. (2008). The influence of peers on risky sexual behavior in adolescence. *The European Journal of Contraception & Reproductive Health Care*, 13(4), 365-373.

Raisingchildren.net.au. (2019). Peer pressure and influence: Teenagers. <https://raisingchildren.net.au/articles/peer-pressure-and-influence-teenagers>

Ryan, A. M. (2001). Peer groups as a context for the development of adolescent motivation and achievement. *Child Development*, 72(4), 1135-1150. <https://doi.org/10.1111/1467-8624.00338>

Steinberg, L., & Monahan, K. C. (2007). Age differences in resistance to peer influence. *Developmental Psychology*, 43(6), 1531-1543. <https://doi.org/10.1037/0012-1649.43.6.1531>

Twenge, J. M., Martin, G. N., & Campbell, W. K. (2017). Associations between screen time and lower psychological well-being among children and adolescents: Evidence from a population-based study. *Preventive Medicine Reports*, 6, 271-283. <https://doi.org/10.1016/j.pmedr.2017.10.020>

U.S. Department of Health & Human Services, Office of Adolescent Health. (2019, March 25). Peer pressure. <https://www.hhs.gov/ash/oah/adolescent-health-topics/peer-pressure/index.html>

Van Hoorn, J., van Dijk, E., Meuwese, R., Rieffe, C., & Crone, E. A. (2016). Peer influence on prosocial behavior in adolescence. *Journal of Research on Adolescence*, 26(1), 120-134.

Vogels, E. A. (2022, December 15). *Teens and cyberbullying 2022*. Pew Research Center: Internet, Science & Tech. <https://www.pewresearch.org/internet/2022/12/15/teens-and-cyberbullying-2022/>

Wentzel, K. R. (1998). Social relationships and motivation in middle school: The role of parents, teachers, and peers. *Journal of Educational Psychology*, 90(2), 202-209. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.90.2.202>

Yuen Loke, A., & Mak, Y. W. (2013). Family process and peer influences on adolescent behavior. *International Journal of Environmental Research and Public Health*. <https://doi.org/10.3390/ijerph10071847>

**“INTELEKTUAL MULK HUQUQIDA TURDOSH HUQUQ TUSHUNCHASI
VA UNING AHAMIYATI”***Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti**Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi***Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna***Ilmiy Rahbar: Yuridik fakulteti o'qituvchisi Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasida dotsenti Mallayev Normamat Ramazonovich*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada turdosh huquqlar tushunchasi, uning ahamiyati va uning amaliyotda qo'lanilishi, shuningdek, uning bugungi kunda xorijiy tajribalardagi roli haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, intellektual mulk, asar, ijodiy faoliyat, tijorat, madaniy meros, huquqiy himoya, daromad taqsimoti, tarjima, asarlarni qayta ishlash.*

Turdosh huquqlar – bu mualliflik huquqiga yaqin bo'lgan, lekin bevosita mualliflik huquqiga kirmaydigan huquqlar bo'lib, ular asrni yaratmagan, ammo, uni ommaga yetkazishda ishtirok etgan shaxslarga tegishli huquqlar hisoblanadi. Biz hayotimiz davomida ko'p marotaba turdosh huquqlarga duch kelganimiz. Misol uchun: kundalik hayotimizda tinglaydigan musiqalarni olaylik. Ularni kuylayotgan xonandalar turdosh huquq egalari hisoblanadi, amma musiqa so'zi yoki she'rini yozgan shaxs boshqa bo'ladi yoki asarlar asosida yaratilgan filmlar masalan “Shum bola” filmi. Bu film G'afur G'ulomning “Shum bola” asari asosida yaratilgan bu ham turdosh huquqlar natijasida yaratilgan. Turdosh huquqlarning obyektlari jumlasiga ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi²⁹. Turdosh huquqlarini obyektlari kimlar tomonidan yaratiladi? Turdosh huquqlarning subyektlari kim degan savol paydo bo'ladi? Turdosh huquqlarning subyektlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1075-moddasida belgilangan Ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar turdosh huquqlar subyektlaridir. Turdosh huquqlar qachondan boshlab ijrochilarga tegishli bo'ladi? Ijrochining huquqlari quyidagi shartlardan biriga rioya etilgan taqdirda, ushbu Qonunga muvofiq unga tegishli deb e'tirof etiladi:

1. ijrochi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa;

2. ijrochining fuqaroligidan qat'i nazar, ijro birinchi marta O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan bo'lsa;

3. ijro ushbu moddaning ikkinchi qismi qoidalariga muvofiq muhofaza qilinadigan fonogrammaga yozilgan bo'lsa;

4. fonogrammaga yozilmagan ijro ushbu moddaning uchinchi qismi qoidasiga muvofiq efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning muhofaza qilinadigan ko'rsatuv yoki eshittirishiga kiritilgan bo'lsa.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1074-moddasi.

5. Fonogrammani tayyorlovchining huquqlari quyidagi shartlardan biriga rioya etilgan taqdirda, ushbu Qonunga muvofiq unga tegishli deb e'tirof etiladi:

6. fonogrammani tayyorlovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yeriga ega bo'lgan yuridik shaxs bo'lsa;

7. fonogrammani tayyorlovchining fuqaroligi yoki joylashgan yeridan qat'i nazar, fonogramma birinchi marta O'zbekiston Respublikasi hududida chop etilgan bo'lsa.

8. Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari, agar tashkilot O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yeriga ega bo'lsa hamda efirga uzatish yoki kabel orqali yuborishni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uzatgichlar yordamida amalga oshirayotgan bo'lsa, ushbu Qonunga muvofiq mazkur tashkilotga tegishli deb e'tirof etiladi.

9. Chet el yuridik va jismoniy shaxslarining O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan turdosh huquqlari ham ushbu Qonunga binoan e'tirof etiladi.

Bugungi raqamlashib borayotgan zamonda turdosh huquqlarini buzilishi bilan bog'liq muammolar ko'payib bormoqda. Quyidagi statistika ma'lumotlariga e'tibor qaratsak: Qoida buzarliliklar soni: **2020-yil** – 81 ta huquqbuzarlik holati; **2021-yil** – 887 ta huquqbuzarlik holati; **2022-yil** – 1 209 ta huquqbuzarlik holati. 2022 - yilda aniqlangan huquqbuzarliklarning **31 foizi internet tarmog'ida sodir etilgan**³⁰. Jabrlanganlar soni: 2022-yilda **137 ta ma'muriy bayonnoma** rasmiylashtirilgan, **600 ta og'ohlantirish** va **180 ta taqdimnoma** kiritilgan. Shuningdek, **117 ta shaxsga nisbatan jami 124 million so'm miqdorida jarima jazosi tayinlangan**³¹. Bundan shu narsa ma'lumki, turdosh huquqlarning buzilishi yildan-yilga ortib bormoqda. Turdosh huquqlar qanday himoya qilinadi, uning qanday himoya belgilari bor va qaysi sohalarga amal qiladi? Shu va shunga o'xshash savollarga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **1076-moddasida, Turdosh huquqlarning muhofaza belgilari belgilab qo'yilgan**: Fonogrammaga va (yoki) bunday fonogrammaga yozilgan ijroga bo'lgan mutlaq huquqlar egalari o'z huquqlaridan xabardor qilish uchun turdosh huquqlarning muhofaza belgisidan foydalanishlari mumkin bo'lib, bu belgi fonogrammaning har bir nusxasida va (yoki) u saqlanadigan har bir g'ilofda aks ettiriladi hamda quyidagi uch unsurdan iborat bo'ladi:

- 1) aylana ichidagi lotincha "R" harfi;
- 2) mutlaq turdosh huquqlar egasining ismi (nomi);
- 3) fonogramma birinchi marta chop etilgan yil.

4) Nomi yoki ismi ushbu fonogrammada va (yoki) u saqlanadigan g'ilofda odatiy tarzda ko'rsatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, fonogrammani tayyorlovchi deb e'tirof etiladi. Bu turdosh huquqlarning himoya belgilari hisoblanadi.

Turdosh huquqlar buzish asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish; 2) ijrochining ismi-sharifga bo'lgan va

³⁰ [.Uza.uz+1UzReport+1](#)

³¹ [Aniq.uz+1EU Reporter+1](#)

ijroni har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish; 3) huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish; 4) Qonunda nazarda tutilgan hollarda haq to'lash to'g'risidagi talablarni buzish; 5) asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish; 6) huquq egalari mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzishdir. Asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalari kontrafakt nusxalardir³². Ushbu Qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining bunday asarlarni va turdosh huquqlar obyektlarini muhofaza qilish to'xtatilgan yoki hech qachon muhofaza qilinmagan davlatlardan huquq egalari roziligisiz import qilinadigan nusxalari ham kontrafakt nusxalardir³³.

Agarda shu kabi holatlar orqali turdosh huquqlar buzilsa, ushbu huquqlar egasi quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: 1) huquqlarni tan olishini; 2) huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to'xtatishini; 3) huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o'rnini qoplashini. Agar huquqbuzar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo'lsa, huquq egalari boshqa zararlardan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo'lmagan miqdorda qoplashini; 4) zararlardan yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashini; 5) Muallif va ijrochi o'z huquqlari buzilgan taqdirda, huquqbuzardan ma'naviy ziyon qoplanishini talab qilishga haqlidir. 6) Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot mulkiy huquqlarini boshqarish shunday tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan shaxslarning buzilgan mualliflik huquqlari va turdosh huquqlarini himoya qilib qonunda belgilangan tartibda o'z nomidan ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir. 7) Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar buzilishining oldini olish yoki uni to'xtatish uchun zarur choralar ko'rish natijasida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlardan, shuningdek bunday choralarni amalga oshirgan shaxs ko'rgan zararlardan huquqbuzar hisobidan undirib olinishi kerak³⁴. Ammo bugungi kunda shuncha belgilab qo'yilgan chora-tadbirlarga qaramay Turdosh huquqlarning buzilishi ortib bormoqda. Bugungi kundagi eng asosiy dolzarb butunjahon bo'ylab dolzarb bo'lib borayotgan muammolar mavjud: 1. Kontentni noqonuniy tarqatish³⁵; 2. Ijodkorlarning adolatli daromad ololmasligi; 3. Texnologik rivojlanish ortidan huquqiy bazaning ortda qolishi; 4. Huquqni amalda himoya

³² <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

³³ <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

³⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

³⁵ [Wikisource:4UzReport+4UzReport+1Uza.uz+1](https://www.wikisource.org/wiki/Wikisource:4UzReport+4UzReport+1Uza.uz+1)

qilishdagi zaifliklar ³⁶hisoblanadi. Bu muammolar deyarli barcha davlatlarda uchramoqda, lekin bu muammolarga yechim topgan davlatlar ham mavjud:

Yevropa Ittifoqi (YI): Raqamli bozorni tartibga solish bo'yicha islohot amalga oshirgan, ushbu islohotda: YI 2019-yilda qabul qilgan "Mualliflik huquqi to'g'risidagi Raqamli Bozor Direktivasi (DSM)"³⁷ orqali muhim yechimlarni joriy qildi: **1)** Platformalarga javobgarlik yuklandi: YouTube, Facebook kabi xizmatlar foydalanuvchilar yuklagan kontentda mualliflik va turdosh huquqlar buzilmasligini nazorat qilishi majburiy bo'ldi. **2)** Ijodkorlarga ko'proq daromad: Platformalardan kontent ishlatilgan taqdirda, ijrochilarga va fonogramma egalarga adolatli kompensatsiya to'lash majburiyati joriy etildi. Natijada Yevropa Ittifoqi davlatlarida ijodkorlar va ijrochilar onlayn platformalardan ko'proq va oson daromad olmoqda.

Sun'iy intellect bilan bo'g'liq huquqbuzarliklarga Janubiy Koreya ³⁸davlati quyidagicha islohot orqali yechim topgan: **1)** Ijrochining ovozi, qiyofasi va ijrosidan foydalanish uchun yozma ruxsat talab qilinadi. **2)** Deepfake texnologiyalarini ruxsatsiz ishlatish jinoyat hisoblanadi. Buning natijasida mashhur san'atkorlarning ovozi bilan bog'liq noqonuniy foydalanish holatlari kamaydi.

AQSh da ham shu kabi muammolarga yechim sifatida quyidagi tizimlar joriy qilindi: DMCA va Content ID tizimlari³⁹: **1)** Digital Millennium Copyright Act (DMCA) 1998-yildan buyon faol ishlatilmoqda: Huquq egalari onlayn platformalarga takedown notice (kontentni olib tashlash talabi) yuborishi mumkin. YouTube Content ID – avtomatik tizim orqali turdosh huquq bilan himoyalangan ovoz, video va ijrolar aniqlanadi va Asl egaga daromad taqsimoti taqdim etiladi yoki kontent bloklanadi. Bu tizimlar natijasida YouTube orqali ko'plab ijrochilar o'z huquqlarini himoya qila olmoqda va qonuniy daromadga ega bo'lishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, shu va shunga o'xshash bir qator xalqaro islohotlarni mamlakatimizga ham joriy qilish orqali yildan-yilga ko'payib borayotgan huquqbuzarliklarni kamaytirish va yuqori natijalarga erisha olamiz. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turdosh huquqlar masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Asosiy ijodkor bo'lmagan, biroq asarlarni ijro etgan, tarqatgan yoki ommaga yetkazishda ishtirok etgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish – bu zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

2.O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

3. [Uz Report yangiliklari Wikisource+4Uza.uz+4UzReport+4UzReport+1Uza.uz+1](#)

³⁶ <https://yuz.uz+4Uza.uz+4UzReport+4>

³⁷ eur-lex.europa.eu

³⁸ <https://www.support.google.com/youtube>

³⁹ <https://www.TheKoreaHerald/Yonhap.com>

4. Directive (EU) 2019/790 - “Copyright in the Digital Single Market”: eur-lex.europa.eu
5. DMCA (Digital Millennium Copyright Act), 1998: <https://www.support.google.com/youtube>
6. AI-generated content regulation: <https://www.TheKoreaHerald/Yonhap.com>

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING
SAMARADORLIGI

O.Sh.Uralov

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati, undan foydalanish usullari va bu usul orqali talabalar til ko'nikmalarining rivojlanishiga erishish yo'llari tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida ingliz tilida samarali muloqot qila olish ko'nikmasi har bir talaba uchun muhim sanaladi. Shu sababli, dars jarayonlarida kommunikativ metodlar, rolli o'yinlar, munozaralar, autentik materiallar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ yondashuv, oliy ta'lim, ingliz tili, til ko'nikmalari, interaktiv usullar, autentik materiallar.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ingliz tili dunyodagi eng muhim vositalardan biriga aylangan. U nafaqat xalqaro muloqot tili, balki ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro biznes, diplomatiya va ta'lim sohalarida asosiy aloqa vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning xalqaro maydondagi integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishi, xorijiy davlatlar bilan ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirayotgani ingliz tilini o'rganish va uni o'qitish masalasini dolzarb mavzulardan biriga aylantirmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish jarayoni endilikda faqatgina grammatik qoidalarni yodlash, lug'at boyligini oshirish yoki tarjima qilish bilan chegaralanib qolmayapti. Zamonaviy til o'rgatish metodikasi bu yo'nalishga yangicha kommunikativ yondashuv asosida qarashni taqozo etmoqda. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi talabalarni real hayotiy muloqotga tayyorlash, ularni turli ijtimoiy-madaniy va kasbiy kontekstlarda ingliz tilida fikr bildira oladigan, muloqot qila oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishdir.

An'anaviy darslarda o'qituvchi markazda bo'lib, talabalar passiv axborot oluvchi bo'lsa, kommunikativ yondashuvda esa o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunda talabalar o'zaro fikr almashadi, muloqot qiladi, rolli o'yinlar, muhokama, debatlar, loyiha asosidagi topshiriqlar orqali tilni real kommunikatsion kontekstda qo'llashga o'rganadi. Bu yondashuv o'z navbatida nafaqat til ko'nikmalarining – tinglab tushunish, so'zlashish, o'qish va yozish – rivojlanishiga xizmat qiladi, balki talabalarni tanqidiy fikrlashga, ijodiy yondashuvga va mustaqil qaror qabul qilishga ham undaydi.

Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini samarali o'qitish uchun kommunikativ yondashuvni amaliyotga joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada aynan oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati, uni tatbiq etishning eng samarali shakllari, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kommunikativ metodlar orqali talabalar til kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

1. Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari

Kommunikativ til o'rgatish yondashuvi XX asrning ikkinchi yarmida til o'qitish sohasida yuzaga kelgan muhim burilishlardan biri sifatida shakllandi. An'anaviy grammatik tarjima va struktural metodlarning talabalar tomonidan tilni amaliyotda erkin qo'llashda yetarlicha samaradorlikka erisha olmasligi sababli yangi yondashuvlarga ehtiyoj tug'ildi. Shu davrda tilni o'rganish jarayonidan ko'ra, uni real kommunikatsion vaziyatlarda faol foydalanishga o'rgatish g'oyasi asosiy tamoyil sifatida ilgari surildi. Bu yondashuv til o'rgatishni nafaqat grammatika va lug'atni yodlash, balki tilni jonli muloqot vositasi sifatida o'rganishga yo'naltiradi.

Kommunikativ yondashuv nazariy asoslaridan biri sifatida Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hymes til bilimni faqat grammatik qoidalarining to'g'ri qo'llanishi bilan cheklab qolmay, balki tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda samarali ishlatish ko'nikmalarini ham o'z ichiga olishini ta'kidladi. Uning fikricha, tilni bilish deganda nafaqat grammatik jihatlarni bilish, balki turli kommunikatsion vaziyatlarda to'g'ri va samarali muloqot qilish sanaladi.

Keyinchalik, Canale va Swain (1980) ushbu tushunchani yanada rivojlantirib, kommunikativ kompetensiyani to'rt asosiy tarkibiy qismga ajratdilar. Birinchi tarkibiy qism – grammatik kompetensiya bo'lib, u so'z yasash, so'z tartibi, nutq tovushlari va grammatik qoidalarni bilish hamda to'g'ri qo'llashni anglatadi. Ikkinchi sotsiolingvistik kompetensiya, ya'ni madaniy jihatdan mos va kontekstga muvofiq muloqot shakllarini tushunish va qo'llay olishdir. Bu kompetensiya talabalarga turli madaniy muhitda tilni qanday ishlatish kerakligini o'rgatadi. Uchinchi tarkibiy qism diskursiv kompetensiya bo'lib, u izchil va mantiqan bog'langan matnlar yaratish, fikrlarni mantiqiy tartibda ifodalash ko'nikmasidan iborat. To'rtinchi tarkibiy qism esa strategik kompetensiya bo'lib, bu til bilmaslik yoki til bilan bog'liq qiyinchiliklar paytida kompensatsiya strategiyalaridan masalan, sinonimlardan foydalanish, imo-ishoralar orqali o'z fikrini ifodalash kabi usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ yondashuvda eng asosiy diqqat markazi grammatik to'g'rilikdan ko'ra, til orqali mazmunli, samarali va vaziyatga mos muloqot qilishga qaratiladi. Bu yondashuv til o'rganuvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, turli kommunikatsion vaziyatlarda muloqotda faol ishtirok etish, va real hayotdagi til vazifalarini bajarish imkonini yaratadi. Shunday qilib, kommunikativ yondashuv nafaqat til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, balki talabalarni tilni hayotiy maqsadlarda qo'llashga tayyorlaydi.

2. Oliy ta'limda kommunikativ metodlarni qo'llash shakllari

Oliy ta'limda ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishda quyidagi metod va shakllar eng samarali deb topilgan. Rolli o'yinlar talabalarni real hayotdagi muloqot holatlarini jonlantirish orqali tilni faol o'zlashtirishga yo'naltiruvchi metoddir. Bu usulda talabalar mehmonxonada xona buyurtma qilish, intervyu jarayoni, aeroportda ro'yxatdan o'tish, shifokor bilan suhbat kabi ijtimoiy muloqot holatlarini bajaradilar. Ushbu metod tilni kontekstda qo'llashga, so'z boyligini amaliy qo'llab ko'rishga, shuningdek, talaffuz va intonatsiyani tabiiylashtirishga yordam beradi.

Debat shaklidagi darslar talabalarni tanqidiy fikrlash, mantiqiy asoslash, fikr bildirish va unga e'tiroz qaytarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Mavzuga asoslangan muhokama orqali talabalar mustaqil fikrlash, faol tinglash va diskussiya madaniyatini o'zlashtiradilar. Bu metod akademik yozuv va nutq ko'nikmalarini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ausentik materiallar – ingliz tilida asl shaklda yaratilgan gazeta maqolalari, video lavhalar, reklama matnlari, intervyular, podkastlar va boshqa multimedia resurslari orqali tilni real hayotiy kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning tinglab tushunish va o'qib anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, zamonaviy leksik birikmalar va til uslublari bilan tanishtiradi. Juftlik va guruhli ishlanmalar orqali talabalar o'zaro fikr almashish, birgalikda yechim topish, interaktiv muhitda tilni faol qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu metod ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslanadi va til o'rganishda kooperativ yondashuvni rivojlantiradi. Guruhli faoliyatlar talabalarni faollikka undaydi, ijtimoiy muloqot, murosa, va jamoada ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Loyiha asosida o'qitish talabalarni ingliz tilida mustaqil yoki guruhli shaklda taqdimot, maqola, tadqiqot yoki ijodiy loyiha tayyorlashga undaydi. Ushbu yondashuv talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va uni mantiqan ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Til o'rganish jarayonida bu yondashuv faol nutqiy amaliyotga turtki beradi, chuqur o'rganish va tilni o'zlashtirishni tezlashtiradi.

3. Kommunikativ metod orqali rivojlanadigan til ko'nikmalari

Kommunikativ yondashuv asosida ta'lim berishning eng muhim afzalliklaridan biri bu tilning to'rt asosiy ko'nikmasini: tinglab tushunish, so'zlashish, o'qish va yozish faoliyatlarini tizimli va integratsiyalashgan holda shakllantirishidir. Ushbu ko'nikmalar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi va har bir til faoliyati boshqa ko'nikmalarni faollashtiradi. Quyida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ metodlarning amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi:

Tinglab tushunish kommunikativ yondashuvda muhim boshlang'ich bosqichlardan biri bo'lib, talabalarning tilga bo'lgan sezgirligini shakllantiradi. Autentik audio va video materiallardan – podkastlar, intervyular, reportajlar, kino va reklama lavhalaridan – foydalanish orqali talabalar real hayotdagi talaffuz, urg'u, ohang va uslubiy farqlarni angelaydilar. Ushbu faoliyat orqali asosiy g'oyani tushunish, kontekstni aniqlash, detallarga e'tibor qaratish, va notanish so'zlarni kontekstdan anglab olish ko'nikmalari rivojlanadi.

So'zlashish – kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentidir. Rolli o'yinlar, munozaralar, muloqotli mashqlar, savol-javoblar orqali talabalar real hayotdagi nutqiy vaziyatlarda faol ishtirok etadilar. Bu jarayonda so'z boyligi kengayadi, grammatik strukturalar avtomatlashtiriladi, talaffuz va intonatsiya yaxshilanadi. Doimiy muloqot amaliyoti esa o'z fikrini aniq va erkin ifoda etish, o'zaro tushunishni ta'minlash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'qish orqali talabalar til strukturasi, leksik boylik va uslubiy xususiyatlarni chuqurroq o'zlashtiradilar. Kommunikativ yondashuvda o'qish faqat ma'lumot olish emas, balki matn ustida ishlash, asosiy va ikkilamchi fikrni ajratish, kontekstual anglash, matn tahlil qilish kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar zamonaviy maqolalar, yangiliklar, veb-sahifalar, forum postlari kabi real hayotga yaqin matnlar bilan ishlash orqali madaniy va til o'ziga xosliklarini angelaydilar.

Yozma nutq ko'nikmasi – o'z fikrini mantiqiy va izchil bayon qilish, grammatika va uslubiy me'yorlarga rioya qilishni talab qiladigan murakkab til faoliyatidir. Kommunikativ metodlarda yozish faqatgina grammatik mashq emas, balki maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat sifatida qaraladi. Talabalar insho, e-mail, ishchi xatlar, referatlar, blog yozuvlari kabi

turli yozma janrlarda o'z fikrlarini ifodalaydilar. Bu jarayon mantiqiy fikrlash, struktura yaratish va tilni samarali qo'llashni talab qiladi.

Ushbu ko'nikmalar alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda, integratsiyalashgan shaklda rivojlantiriladi.

4. Kommunikativ yondashuvning kamchiliklari

Har qanday didaktik yondashuv singari, kommunikativ yondashuvning ham afzalliklari bilan bir qatorda, amaliyotda uchraydigan muayyan kamchiliklari mavjud. Bu kamchiliklar o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi imkoniyatlari, shuningdek, o'quv muhitining real sharoitlari bilan bog'liqdir. Kommunikativ yondashuv ko'proq muloqotga, mazmunli ifodaga va real vaziyatlarda tilni qo'llashga urg'u berar ekan, grammatik bilimlarning chuqur tahlili va mashqlarga kamroq e'tibor qaratiladi. Natijada, ba'zi talabalar grammatik strukturalarni noto'g'ri qo'llash, sintaktik xatolarga yo'l qo'yish va tilni rasmiy shaklda ishlatishda qiynalishlari mumkin.

Kommunikativ yondashuvda o'quvchilarning til ko'nikmalari ko'proq interaktiv faoliyatlar orqali rivojlanadi. Bu esa an'anaviy test yoki yozma ishlar orqali baholashni murakkablashtiradi. Muloqot sifatini, talaffuzdagi nozikliklarni, tinglab tushunish darajasini ob'ektiv baholash doim ham oson emas va ko'p hollarda sub'ektiv qarorlar bilan cheklanadi.

Kommunikativ metodlarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi til bilimlari, metodik mahorat, kreativlik va vaziyatga moslashuvchanlikni talab qiladi. Afsuski, ba'zi holatlarda o'qituvchilarning metodik bilimlari yoki til ko'nikmalari bu yondashuvni to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi.

Kommunikativ metodlar erkin fikr bildirish, bahslashish, rolli o'yinlarda faol ishtirok etishni talab qiladi. Lekin ba'zi talabalar psixologik jihatdan bunday uslublarga tayyor emas: uyalish, xatodan qo'rqish, madaniy jihatdan passiv bo'lish kabi omillar kommunikativ mashg'ulotlarning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Kommunikativ metodlar kichik guruhlarda faol ishtirokni talab qilgani sababli, guruhlar sonini maqbul darajada shakllantirish, o'quv xonalarini zamonaviy texnika vositalari proyektor, audio-video qurilmalar, internet bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ ko'nikmalarni baholash uchun an'anaviy testlar bilan bir qatorda portfolio, loyiha ishi, og'zaki taqdimot, muloqot kartalari (rubric) kabi baholash vositalarini joriy etish lozim. Bu nafaqat til ko'nikmalarini to'g'ri o'lchashga, balki talabaning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini ham namoyon etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llash talabalarning til kompetensiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali talabalar faqat grammatik qoidalarni emas, balki real hayotda muloqot qilish malakasini egallaydi. Kelgusida ingliz tili darslarini yanada interaktiv va talaba markazli qilish, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish oliy ta'limdagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Kommunikativ metodlar orqali o'quv jarayonini jonlantirish, talabalarda ijtimoiy, madaniy va til kompetensiyalarini shakllantirish va ularning kasbiy muvaffaqiyatlariga zamin yaratish mumkin.

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin Books.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
3. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.
4. Savignon, S.J. (2002). *Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education*. Yale University Press.
5. Brown, H.D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). Pearson Education.
6. Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language* (3rd ed.). Heinle & Heinle.
7. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching* (2nd ed.). Oxford University Press.
8. Savignon, S. J. (1983). Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. *Textbook*, Addison-Wesley.
9. O.Sh.Uralov (2025). [The role of communicative method and CLIL in developing cross-cultural competence and effective language acquisition](#). Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, Volume 1, Issue 4, Pages 128-132.
10. O.Sh.Uralov (2025). [Developing intercultural competence in students: a key to global citizenship](#). FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. Volume 13, Issue 5, Pages 51-56.

VOICE ASSISTANTS FOR LIBRARY AND INFORMATION SYSTEMS

Odil Ishniyazov

*(Tashkent University of Information Technologies named after
Muhammad al-Khwarizmi, Tashkent, Uzbekistan)*

Mumin Babajanov

(International Islamic Academy of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan)

Shokhrukh Chulliev

*(Tashkent University of Information Technologies named after
Muhammad al-Khwarizmi, Tashkent, Uzbekistan)*

Abstract. *This article devoted to create voice assistant algorithms for library and information systems. In this article algorithm of library and information systems (LIS), Python libraries, speech-to-text, natural language processing and text-to-speech synthesis, advanced algorithms, bibliographic data management, catalog searches, especially important for visually impaired users, different accents, high-noise environments, and multilingual support are given.*

Keywords. *voice assistant, natural language processing, automated library information systems, catalog search automation, speech recognition, natural language processing, gTTS artificial intelligence.*

In the field of information library systems, the digitization of information is growing rapidly. Accordingly, the volume of data is also increasing. This, in turn, requires more time to search for information than before. Entering information for search is carried out in text form. This poses significant challenges, especially for users with visual impairments, who face barriers in interacting with text-based catalog systems. To solve this problem positively, it is important to introduce voice assistants in information library systems. The integration of voice assistants in information library systems is one of the innovations in the field. Voice assistants translate voice messages into text form and help users search for books by title or author. In addition, they can help find full-text information related to the information in the catalog.

To address these challenges, integrating voice assistants into information library systems is emerging as a transformative solution. Voice assistants enable users to interact with library systems through spoken commands, translating voice queries into text and assisting in searching for books by title, author, or related full-text information from catalogs. By automating these processes, voice assistants enhance accessibility and usability for all users.

The creation and development of specialized voice assistants for information library systems creates new opportunities for users to automate catalog searches and assist with bibliographic management. We can use various Python libraries to create voice assistants. For example,

- when using the SpeechRecognition library, its functions are used to convert speech to text;
- the pyttsx3 library functions allow text to be converted to speech;
- the gTTS library functions are used to support multilingualism [1][2][3].

In general, these tools perform tasks such as speech-to-text, natural language understanding, and text-to-speech, and are used to create advanced solutions. Such capabilities are vital for building intelligent and user-friendly voice assistant systems.

The integration of new capabilities and multifunctional applications in information warehouse systems is growing significantly. The integration of voice assistants is a clear example of this. When creating voice assistants, we will use Python, which, of course, stands out from other programming languages with its wide capabilities. We will be able to use the functions of the SpeechRecognition, pyttsx3, gTTS libraries in it.

One of the main challenges in creating voice assistants is to identify this point and understand natural language. As mentioned above, the functions available in Python libraries help to interpret user commands. In addition, the libraries allow you to convert text data provided by the assistant into speech and provide verbal responses. This process makes interactions more convenient and robust.

In automated information library systems, cataloging and searching data rely on traditional methods. Such methods in the system are considered time-consuming and laborious. If artificial intelligence technologies are implemented in such systems, the efficiency of responding to user requests will increase.

When performing a search, the incoming information is provided in text form. To increase the search capabilities for users, especially those with visual impairments, it is recommended to perform a search query via voice message.

Building a voice assistant for library information systems involves several key steps. Each of them contributes to the functionality and user experience of the system. For example, if we consider the possibility of creating an application for a user, then the user, a student, verbally asks the voice assistant to find all the resources on "machine learning" in the library catalog. The voice assistant processes the request, identifies relevant materials and responds with a list of books, articles and digital resources, simplifying the search process and saving time. The main components and processes are described below:

1. **Input recognition:** The first step is to capture the user's input through voice. Using Python's SpeechRecognition library, the system converts spoken commands into text and passes the input to the post-processing block, preparing it for the next task [1].

2. **Natural Language Processing (NLP):** Once the text is captured, NLP techniques are used to understand the intent of the command. Libraries such as SpaCy or NLTK are used to parse and analyze the text and extract meaningful insights [4][5].

3. **Process:** The algorithm executes commands step by step. At this stage, commands can be executed automatically or with human consent (after pressing a button)..

4. **Feedback generation:** The system responds with text or speech during the feedback process. This increases interactivity with the user. [2][3].

5. **Error learning and management:** This process processes erroneous commands, asking the user to provide a more specific request.

6. **Integration process with information library systems:** Voice assistants are integrated with Automated Information Library Systems (AILS). This is a query to a bibliographic database that is made through speech. The result is in the form of speech or text, depending on the user's preference. [9][11].

The following results are obtained in the development of voice assistants for information library systems.

- Users with disabilities (for example, visually impaired) can communicate through voice assistants. This will attract more users to the system.
- Voice assistant integration reduces the time it takes to search for information and provide results.
- Even in noisy environments, speech-to-text conversion accuracy is high and ensures correct interpretation of the query.

Therefore, ongoing evaluations will be necessary to ensure compliance with evolving privacy regulations, particularly those related to the storage and processing of voice data.

Scalability and future improvements: The above considerations have focused on voice assistants that primarily use speech-to-text transcribing and natural language processing to filter out speech noise. Voice assistants can be further extended and enhanced with additional features. Integrating machine learning models to improve system adaptability and personalization is a logical next step.




Figure 1. Voice assistant algorithm

REFERENCES:

1. Python Software Foundation. SpeechRecognition Library Documentation. Available at: <https://pypi.org/project/SpeechRecognition/>
2. Python Software Foundation. pyttsx3 Library Documentation. Available at: <https://pyttsx3.readthedocs.io/>
3. Google Text-to-Speech (gTTS). gTTS Library Documentation. Available at: <https://pypi.org/project/gTTS/>
4. SpaCy. Industrial-Strength Natural Language Processing in Python. Available at: <https://spacy.io/>
5. Natural Language Toolkit (NLTK). NLTK Documentation. Available at: <https://www.nltk.org/>
6. Ishmiyazov O.O. "Linking model and algorithm of bibliographical database", AIP Conference Proceedings, Volume 3147, Issue 1, id.030035(2024), 7 pp. <https://doi.org/10.1063/5.0210605>.
7. Sh.I.Chulliyev, S.I.Chulliyev. "ALGORITHMS AND PROGRAM CLASSIFICATION FOR CREATING A VOICE ASSISTANT IN PYTHON", Scientific and Practical Conference "Modern Problems of Information Technologies and Their Solutions", URGANCH-2020, pp. 442-447.

**SAMARQAND VILOYATI DONCHILIGIDA TARKIBIY O'ZGARISHLAR:
FERMER XO'JALIKLARINING YUKSALISHI VA DEHQON XO'JALIKLARI
HISSASINING KAMAYISHI TAHLILI (2019-2020 YILLAR MISOLIDA).**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Mamur Saidmurodov

Annotatsiya: *Ushbu maqola Samarqand viloyati 2019-2020 yillar davomida don mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Rasmiy statistik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili asosida xo'jalik toifalari (fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalarini) va ma'muriy hududlar (shahar va tumanlar) kesimida ishlab chiqarish hajmlari (tonnada) va o'sish sur'atlaridagi (%) o'zgarishlar o'rganilgan. Tahlil natijalari ushbu davrda don yetishtirish umumiy hajmining (13.1%) oshganligini ko'rsatdi, bu asosan fermer xo'jaliklari hissasining sezilarli darajada (17.4%) ko'payishi hisobiga yuz bergan. Aksincha, dehqon xo'jaliklarining hissasi keskin (19.7%) kamayganligi, qishloq xo'jaligi korxonalarida esa mo'tadil (15.7%) o'sish kuzatilgan. Shuningdek, tahlil hududlararo jiddiy tafovutlarni aniqladi: ayrim tumanlarda juda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarda ishlab chiqarish pasaygan. Natijalar viloyat donchilik sohasida yirikroq fermer xo'jaliklari tomon tarkibiy siljish jarayoni kechayotganini ko'rsatadi va xo'jalik toifalari hamda hududlar bo'yicha farqlanuvchi tendensiyalarni hisobga oluvchi differensiallashgan agrar siyosat zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *don ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, Samarqand viloyati, O'zbekiston, dinamika, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalarini, qiyosiy tahlil, hududiy tafovutlar, o'sish sur'atlari, oziq-ovqat xavfsizligi.*

KIRISH

Jahon miqyosida aholi sonining muttasil o'sib borishi va iqlim o'zgarishlarining kuchayishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda don mahsulotlari insoniyat ratsionining asosini tashkil etishi, chorvachilik uchun yem-xashak bazasi bo'lib xizmat qilishi hamda ko'plab sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ekanligi bilan strategik ahamiyat kasb etadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori O'zbekiston uchun ham don mustaqilligiga erishish va aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini barqaror qondirish iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda agrar sohada keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirildi, yerga egalik munosabatlari o'zgartirildi, qishloq xo'jaligini bozor tamoyillari asosida rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, fermerlik harakatini rivojlantirish va natijada oziq-ovqat, xususan, don mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish va uning samaradorligini yuksaltirishdan iborat bo'ldi.

O'zbekistonda agrar islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu sovet davridan qolgan yirik kollektiv xo'jaliklar (kolxoz va sovxozlar) tizimini tugatib, yangi, bozor iqtisodiyotiga mos xo'jalik yuritish shakllarini joriy etish bo'ldi. Natijada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining

asosiy subyektlari sifatida fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi korxonalari shakllandi. Fermer xo'jaliklari, odatda, uzoq muddatli ijaraga olingan yerlarda tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs maqomiga ega subyektlar bo'lsa, dehqon xo'jaliklari asosan oilaviy mehnatga asoslangan, o'z ehtiyojlari uchun va qisman bozorga mahsulot yetishtiradigan, tomorqa yerlariga ega kichikroq xo'jaliklardir. Qishloq xo'jaligi korxonalari esa turli mulkchilik shaklidagi yirikroq agrofirma, shirkatlar va boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu xo'jalik shakllarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, jumladan, don yetishtirishdagi o'rni va hissasi yillar davomida o'zgarib bordi va bu dinamika mamlakat agrar siyosatining samaradorligi hamda qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning muhim indikatori hisoblanadi.

Samarqand viloyati O'zbekistonning qadimiy dehqonchilik madaniyatiga ega, agrar salohiyati yuqori bo'lgan yetakchi hududlaridan biridir. Viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari, suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi (garchi ayrim hududlarda suv tanqisligi kuzatilsada) ko'plab qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, g'alla yetishtirish uchun juda qulay hisoblanadi. Samarqand viloyati an'anaviy ravishda mamlakatning don xirmoniga salmoqli hissa qo'shib keladi va viloyat iqtisodiyotida agrar sektor, xususan, donchilik muhim o'rin tutadi. Aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishi va ularning turmush darajasi ko'p jihatdan agrar ishlab chiqarish bilan bog'liqligi ham viloyat uchun don yetishtirish masalasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bois, viloyatda don yetishtirish hajmi, uning dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy vazifadir.

Biroq, so'nggi yillarda Samarqand viloyatida don yetishtirish sohasida muayyan tendensiyalar va muammolar kuzatilmoqda. Mavjud statistik ma'lumotlarning dastlabki tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda don ishlab chiqarishning umumiy hajmida o'sish kuzatilgan bo'lsada (masalan, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 13.1% o'sish qayd etilgan (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021)), bu o'sish turli xo'jalik toifalari o'rtasida notekis taqsimlangan. Xususan, fermer xo'jaliklari tomonidan don yetishtirish hajmi sezilarli darajada oshgan (17.4% o'sish) bir paytda, dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishi (19.7% pasayish) kuzatilgan (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021). Bu holat viloyat qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berayotganidan, xususan, don yetishtirishda fermer xo'jaliklarining roli kuchayib, an'anaviy dehqon xo'jaliklarining hissasi qisqarayotganidan dalolat beradi. Ushbu tendensiyaning fundamental sabablari (masalan, yerlarning fermer xo'jaliklari foydasiga qayta taqsimlanishi, dehqon xo'jaliklarining resurslarga ega bo'lish imkoniyatlarining cheklangani, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi va h.k.) va uning uzoq muddatli iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlarini chuqur o'rganish talab etiladi.

Bundan tashqari, don yetishtirishdagi o'zgarishlar viloyatning turli ma'muriy-hududiy birliklari (shahar va tumanlar) kesimida ham bir xilda kechmayapti. Ayrim tumanlarda (masalan, Oqdaryo, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on tumanlarida) 2019-2020 yillar oralig'ida don yetishtirish hajmining juda yuqori sur'atlarda (mos ravishda 157.3%, 139.2%, 127.2%) oshgani kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarda (Samarqand shahri, Samarqand tumani) pasayish qayd etilgan (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021). Kattaqo'rg'on shahrida esa 2020 yilda umuman don yetishtirilmagan. Bu kabi keskin hududiy tafovutlarning mavjudligi viloyat miqyosida agrar resurslardan foydalanish samaradorligi, hududlarni ixtisoslashtirish siyosati, investitsion jozibadorlik va mahalliy sharoitlarning (tuproq unumdorligi, suv ta'minoti,

infratuzilma) ishlab chiqarishga ta'sirida jiddiy farqlar borligini ko'rsatadi. Ushbu hududiy nomutanosibliklarning omillarini aniqlash va ularni yumshatish yo'llarini izlash viloyat agrar siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Shu o'rinda, mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda O'zbekiston agrar sektoridagi o'zgarishlar, fermerlik harakatining rivojlanishi kabi masalalar ma'lum darajada yoritilgan bo'lsa-da, aynan Samarqand viloyati misolida, eng so'nggi davrdagi (xususan, 2019-2020 yillardagi) don yetishtirish dinamikasini xo'jalik toifalari va tumanlar kesimida kompleks va qiyosiy tahlil qiladigan maxsus tadqiqotlar nisbatan kam. Ko'plab tadqiqotlar yoki umumrespublika miqyosidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarga yoki uzoqroq yillarni qamrab olgan umumiy tendensiyalarga asoslanadi. Biroq, qisqa muddatli bo'lsa-da, aniq statistik raqamlarga (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021) asoslangan holda yaqin o'tmishdagi o'zgarishlarni batafsil o'rganish, agrar siyosatdagi o'zgarishlar va bozor kon'yunkturasi bevosita natijalarini baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan shu bo'shliqni to'ldirish, ya'ni Samarqand viloyatida 2019-2020 yillardagi don yetishtirish holatini chuqur tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining asosiy ilmiy yangiligi va zaruratini belgilaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari bir necha jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan, u viloyat va respublika darajasida agrar siyosatni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi idoralar uchun qimmatli axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, fermer xo'jaliklarining o'sishini rag'batlantirish, dehqon xo'jaliklari duch kelayotgan muammolarni hal etishda differensial yondashuvlarni qo'llash, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tadqiqot xulosalaridan foydalanish mumkin. Ikkinchidan, tadqiqot natijalari viloyatda don yetishtirish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va pirovardida oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi. Uchinchidan, ilmiy nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida agrar transformatsiya jarayonlari, xo'jalik yuritish shakllarining evolyutsiyasi va ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'siri haqidagi mavjud bilimlarni boyitadi. Ayniqsa, muayyan hudud misolida qisqa muddatli o'zgarishlarni batafsil tahlil qilish orqali umumiyroq nazariy xulosalar chiqarish yoki gipotezalarni tekshirish uchun empirik material taqdim etadi. Bu esa kelgusida yanada kengroq va chuqurroq tadqiqotlar olib borish uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning **asosiy maqsadi**–Samarqand viloyatida 2019-2020 yillarda don mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlarining xo'jalik toifalari (jami, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari) hamda ma'muriy-hududiy birliklar (shahar va tumanlar) kesimidagi dinamikasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob izlashga qaratilgan:

- Samarqand viloyatida 2019 yildan 2020 yilga o'tishda jami don yetishtirish hajmi qanday o'zgardi va bu o'zgarishning miqdoriy ko'rsatkichlari qanday?
- Ushbu davrda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarining don yetishtirishdagi hisyasi va o'sish sur'atlari qanday dinamikani ko'rsatdi? Ayniqsa, fermer va dehqon xo'jaliklari o'rtasidagi tendensiyalar qanday farqlandi (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021)?
- Viloyatning qaysi tumanlari va shaharlari don yetishtirish hajmining o'sishi yoki pasayishi bo'yicha eng yuqori va eng past ko'rsatkichlarga ega bo'ldi? Bu hududiy farqlar

xo'jalik toifalari kesimida qanday namoyon bo'ldi (Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021)?

• Dehqon xo'jaliklarida don yetishtirish hajmining kamayishi viloyat miqyosida keng tarqalgan hodisami yoki ayrim hududlarga xos? Ushbu tendensiyaning potentsial sabablari haqida dastlabki farazlarni ilgari surish mumkinmi?

METADALOGIYA

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning agrar salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri – Samarqand viloyatida don mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. Don mahsulotlari mamlakat va viloyat oziq-ovqat xavfsizligining strategik asosi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, yer munosabatlarining o'zgarishi va xo'jalik yuritish shakllarining diversifikatsiyasi (xususan, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyati) sharoitida don yetishtirish hajmi va tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda fermer xo'jaliklarining roli oshib borayotgani va dehqon xo'jaliklarining o'rni o'zgarayotgani kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlarning viloyatning umumiy don yetishtirish salohiyatiga, hududlararo tafovutlarga va agrar siyosatga ta'sirini baholash ushbu tadqiqotning asosiy dolzarbligini belgilaydi. Ayniqsa, 2019 va 2020 yillar orasidagi qisqa muddatli dinamikani o'rganish orqali yaqin o'tmishdagi tendensiyalarni aniqlash va kelgusi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha dastlabki xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotning asosiy maqsadi–Samarqand viloyatida 2019-2020 yillarda don mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlarining xo'jalik toifalari (jami, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari) hamda ma'muriy-hududiy birliklar (shahar va tumanlar) kesimidagi dinamikasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

➤ Samarqand viloyati bo'yicha 2019 va 2020 yillardagi jami don yetishtirish hajmini aniqlash va o'zgarishini baholash.

➤ Har bir xo'jalik toifasi (fermer, dehqon, q/x korxonalari) bo'yicha don yetishtirish hajmlarini va ularning umumiy hajmga qo'shgan hissasini tahlil qilish.

➤ Har bir xo'jalik toifasi bo'yicha 2019 yildan 2020 yilga o'tishdagi o'sish sur'atlarini hisoblash va solishtirish.

➤ Viloyatning shahar va tumanlari kesimida don yetishtirish hajmlari va o'sish sur'atlaridagi tafovutlarni aniqlash.

➤ Don yetishtirish hajmining o'zgarishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan xo'jalik toifalari va hududlarni aniqlash.

➤ Kuzatilgan tendensiyalar (masalan, fermer xo'jaliklari hissasining ortishi va dehqon xo'jaliklari hissasining kamayishi) asosida dastlabki xulosalar va muhokamalar uchun zamin yaratish.

Tadqiqot dizayni va yondashuvi Tadqiqot miqdoriy (quantitative) tahlilga asoslangan bo'lib, unda ikkilamchi ma'lumotlar manbalaridan foydalanilgan. Asosiy yondashuv – qiyosiy va deskriptiv (tavsifiy) tahlil hisoblanadi. Ikki yillik (2019 va 2020) ma'lumotlar solishtirilganligi sababli, tadqiqot qisqa muddatli longitudinal (uzunlamasina) elementlarga ega. Tadqiqot dizayni mavjud statistik ma'lumotlar asosida belgilangan davr ichidagi o'zgarishlarni va turli guruhlar (xo'jalik toifalari, hududlar) o'rtasidagi farqlarni tavsiflashga qaratilgan.

Дехкончилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш														
Don, жами														
№	Худудлар	СОАТО	Барча тоифадаги хўжаликлар			шу жумладан:								
			2019 й.	2020 й.	Ўсishi суръати, %	фермер хўжаликлари			деҳқон хўжаликлари			кишлоқ хўжалик корхоналари		
						2019 й.	2020 й.	Ўсishi суръати, %	2019 й.	2020 й.	Ўсishi суръати, %	2019 й.	2020 й.	Ўсishi суръати, %
	Самарқанд вилояти	1718	756 040,0	855 179,0	113,1	657 620,0	772 306,0	117,4	87 656,0	70 421,0	80,3	10 764,0	12 452,0	115,7
1	Самарқанд ш	1718401	803,0	712,0	88,7	0,0	0,0	0,0	5,0	17,0	340,0	798,0	695,0	87,1
2	Каттақўрғон ш	1718406	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1,0	0,0	0,0
	туманлар:													
3	Оқдарё	1718203	82 379,0	129 617,0	157,3	69 055,0	118 686,0	171,9	10 863,0	7 996,0	73,6	2 461,0	2 935,0	119,3
4	Булунгур	1718206	54 489,0	56 552,0	103,8	48 538,0	50 949,0	105,0	5 673,0	5 299,0	93,4	278,0	304,0	109,4
5	Жомбой	1718209	79 000,0	82 582,0	104,5	69 939,0	73 801,0	105,5	6 639,0	6 658,0	100,3	2 422,0	2 123,0	87,7
6	Иштихон	1718212	59 074,0	61 036,0	103,3	49 145,0	53 481,0	108,8	9 437,0	7 297,0	77,3	492,0	258,0	52,4
7	Каттақўрғон	1718215	83 492,0	106 224,0	127,2	69 924,0	92 752,0	132,6	12 928,0	11 962,0	92,5	640,0	1 510,0	235,9
8	Қўшробод	1718216	10 938,0	15 231,0	139,2	10 328,0	14 873,0	144,0	544,0	325,0	59,7	66,0	33,0	50,0
9	Нарпай	1718218	41 983,0	42 391,0	101,0	34 528,0	36 453,0	105,6	7 135,0	5 937,0	83,2	320,0	1,0	0,3
10	Пойарик	1718224	76 676,0	83 936,0	109,5	68 819,0	77 815,0	113,1	7 833,0	6 049,0	77,2	24,0	72,0	300,0
11	Пастдарғом	1718227	110 016,0	120 009,0	109,1	101 472,0	113 127,0	111,5	8 392,0	6 701,0	79,8	152,0	181,0	119,1
12	Пахтачи	1718230	39 933,0	40 061,0	100,3	30 370,0	31 657,0	104,2	7 581,0	5 420,0	71,5	1 982,0	2 984,0	150,6
13	Самарқанд	1718233	15 953,0	12 618,0	79,1	14 694,0	11 714,0	79,7	649,0	430,0	66,3	610,0	474,0	77,7
14	Нуробод	1718235	32 763,0	34 260,0	104,6	28 954,0	30 103,0	104,0	3 428,0	3 407,0	99,4	381,0	750,0	196,9
15	Ургут	1718236	41 432,0	41 711,0	100,7	38 597,0	38 982,0	101,0	2 835,0	2 729,0	96,3	0,0	0,0	0,0
16	Тойлок	1718238	27 108,0	28 239,0	104,2	23 257,0	27 913,0	120,0	3 714,0	194,0	5,2	137,0	132,0	96,4

(Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, 2021).

О‘згарувчилар va ularning tahlili Tadqiqotda quyidagi asosiy o‘zgaruvchilar tahlil qilindi:

Бog‘liq o‘zgaruvchi: Don ishlab chiqarish hajmi (tonnada). Bu asosiy natijaviy ko‘rsatkich bo‘lib, uning yillar, hududlar va xo‘jalik toifalari bo‘yicha o‘zgarishi o‘rganildi.

Mustaqil o‘zgaruvchilar (guruhlovchi faktorlar): Yil (2019 va 2020): Vaqt bo‘yicha dinamikani ko‘rsatadi.

o Hudud (viloyat, shahar, tuman): Geografik farqlanishni tahlil qilish uchun ishlatiladi.

o Xo‘jalik toifasi (jami, fermer, dehqon, q/x korxonalari): Ishlab chiqarishning institutsional tarkibini tahlil qilish imkonini beradi.

Hisoblangan o‘zgaruvchi: O‘sish sur‘ati (%). Ushbu ko‘rsatkich [(2020 yil hajmi - 2019 yil hajmi) / 2019 yil hajmi] * 100% formulasi asosida hisoblangan (yoki jadvalda tayyor holda berilgan) bo‘lib, o‘zgarish intensivligini ifodalaydi.

Tahlil usullari Ma‘lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. **Tavsifiy statistika:** Har bir yil, hudud va xo‘jalik toifasi uchun umumiy ishlab chiqarish hajmlari, absolyut o‘zgarishlar (tonnada) va nisbiy o‘zgarishlar (o‘sish sur‘atlari foizda) hisoblandi va umumlashtirildi. Asosiy tendensiyalarni ko‘rsatish uchun jami va o‘rtacha ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratildi.

2. **Qiyosiy tahlil:**

o *Vaqt bo‘yicha:* 2020 yilgi ko‘rsatkichlar 2019 yilgi ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi.

o *Xo‘jalik toifalari bo‘yicha:* Fermer, dehqon va qishloq xo‘jaligi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi va ularning o‘sish sur‘atlari o‘zaro taqqoslandi.

o *Hududlar bo‘yicha:* Eng yuqori va eng past o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lgan tumanlar aniqlandi va ular orasidagi farqlar tahlil qilindi.

3. **O‘sish sur‘atlarini tahlil qilish:** O‘sish sur‘atlarining absolyut qiymatlari va ulardagi keskin o‘zgarishlarga (masalan, Oqdaryo tumanidagi yuqori o‘sish yoki Toyloq tumanidagi dehqon xo‘jaliklaridagi keskin pasayish) alohida e‘tibor qaratildi.

4. **Ekonometrik model imkoniyatlari (cheklangan):** "Natijalar va muhokama" qismida qayd etilganidek, ma‘lumotlarning qisqa davrni qamrab olganligi sababli, murakkab ekonometrik modellashtirish o‘rniga, umumiy ishlab chiqarish o‘zgarishiga turli xo‘jalik toifalari o‘zgarishining ta‘sirini baholashga qaratilgan oddiy regressiya modelini qurish

mumkinligi g‘oya sifatida ko‘rib chiqildi ($\Delta U_{\text{umumiy}_i} = \beta_0 + \beta_1 \Delta \text{Fermer}_i + \beta_2 \Delta \text{Dehqon}_i + \beta_3 \Delta \text{Korxonalar}_i + \varepsilon_i$). Biroq, ushbu modelning statistik cheklovlari ham metodologiyada e‘tirof etildi.

Tadqiqotning cheklovlari Ushbu tadqiqot metodologiyasi ma‘lum cheklovlarga ega:

- **Vaqt oralig‘i:** Tahlil faqat ikki yilni (2019-2020) qamrab oladi. Bu qisqa muddatli tendensiyalarni aniqlashga imkon bersa-da, uzoq muddatli dinamikani, barqarorlikni yoki sikllarni baholash uchun yetarli emas.

- **Ma‘lumotlarning tabiati:** Faqat miqdoriy ma‘lumotlarga (ishlab chiqarish hajmi) asoslanilgan. Kuzatilgan o‘zgarishlarning sabablari (masalan, dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning kamayishi yoki ayrim tumanlarda keskin o‘shishning omillari) ushbu ma‘lumotlar doirasida chuqur tahlil qilinmagan. Buning uchun qo‘shimcha sifatli tadqiqotlar yoki boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni jalb etish talab qilinadi.

- **Ekonometrik tahlil cheklovlari:** Kuzatuvlar sonining ($16 \text{ hudud} * 2 \text{ yil} = 32$ umumiy kuzatuv, lekin o‘zgarishlarni tahlil qilishda faqat 16 ta farq) va vaqt oralig‘ining qisqaligi murakkab va statistik jihatdan mustahkam ekonometrik modellarni qo‘llashni cheklaydi.

- **Fokus doirasi:** Tahlil faqat don mahsulotlariga qaratilgan bo‘lib, viloyat qishloq xo‘jaligining boshqa muhim tarmoqlarini qamrab olmaydi.

Ushbu cheklovlarga qaramay, qo‘llanilgan metodologiya belgilangan maqsad va vazifalarga erishish, Samarqand viloyatida 2019-2020 yillardagi don yetishtirish bo‘yicha asosiy tendensiyalarni, xo‘jalik toifalari va hududlar kesimidagi muhim o‘zgarishlarni aniqlash hamda dastlabki muhokamalar uchun faktik asos yaratish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama

Samarqand viloyatida don ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqoslama tahlili (2019-2020 yillar)

Xo‘jalik Toifasi	2019 yilda Ishlab Chiqarish (tonna)	2020 yilda Ishlab Chiqarish (tonna)	Mutlaq O‘zgarish (tonna)	Nisbiy O‘zgarish (%)
Fermer xo‘jaliklari	657,620	772,306	+114,686	+17.4%
Qishloq xo‘jaligi korxonalari	10,764	12,452	+1,688	+15.7%

Dehqon xo'jaliklari	87,656	70,421	-17,235	-19.7%
Jami Viloyat Bo'yicha	756,040	855,179	+99,139	+13.1%

Tahlil natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatida 2020 yilda jami don ishlab chiqarish hajmi 2019 yilga nisbatan 13.1 foizga yoki 99,139 tonnaga oshib, 855,179 tonnani tashkil etgan. Bu o'sish asosan **fermer xo'jaliklari** hissasiga to'g'ri keladi. Ularda don yetishtirish 17.4 foizga (657,620 tonnadan 772,306 tonnagacha) oshgan. **Qishloq xo'jaligi korxonalari** tomonidan yetishtirilgan don hajmi ham 15.7 foizga (10,764 tonnadan 12,452 tonnagacha) o'sgan. Biroq, **dehqon xo'jaliklarida** ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada, ya'ni 19.7 foizga (87,656 tonnadan 70,421 tonnagacha) kamayganligi kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, viloyatda don yetishtirishda fermer xo'jaliklarining roli ortib, dehqon xo'jaliklarining hissasi kamayish tendensiyasiga ega.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'atlari **Oqdaryo** (157.3%), **Qo'shrabot** (139.2%) va **Kattaqo'rg'on** (127.2%) tumanlarida qayd etilgan. Ayniqsa, Oqdaryo tumanida fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning 171.9% ga oshishi umumiy keskin o'sishga sabab bo'lgan. Aksincha, Samarqand shahri (88.7% ga tushgan) va Samarqand tumanida (79.1% ga tushgan) ishlab chiqarish hajmlari kamaygan. **Kattaqo'rg'on** shahrida esa 2020 yilda umuman don yetishtirilmagan (2019 yilda 1 tonna bo'lgan).

Ba'zi tumanlarda xo'jalik toifalari bo'yicha qiziqarli dinamika kuzatilgan. Masalan, **Toyloq** tumanida fermer xo'jaliklarida don yetishtirish 120.0% ga oshgan bir paytda, dehqon xo'jaliklarida bu ko'rsatkich atigi 5.2% ni tashkil etib, keskin kamaygan. Bu holat ayrim hududlarda dehqonchilik faoliyatining fermer xo'jaliklari foydasiga transformatsiya bo'layotganidan dalolat berishi mumkin.

Taqdim etilgan ma'lumotlar (ikki yil va bir nechta hudud) panel ma'lumotlar xususiyatiga ega bo'lsa-da, faqat ikki yillik kuzatuv murakkab ekonometrik modellarni (masalan, qat'iy yoki tasodifiy effektli modellar) ishonchli baholash uchun yetarli emas.

Oddiyroq yondashuv sifatida, tumanlar bo'yicha umumiy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (ΔY) turli xo'jalik toifalaridagi ishlab chiqarish o'zgarishining (ΔX) ta'sirini baholash uchun quyidagi kabi regressiya modelini qurish mumkin (bu yerda 'i' tumanni bildiradi):

$$\Delta Umumiy_i = \beta_0 + \beta_1 \Delta Fermer_i + \beta_2 \Delta Dehqon_i + \beta_3 \Delta QishloqXo'jalikKorxonalari_i + \epsilon_i$$

Biroq, kuzatuvlar sonining kamligi (16 ta hudud) tufayli bunday modeldan olingan natijalarning statistik ahamiyati va umumlashtirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Shu sababli, ushbu tahlilda asosiy e'tibor kuzatilgan tendensiyalarning tavsifiy va qiyosiy tahliliga qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, viloyatda don ishlab chiqarishning umumiy o'sishi dehqon xo'jaliklaridagi pasayishga qaramay, asosan fermer xo'jaliklari va qisman qishloq xo'jaligi korxonalaridagi ijobiy dinamika hisobiga ta'minlangan.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Samarqand viloyatida 2019-2020 yillar oralig'ida don mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari va ma'muriy hududlar kesimidagi dinamikasini qiyosiy tahlil qilishga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu qisqa davr mobaynida viloyatda jami don yetishtirish hajmi sezilarli darajada (13.1%) oshgan. Bu ijobiy o'zgarish asosan fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligining ortishi (17.4% o'sish) hamda qishloq xo'jaligi korxonalari hissasi bir muncha ko'payishi (15.7% o'sish) hisobiga ta'minlangan.

Shu bilan birga, tadqiqot don yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi va hajmining keskin (19.7%) kamayganligini aniqladi. Bu holat, fermer xo'jaliklari ulushining ortishi bilan birgalikda, viloyat donchiligida ishlab chiqarishning yirikroq, tovar xo'jaliklari tomon tarkibiy siljish jarayoni kechayotganidan dalolat beradi. Hududlararo tahlil esa don yetishtirish dinamikasida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi: ayrim tumanlarda (Oqdaryo, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot) juda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarda (Samarqand shahri va tumani) pasayish kuzatildi.

Ushbu natijalar viloyat agrar siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, fermer xo'jaliklarini yanada qo'llab-quvvatlash bilan birga, dehqon xo'jaliklari faoliyatidagi pasayish sabablarini o'rganish va ularning transformatsiyasiga ko'maklashish, shuningdek, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Tadqiqotning qisqa vaqt oralig'ini (ikki yil) qamrab olganligi va kuzatilgan o'zgarishlarning fundamental sabablarini ochib bermaganligi uning asosiy cheklovlari hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda uzoqroq davrni tahlil qilish, dehqon xo'jaliklari faoliyatining pasayishi va hududiy tafovutlarning omillarini aniqlash uchun qo'shimcha iqtisodiy ko'rsatkichlar va sifatli tahlil usullarini jalb etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev, I. (2019). *O'zbekistonda agrar islohotlar va fermer xo'jaliklarining rivojlanishi*. Fan nashriyoti.
2. Ahmedov, R. T. (2020). Samarqand viloyati agrar sektorining iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish samaradorligi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (3), 112-125.
3. Babajanov, D., & Hasanov, Sh. (2018). Food security challenges and agricultural reforms in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Economic Studies*, 12(4), 45-60.
4. Eshmuradov, B. E. (2017). *Dehqon xo'jaliklarining qishloq joylarda bandlikni ta'minlashdagi o'rni (Samarqand viloyati misolida)* [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi]. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
5. G'aniyev, A. G. (2021). O'zbekistonda donchilik sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Agrar iqtisodiyot*, (1), 34-41.
6. Hasanov, F. U. (2019). Impact of land reform on agricultural productivity in transition economies: A case study of Uzbekistan. *Journal of Development and Agricultural Economics*, 11(5), 123-135.
7. Karimov, A. A., & Yusupov, K. (2022). *O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari*. Iqtisodiyot nashriyoti.

8. Mirzayev, N. N. (2018). Fermer xo'jaliklarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. *O'zbekiston qishloq xo'jaligi*, (6), 22-24.
9. Nazarov, Sh. K. (2020). Regional disparities in agricultural development in Uzbekistan: Evidence from Samarkand region. In *Proceedings of the International Conference on Regional Economic Development* (pp. 210-225). Tashkent State University of Economics.
10. Qosimov, J. M. (2021). Samarqand viloyatida g'allachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari. *Xizmat ko'rsatish sohasi muammolari*, (2), 88-95.
11. Rashidov, U. R. (2018). *Yer munosabatlarini tartibga solishning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga ta'siri*. Yuridik adabiyot publish.
12. Sattorov, A. O. (2019). Dehqon xo'jaliklarining agrar sektordagi o'rni va rivojlanish muammolari. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, (4), 50-55.
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2021). *O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi: 2020 yil statistik to'plami*. Davlat statistika qo'mitasi.
14. Саидмуродов, М. "ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯШАШ ШАРОИТИДА ҚИШЛОҚ ХУДУДЛАРИДА АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ЯХШИЛАДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.6 (2022): 878-881.

KREMNIYDAN YASALGAN DIODLARDA P-N O'TISHIDA LOKAL OBLASTLARDA ISSIKLIK OTKAZUVCHANLIKNING FURE USULI BILAN YECHICH

Xojamurotova Jasmina

Annotatsiya; Ushbu maqolada kremniydan yasalgan yarim o'tkazgichli diodlarda p-n o'tishidagi lokal oblastlarda yuzaga keladigan issiqlik jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda issiqlik o'tkazuvchanlikni baholash uchun Fure qonuniga asoslangan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi qo'llanildi. Model orqali dioddagi issiqlik taqsimoti va o'zgarishi, ayniqsa lokal qizigan nuqtalarda, matematik jihatdan yechib chiqildi. Hisoblashlar, diod ish rejimlarida harorat gradientining muhim rol o'ynashini va u elektr xususiyatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari yarim o'tkazgichli elementlarning ishonchligini oshirish hamda termal boshqaruv tizimlarini loyihalashda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: kremniy diodi, p-n o'tish, issiqlik o'tkazuvchanlik, Fure qonuni, lokal qizish, yarim o'tkazgich, issiqlik taqsimoti, matematik modellash, termal boshqaruv, elektr-issiqlik bog'lanishlari

Annotation: This article analyzes the thermal processes occurring in the local regions of the p-n junction in silicon-based semiconductor diodes. The heat conduction equation based on Fourier's law is employed to evaluate thermal conductivity. Through this model, the distribution and variation of temperature, especially in locally heated areas of the diode, are mathematically solved. The calculations demonstrate that the temperature gradient plays a significant role in the diode's operating modes and notably affects its electrical characteristics. The results of this study may contribute to improving the reliability of semiconductor devices and serve as a foundation for designing thermal management systems.

Keywords: silicon diode, p-n junction, thermal conductivity, Fourier's law, local heating, semiconductor, temperature distribution, mathematical modeling, thermal management, electro-thermal interactions.

Kremniy yarimo'tkazgichlarida p-n o'tishida defektlar va lokal oblastlarda zichlikning keskin o'zgarishi mikroplazmalarni hosil qilishi mumkin. Bu holat issiqlik o'tkazuvchanlikka ta'sir ko'rsatadi, va bu ta'sirni Fure usuli yordamida hisoblash mumkin. Fure usulini qo'llash uchun, quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish kerak. Birinchidan issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlash kerak. Kremniyda, bu ko'rsatkich materialning strukturasi, defektlar va mikroplazmalar mavjudligiga qarab o'zgarishi mumkin. Fure usulida, issiqlik oqimining tarqalishi va issiqlikning material ichida qanday taqsimlanishi tahlil qilinadi. Ikkinchidan Fure tenglamasini qo'llashimiz kerak. Fure usulida issiqlik o'tkazuvchanlikni hisoblash uchun, odatda Fure tenglamalari va issiqlik oqimining vaqtga bog'liq o'zgarishini modellashtirish ishlatiladi. Bu tenglamalar issiqlik oqimi va materialning fizikaviy xususiyatlari (masalan, issiqlik sig'imi, zichlik, va issiqlik o'tkazuvchanlik) yordamida material ichidagi issiqlik tarqalishini hisoblaydi. Fure tenglamasi odatda quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \alpha \nabla^2 T$$

Bu yerda: T - temperaturaning joylashuvi (harorat); α - issiqlik tarqalish koeffitsienti (kremniy uchun bu termal difuzion koeffitsientidir); ∇^2 - Laplas operatori (bu issiqlikning fazoda qanday taqsimlanishini ifodalaydi). Kremniydan strukturali diodlarning p-n o'tishida deffektlar mavjud bo'lganda, bu materialning issiqlik o'tkazuvchanligini o'zgartirishi mumkin. Diodning p-n o'tishida yuza qatlamida asosan deffekt joylashgan local oblastlarda zaryad tasuvchilarning ortishida tok zichligining ortishi bilan local oblastlarda issiqlikning tarqalishini cheklaydigan maydonlar, materialning issiqlik o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Ushbu holatni hisoblashda Fure usulida, mikrostruktura va deffektlarni inobatga olish kerak bo'ladi, bu esa qo'shimcha parametrlarni kiritishni talab qiladi (masalan, deffektlarning zichligi va ularning issiqlik o'tkazuvchanlikka ta'siri). Bunday murakkab tizimlarni hisoblash uchun kompyuter modellashirish usullari, masalan, sonli tahlil usullari qo'llaniladi. Fure tenglamasining yechimini topish uchun, masalan, differensial tenglamalarni sonli usullar yordamida yechish mumkin. Bu usullar material ichidagi issiqlikning tarqalishini hisoblashda foydalidir. Haroratning o'zgarishini va issiqlik oqimining tarqalishini aniq hisoblash uchun materialning xususiyatlarini (zichlik, issiqlik sig'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik) to'g'ri o'lchash va ularni Fure usuliga moslashtirish zarur. Fure usulida issiqlik oqimining tarqalishi va issiqlikning material ichidagi qanday taqsimlanishini tahlil qilishda quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish kerak. Kremniyda issiqlik o'tkazuvchanlik k asosan materialning xususiyatlariga bog'liq, lekin deffektlar va mikroplazmalar bu qiymatga ta'sir qiladi. Yani, mikrostruktura yoki defektlar mavjud bo'lsa, issiqlikning tarqalish tezligi o'zgaradi. Issiqlik o'tkazuvchanlik k bilan bog'liq bo'lgan oddiy munosabat quyidagicha ifodalanadi:

$$q = -k \nabla T$$

Bu yerda: q – issiqlik oqimi (J); k – issiqlik o'tkazuvchanlik (W/m·K); ∇T – haroratning fazodagi gradienti. Issiqlik oqimi q haroratning gradienti ∇T bilan bog'liq bo'lib, materialning issiqlik o'tkazuvchanligi k ni hisoblashda yordam beradi. Mikroskopik darajada, deffektlar materialning strukturasi buzadi, bu esa issiqlikning tarqalishiga qarshi qarshilikni oshiradi. Bunga ko'ra, issiqlik o'tkazuvchanlikni hisoblashda elektronlar va fononlarning (molekulyar va atomar darajadagi tebranishlar) harakati deffektlar orqali qiyinlashadi, bu esa issiqlikning tarqalishini susaytiradi. Material ichidagi mikrostrukturalar, ya'ni mikroskopik ko'rinishdagi issiqlik yutilish va tarqalish hududlarining paydo bo'lishi, issiqlik o'tkazuvchanlikni yanada kamaytiradi.

Fure usulidan foydalanib issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi yaniy kremniy materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti k ni va issiqlik sig'imini aniqlash kerak. Bu parametrlar materialning strukturasi va haroratiga qarab o'zgaradi. Deffektlar va mikrostrukturalar mavjud bo'lsa, ularning issiqlik tarqalishiga ta'sirini modellashirish zarur. Buni sonli metodlar yordamida, masalan, finite difference method yoki finite element method yordamida amalga oshirish mumkin. Fure tenglamasini sonli usullar yordamida yechish kerak. Bu usullar material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning o'zgarishini vaqt bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi. Bunday hisoblashlarni aniq qilish uchun kompyuter modellashirish ishlatiladi. Kompyuter dasturlari, yordamida issiqlik tarqalishining simulyatsiyalarini yaratish mumkin. Bu dasturlar ayniqsa, mikrostrukturalar va deffektlar mavjud bo'lganda material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning tarqalishini tahlil qilishda juda foydalidir.

HISOBLASH BOLIMI

Aytaylik, $T(x, t) \geq 0$ vaqt momentida $x \in \Omega$ nuqtadagi temperatura bo‘lsin. Shu yerda $\Omega - \mathbb{R}^n$ dagi soha, $n = 1, 2, 3$. Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \text{div}(k(x) \nabla T + f(x, t))$$

bu yerda $k(x) > 0$ - harorat o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $f(x, t)$ - mikroplazmaning issiqlik manbalari zichligi. Bizga ma’lumki, diffuziya jarayonini ifodalovchi tenglama ham xuddi shunday ko‘rinishga ega. Agar $k = \text{const}$ koeffitsiyent x ga bog‘liq bo‘lmasa, u holda tenglama soddalashadi va tegishli aralash chegaraviy masala quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = k \Delta T + f(x, t), \quad T|_{t=0} = \varphi(x), \quad T|_{\partial \Omega} = \mu(x),$$

Bir o‘lchovli holatni ko‘rib chiqamiz va $k = a^2$ deb belgilaymiz:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + f(x, t), \quad x \in [0, l], \quad t \in [0, t_n] \quad (1)$$

O‘rganishni boshlang‘ich shartlar berilgan birinchi chegaraviy masaladan boshlaymiz.

$$T(x, 0) = \varphi(x), \quad x \in [0, l], \quad (2)$$

va chegaraviy shartlar

$$T(0, t) = \mu(t), \quad T(l, t) = \nu(t), \quad 0 \leq t \leq t_n \quad (3)$$

Avval bir jinsli tenglamani $f \equiv 0$, ya’ni issiqlik manbalari bo‘lmaganda yechamiz. Faraz qilaylik, $\mu = \nu \equiv 0$, ya’ni kesmaning uchlarida nol harorat saqlanadi.

Fure usuli

- - (3) masalaning yechimi to‘g‘ri to‘rtburchakda qidiriladi.

$$T\{(x, t) \mid 0 < x < l, 0 < t < t_n\}$$

Uning chegarasining bir qismini quyidagicha belgilaymiz

$$\Gamma = \{0 \leq x \leq l, t = 0\} \cup \{x = 0, 0 \leq t \leq t_n\} \cup \{x = l, 0 \leq t \leq t_n\}$$

(1) - (3) masalaning yechimi torning tebranish tenglamasini yechishga o‘xshash o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan quriladi.

1. Birinchi qadam. $U(x, t) = Y(x)Z(t)$ ko‘rinishdagi xususiy yechimlarni izlaymiz. Buni tenglamaga qo‘yamiz va quyidagini hosil qilamiz.

$$Y(x) \cdot Z''(x) = a^2 Y''(x) \cdot Z(t).$$

$a^2 Y(x)Z(t)$ ga bo‘lamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\frac{Z'(t)}{a^2 Z(t)} = \frac{Z''(t)}{Y(t)} = \lambda$$

2. Ikkinchi qadam torning tebranish tenglamasi uchun Fure usulining ikkinchi qadamiga to‘g‘ri keladi. Shturm-Liuvill masalasi ko‘rib chiqilmoqda

$$Y''(x) = \lambda Y(x), \quad Y(0) = Y(l) = 0, \quad (4)$$

Quyidagi yechimga ega bo‘lamiz.

$$\lambda = -\mu_k^2, \quad \mu_k = \frac{k \cdot \pi}{l}, \quad Y_k(x) = \sin \mu_k x, \quad k = 1, 2, \dots$$

(4) masalaning barcha xos qiymatlari va xos funksiyalari topildi.

3. Keyingi qadam ikkinchi tartibli emas, balki birinchi tartibli $Z(t)$ uchun tenglamani yechishdan iborat. Har bir μ_k uchun bu tenglama quyidagi ko‘rinishga ega

$$Z'(t) + a^2 \mu_k Z(t) = 0,$$

uning umumiy yechimi

$$Z(t) = C_k e^{-a^2 \mu_k t}$$

$Y(x)Z(t)$ ko‘rinishdagi (1) tenglamaning (3) chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi barcha yechimlari topildi:

$$T_k(x, t) = C_k e^{-a^2 \mu_k t} \sin \mu_k x$$

4. Ushbu bosqichda (1) - (3) masalaning yechimi quyidagi qator ko‘rinishida qidiriladi:

$$T(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} C_k e^{-a^2 \mu_k^2 t} \sin \mu_k x \quad (5)$$

• boshlang‘ich shartdan quyidagini olamiz:

$$\varphi(x) = \sum_{k=1}^{\infty} C_k \sin \mu_k x,$$

bu yerda C_k - $\varphi(x)$ funksiyani (4) masalaning $\{\sin \mu_k x\}$ xos funksiyalari bo‘yicha yoyishdagi Fure koeffitsiyentlari:

$$C_k = \frac{2}{l} \int_0^l \varphi(x) \sin \mu_k x dx \quad (6)$$

Fure tenglamasini sonli usulda yechish

Fure tenglamasini sonli usulda yechish uchun, vaqt va fazoni diskretizatsiya qilish kerak. Diskretizatsiya jarayonida, haqiqiy uzluksiz vaqt va fazo o‘zgarishlari sonli nuqtalarga aylantiriladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun, vaqt va fazo uchun kichik o‘lchovlar (grid points) kiritiladi. Xatoliklarni kamaytirish uchun, fazoda Δx va vaqtda Δt o‘lchovlarining quyidagicha aniqlanishi mumkin: Fazodagi haroratni x_1, x_2, \dots, x_N nuqtalarda hisoblaymiz. Haroratni vaqt bo‘yicha t_0, t_1, \dots, t_M nuqtalarda hisoblaymiz. Tenglamaning differensial shaklini sonli shaklga o‘tkazishda, $\nabla^2 T$ operatorini diskretizatsiya qilish kerak. Fure tenglamasi uchun, ikkita asosiy differensial formula mavjud:

Fazo bo‘yicha differensial operatorni diskretizatsiya qilishda Laplas operatorini ikki xususiyatga asoslanib hisoblash mumkin:

$$\nabla^2 T(x) \approx \frac{T(x + \Delta x) - 2T(x) + T(x - \Delta x)}{\Delta x^2}$$

Vaqt bo‘yicha hisoblash uchun oddiy differensial formula qo‘llaniladi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} \approx \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\Delta t}$$

Bu yerda: T_i^n - t_n va x_i nuqtasidagi harorat; Δx - fazo bo‘yicha diskretizatsiya o‘lchami; Δt - vaqt bo‘yicha diskretizatsiya o‘lchami. Fure tenglamasini sonli tarzda yechish uchun diskretizatsiya qilingan tenglama quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\Delta t} = \alpha \left(\frac{T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n}{\Delta x^2} \right)$$

Bu tenglama yordamida haroratning vaqt va fazo bo‘yicha o‘zgarishini hisoblash mumkin. Haroratning t_{n+1} va t_n vaqtlardagi qiymatlarini topish uchun ushbu tenglama yordamida iteratsiyalar amalga oshiriladi. Fure tenglamasining sonli shaklini yechish uchun **iteratsiya** metodini qo‘llaymiz. Har bir vaqt nuqtasi uchun T_i^{n+1} ni hisoblaymiz. Iteratsiya qoidasi:

$$T_i^{n+1} = T_i^n + \frac{\alpha \Delta t}{\Delta x^2} (T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n)$$

Bu yerda: T_i^n - vaqtning n-chi qadamidagi harorat qiymati; T_i^{n+1} -vaqtning n+1-chi qadamidagi harorat qiymati; α - issiqlik tarqalishining koeffitsienti.

Boshlang'ich va chegaraviy shartlarni belgilashda haroratning boshlang'ich taqsimlanishi $T(x,0)$ belgilashda boshlang'ich harorat barcha nuqtalarda bir xil deb hisoblaymiz. Shuning hisobda olgan holda chegaraviy shart kiritamiz chegaraviy shartlar: $T(0,t)=T_0$ (boshlang'ich nuqtadagi harorat); $T(L,t)=T_L$ (oqirgi nuqtadagi harorat). Kremniy materialida issiqlik tarqalish koeffitsienti $\alpha=1 \times 10^{-4}$ m²/s, fazo bo'yicha tekshirish oraliqlari $\Delta x=0.1$ mkm (1000 ta nuqta), vaqt bo'yicha tekshirish oraliqlari $\Delta t=1$ ms, boshlang'ich harorat taqsimlanishi $T(x,0)=350$ K. Chegaraviy shartlar: $T(0,t)=350$ K, $T(L,t)=300$ K. Haroratni t^{m+1} nuqtasida hisoblash uchun formulasini qo'llanemiz:

$$T_i^{n+1} = T_i^n + \frac{\alpha \Delta t}{\Delta x^2} (T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n)$$

$i=1, 2, \dots, N-1$ (eng birinchi va oxirgi nuqtalar chegaraviy shartlar bilan belgilanadi). Iteratsiya davomida haroratning vaqt bo'yicha o'zgarishini hisoblash uchun barcha nuqtalar uchun haroratni hisoblab va yangi vaqt qadamiga o'tamiz. Vaqt $t=t_0, t_1, \dots, t_m$ bo'yicha hisoblashni davom ettiriramiz. Buni hisoblash uchun Python dasturidan foydalanamiz. Quyidagi Python kodi yordamida bu hisoblashni amalga oshirish mumkin:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt

# Parametrlar
alpha = 1e-4 # Issiqlik tarqalish koeffitsienti (m^2/s)
L = 0,005 # Material uzunligi (m)
T_0 = 350 # Boshlang'ich harorat (K)
T_L = 300 # Chegara harorati (K)

# Diskretizatsiya qadamlarini aniqlash
N = 1000 # Nuqtalar soni
dx = L / (N-1) # Fazodagi diskretizatsiya
dt = 1 # Vaqt bo'yicha diskretizatsiya (s)
alpha_dt_dx2 = alpha * dt / dx**2

# Boshlang'ich shartlarni belgilash
T = np.ones(N) * T_0 # Boshlang'ich harorat
T[0] = T_0 # Chegara 1: T(0, t) = 350K
T[-1] = T_L # Chegara 2: T(L, t) = 300K

# Vaqt bo'yicha hisoblash
time_steps = 100 # Vaqt qadamlarining soni
for n in range(time_steps):
    T_new = T.copy()
```

```
for i in range(1, N-1):
    T_new[i] = T[i] + alpha_dt_dx2 * (T[i+1] - 2*T[i] + T[i-1])
T = T_new.copy()
```

```
# Haroratni grafika orqali chiqarish (har 10 qadamda)
```

```
if n % 10 == 0:
```

```
    plt.plot(np.linspace(0, L, N), T, label=f't = {n * dt}s')
```

```
# Natijalarni chiqarish
```

```
plt.xlabel('Position (m)')
```

```
plt.ylabel('Temperature (K)')
```

```
plt.title('Temperature Distribution over Time')
```

```
plt.legend()
```

```
plt.show()
```

Yakuniy qism

Bu usul yordamida Fure tenglamasini sonli usulda yechish mumkin. Diskretizatsiya, boshlang'ich va chegaraviy shartlar, va iteratsiya yordamida material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning taqsimlanishini tahlil qilish mumkin. Yuqoridagi misolda, haroratning vaqt bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadigan grafikni olish mumkin. Haroratning vaqt bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadigan grafikni olish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarish kerak. Yuqoridagi misolda Python kodini ishlatgan holda, haroratning fazodagi taqsimlanishini vaqt bo'yicha ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sze, S. M., & Ng, K. K. (2006). *Physics of Semiconductor Devices* (3rd ed.). Wiley-Interscience.
2. Singh, J. (1994). *Semiconductor Devices: Basic Principles*. John Wiley & Sons.
3. Neamen, D. A. (2012). *Semiconductor Physics and Devices* (4th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Ziman, J. M. (2001). *Electrons and Phonons: The Theory of Transport Phenomena in Solids*. Oxford University Press.
5. Incropera, F. P., & DeWitt, D. P. (2007). *Fundamentals of Heat and Mass Transfer* (6th ed.). Wiley.
6. Selberherr, S. (1984). *Analysis and Simulation of Semiconductor Devices*. Springer-Verlag.
7. Kittel, C. (2005). *Introduction to Solid State Physics* (8th ed.). Wiley.
8. Pop, E. (2010). "Energy dissipation and transport in nanoscale devices." *Nano Research*, 3(3), 147-169.
9. Bar-Lev, A. (1993). *Semiconductor and Electronic Devices*. Prentice Hall.
10. Schroder, D. K. (2006). *Semiconductor Material and Device Characterization* (3rd ed.). Wiley-IEEE Press.

SHARG‘UN KO‘MIR KONI GEOLOGIYASI

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti

Neft-gaz va konchilik ishi kafedrasasi assistenti

Axmatov Sobir Farxod o‘g‘li

axmatovsobir17@gmail.com Tel:+998900323983

FQKG21A Guruh talabasi: Eshonqulov Ikrom Ilhom o‘g‘li.

ikromeshomqulov@gmail.com Tel:+998992037980

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Sharg‘un ko‘mir konining geologik tuzilishi poleozoy, trias, yura, bo‘r, paleogen, neogen va to‘rtlamchi yoshlarga xos bo‘lgan cho‘kindi hosilalar ishtirok etadi. Ko‘mir koni maydoni quyi va o‘rta yura kontinental yotqiziqlari bilan qoplangan. Kesmalarda yura davrining sanjar, gurud, degibadam va tangidival svitalarga ajratiladi. Svitalar gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, ko‘mirli argillitlar va ko‘mir qatlmlaridan tashkil topganligi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Terrigen, koordinatlari, kontinental, konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar, ko‘mirlar, pastkamlik, klaren-dyurenli.*

Sharg‘un ko‘mir koni ma‘muriy - hududiy jihatdan Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida ya‘ni Hisor tog‘ tizmasining janubiy qanotidagi Machitli tog‘ yon bag‘rida joylashgan. Sariosiyo (Uzun posyolkasi) temir yo‘l stansiyasidan 30 km shimolda joylashgan. Geografik koordinatlari; shimoliy kengliklari 38°31’21”, sharqiy uzoqliklari 67°41’49”.

Rayonni geologik tuzilishida poleozoy, trias, yura, bo‘r, paleogen, neogen va to‘rtlamchi yoshlarga xos bo‘lgan cho‘kindi hosilalar ishtirok etadi. Ko‘mir koni maydoni quyi va o‘rta yura kontinental yotqiziqlari bilan qoplangan. Kesmalarda yura davrining sanjar, gurud, degibadam va tangidival svitalarga ajratiladi. Svitalar gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, ko‘mirli argillitlar va ko‘mir qatlmlaridan tashkil topgan. Ko‘mirlashgan qatlmlar sifatida sanjar, gurud svitalar quyi va o‘rta qismlari degibadam svitasining yuqori qismlari aniqlandi.

Ko‘mirli yotqiziqlar kesmasi tuzilishida terrigen yotqiziqlarning har xili ishtirok etdi. Bular asosan konglomeratlar, gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar va ko‘mirlar.

Yura ko‘mirli hosillarning iakillanishi issiq, nam iqlimda, o‘simliklarga boy qoplamlari bo‘lgan rel‘efning pastkamlik sharoitlarida kechgan. Botqoqlik sharoitlarda dastavval tuproq gumusi to‘planishi tufaqli torf hosil bo‘lgan, keyinchalik ular ko‘mirga aylanib ketgan.

Tadqiqot maydoni, strukturaviy- tektonik rayonlashtirish

bo‘yicha, Hisor tizmasining janubiy-g‘arbiy bo‘laklariga kiradi va Surxontov antiklinalini shimoliy-sharqiy tutashuvlarida joylashgan.

Ish hududlarida intruziv faoliyatning keng darajada namoyon bo‘lishi bilan birgalikda, proterozoy yotqiziqlari taraqqiy etgan, shuningdek mezza-kaynazoy cho‘kindilari to‘liq majmuada kuzatiladi.

Janubiy O‘zbekistonda ko‘mirlarni o‘rganish bo‘yicha ko‘p tadqiqotchilar tomonidan ko‘lamli ishlar olib borilgan. Ularning orasidan S.I Levitskiy, I.E.Gubin, Y.M.Kuzichkina, P.A.Shaxtman, O.D.Rusakova, G.S.Chikrizov, Y.R.Repman, N.I.Plaxuta, A.P.Vasilev, A.F.Nikolaeva, T.A.Sikstel, B.Z.Yaskovich, A.I.Ginzberg, E.T.Nikolaeva, T.A.Lugodtseva,

N.S. Kudryashev va boshqa tadqiqotchilarning o'tkazgan tadqiqotlarning alohida ta'kidlash lozim. Ko'p hollarda ushbu ishlar qidirish-baholash bosqichlarida tugallangan va kamroq ishlar ko'mir uyumlarining tarkibi va hosil bo'lish sharoitlariga bag'ishlangan.



1-rasm. “Sharq’un ko‘mir” konining ko‘mir qatlamining tabiiy ochilmasi.

Ko'mir qatlamlarining kesmalari, ularning barqarorligini va qalinliklarini o'rganishlar uchta asosiy o'lkani ajratishga imkon beradi, bular: *ahamiyatsiz qalinliklardagi (0.1-1.0 m), barqaror bo'lmagan ko'mir qatlamlari tarqalgan viloyatlari; muhim salinlikdagi (2.0-3.0 m) kuchsiz barqaror bo'lgan ko'mir qatlamlarni rivojlanish viloyatlar; muhim bo'lmagan (1.0-10.0 m) qalinlikdagi yaxshi barqaror bo'lgan ko'mir qatlamlarini tarqalish viloyatlari.*

Puch tog' jinslar qatlamining tarkibi argelit, alevrolit va kam miqdorda peschanikdan tashkil topgan. Bundan tashqari, qatlamning quyi va o'rta qismida mineralizatsiyalashgan ko'mir pachkalari bor bo'lib, pachka qatlamining qalinligi 0,20 metrdan 1,20 metrgacha o'zgarishi kuzatiladi.

Ko'mir qatlami qalinligi barqaror emas. Qatlamning qalinligi 3,85 metrdan 13,68 metrgacha o'zgaradi. Ko'mir qatlamining o'rtacha qalinligi 7,57 metrni tashkil etadi. Qatlamning o'rtacha qiyalik burchagi 45-48° ni tashkil qiladi.

“G'arbiy” qismni o'rganish natijalariga ko'ra qatlam qalinligi 0,23 metrdan 14,60 metrgacha o'zgaradi. Shimoliy-sharqda (shaxta maydonining qanoti) qatlam oddiy tuzilishga ega, qatlam qalinligining o'zgarishi 3,50-4,40 metrdan 9,12 metrgacha yetadi.

Janubda, Sharq'un soyidan 50-100 metrda qatlam yer yuziga chiqqan. Qatlamning qalinligi 2,0-3,0 metrdan 14,93 metrgacha o'zgaradi. Qatlamning ba'zi bir qismlarida qatlamning 2-3 pachgaga bo'linganligi kuzatiladi. Pachkalarining qalinligi 0,23 metrdan 3,33 metrgacha o'zgaradi. Puch tog' jinslari qatlami alevrolit va argelitlardan tashkil topgan, qalinligi 0,2-0,8 metrni tashkil etadi. “Rug'an-rexta” dagi ko'mir qatlami qalinligi 0,20-11,38 metr, o'rtacha qalinligi esa 4,55 metrni tashkil etadi. Qatlam tuzilishi murakkab. Odatda qatlamda 1-4 ta argellit qatlami uchraydi, ko'mir argelliti, ba'zida peschanik uchrab ko'mir qatlamini 2-5 taga bo'ladi. Puch tog' jinslari qatlamining qalinligi 0,04-0,89 metrgacha yetadi. Argellit qatlami ko'mir qatlamining o'rtasida yoki yuqori qismida uchraydi. Ko'mir qatlamining umumiy foydali qalinligi 0,2 metrdan 9,91 metrgacha bo'lib, o'rtacha qalinligi 4,07 metrni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SSSR Davlat zahiralari qo'mitasi va hududiy zaxiralar qo'mitasiga ko'mir va neft slanetslari zaxiralarini hisoblash bo'yicha materiallarni taqdim etishning mazmuni, dizayni va tartibi bo'yicha ko'rsatmalar. M., SSSR Davlat zaxiralari qo'mitasi, 1984. 40 b.
2. Devon jinslarining muhandislik-geologik xususiyatlarini o'rganish va ularning ko'mir konlarida barqarorligini bashorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar va uslubiy tavsiyalar. M., VSEGINGEO. 1982. 93 b.
3. Ko'mir va moyli slanets konlarini qidirish jarayonida ular bilan bog'liq qattiq foydali qazilmalar va komponentlarni o'rganish va baholash bo'yicha ko'rsatmalar. M. Fan. 1987.135.
4. Geologik qidiruv ishlarida ko'mir qatlamlari va xos jinslarning gaz tarkibini aniqlash va bashorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar. M., Nedra, 1977, 96 p.
5. Ko'mir va moyli slanets konlariga zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar. M., SSSR Davlat zaxiralari qo'mitasi. 1983.46.
6. Kudryashev N.S. O'rta Osiyo Quyi mezozoy ko'mir provinsiyasining janubiy chetidagi ko'mirli havzalar. Toshkent, muxlis. 1976. 110 b.

HOLAT SIFATLARIDA GRADATSIYA HODISASINING NAMOYON
BO‘LISHI*SamDUKF,*

Mohinur Fayzullayeva Nodirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifatlar sistemasining o‘ziga xos bir turi bo‘lgan holat sifatlarining gradatsiya (darajalanish) hodisasi bilan bog‘liq semantik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Gradatsiya, ayniqsa holat sifatlarida qanday darajada namoyon bo‘lishi, ularning boshqa sifat turlari bilan o‘zaro farqi va o‘xshashliklari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek tilida bu hodisaning ifoda shakllari va leksik vositalari misollar asosida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: holat sifati, gradatsiya, darajalanish, semantika, leksik vosita, grammatik vosita

Tilshunoslikda sifatlar til birliklari sifatida predmetlarning belgisini ifodalovchi muhim so‘z turkumlaridan biri hisoblanadi. Sifatlar leksik-semantik va grammatik jihatdan turli guruhlariga ajratiladi. Jumladan, holat sifatleri predmetning doimiy emas, balki vaqtinchalik holatini bildiradi. Ushbu maqolada holat sifatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, gradatsiya hodisasi orqali qanday darajalanishi tahlil qilinadi. Gradatsiya hodisasi nafaqat grammatik, balki semantik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, til birliklarining mazmuniy chuqurligini ochib berishga xizmat qiladi.

Holat sifatleri o‘z mohiyatiga ko‘ra, predmetning vaqtinchalik, o‘tkinchi holatini bildiruvchi sifatlerdir. Ular ko‘proq inson yoki hayvonlarga nisbatan ishlatiladi va subyektiv holatni ifodalaydi. Bunday sifatler: kasal, xursand, xafa, mast, uyqudagi kabi misollar bilan ifodalanadi. Ularning asosiy belgilaridan biri – o‘zgaruvchanlik va vaqtinchaliklikdir. Holat sifatleri asosan sifatdosh shaklida, ya‘ni fe‘l asosidan hosil bo‘ladi. Shu sababli ularning ayrimlari fe‘liylik xususiyatlarini ham saqlab qoladi.

Holat bildiruvchi sifatler o‘zbek tilshunosligida narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg‘un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o‘zbek tilshunosligida o‘z o‘rnida yana ichki guruhlariga bo‘linadi:

- 1) tabiiy holat bildiruvchi sifat: go‘zal, mo‘min, o‘ktam, cho‘loq, bukri;
- 2) jismoniy holat bildiruvchi sifat: bardam, baquvvat, tetik, yosh;
- 3) ruhiy holat bildiruvchi sifat: xafa, g‘amgin, ma‘yus, xursand, shod;
- 4) iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: boy, badavlat, kambag‘al, nochor;
- 5) harorat holatini bildiruvchi sifat: iliq, salqin, sovuq, issiq;
- 6) tozalik holatini bildiruvchi sifat: toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt;
- 7) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: yangi, eski, ko‘hna, juldur;
- 8) ho‘l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: ho‘l, quruq, nam, namxush;
- 9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta;
- 10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifat: xom, pishiq, g‘o‘r, puxta.

Gradatsiya – bu tilshunoslikda sifatlarning darajalarda ifodalanishini anglatuvchi hodisa bo‘lib, u ikki asosiy shaklda yuz beradi:

1. Sintaktik gradatsiya – “juda”, “nihoyatda”, “anchayin”, “behad”, “birmuncha” kabi kuchaytiruvchi yoki zaiflashtiruvchi so‘zlar yordamida.

2. Leksik gradatsiya – bir-biriga yaqin, ammo darajada farqlanuvchi sifatlarning ketma-ketligi orqali (masalan: yengil → charchagan → holdan toygan).

Holat sifatarida gradatsiya hodisasi doim ham ochiq ko‘rinishda bo‘lavermaydi. Chunki bu sifatar ko‘pincha bo‘lishli/bo‘lmaslik (binary) holatlarni bildiradi. Biroq ayrim holatlarda gradatsiyaning mavjudligini kuzatish mumkin:

1. Sintaktik gradatsiya:

U juda holsiz edi.

Bola nihoyatda xursand bo‘ldi.

U birmuncha xafa ko‘rindi.

2. Leksik gradatsiya:

Xursand → mammun → juda baxtli

Xafa → g‘amgin → yuragi ezilgan

Kasal → og‘ir kasal → hushsiz yotgan

□ Barcha holat sifatlari gradatsiyalanavermaydi. Masalan, o‘lik, mast, uyqudagi kabi sifatar absolyut holatni bildiradi, ularni darajalab bo‘lmaydi:

“juda o‘lik”, “nihoyatda mast” – bu birikmalar normativ tilda ishlatilmaydi

Xulosa qilib aytganda, holat sifatarida gradatsiya hodisasi mavjud bo‘lsa-da, u boshqa sifatar turlariga nisbatan chegaralangan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Asosan sintaktik gradatsiya vositalari faol ishlatiladi. Leksik gradatsiya esa semantik yaqinlik asosida yuz beradi. Gradatsiyaning stilistik roli esa matnning ta‘sirchanligini oshiradi. Shu sababli, holat sifatarining gradatsiya xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobojonov Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, T.: Fan, 2006.
2. Jo‘rayev N. “Sifatar semantikasi”, T.: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.
3. Zokirov M. “Leksikologiya asoslari”, T.: O‘qituvchi, 1994.
4. Hasanov B. “Hozirgi o‘zbek tilining grammatikasi”, T.: Fan, 2001.
5. R.Sayfullayeva va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, T.:2019

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI DAVLAT FUNKSIYALARINI JORIY QILISH ZARURATI

Nuraliyev Tolibjon Ne'mat o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli davlat funksiyalarining bugungi kundagi imkoniyatlari va uning huquqiy to'siqlarini zamonaviy metodlar orqali tahlil qilinadi. Hozirgi zamon davlat boshqaruvi jarayonlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida boshqaruvda samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda, ayrim huquqiy va texnologik muammolarni ham yuzaga keltiradi. Tadqiqot natijalari davlat xizmatlarini amalga oshirish tezkorligi, ularni amalga oshirishdagi ayrim huquqiy cheklovlar, texnologik muammolar va raqamli infratuzilmaning rivojlanishiga doir yutuqlar va kamchiliklarni o'z ichiga olgan holda yoritiladi. Ayrim davlat xizmatlarini amalga oshirishda raqamli funksiyalarni qo'llash istiqbollari yoki uning kamchiliklari haqida muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *davlat boshqaruvi, elektron hujjat, davlat xizmatlari, shaxsga doir ma'lumotlar, elektron platformalar, kibertahdidlar, raqamli identifikatsiya tizimlari, texnologik innovatsiyalar, mehnat taqsimoti, maxfiylik siyosati, xalqaro tajriba.*

Аннотация: *В этой статье анализируются современные возможности функции цифрового состояния и ее правовые барьеры с помощью современных методов. Внедрение цифровых технологий в современные процессы государственного управления не только повышает эффективность управления, но и создает определенные юридические и технологические проблемы. Результаты исследования будут освещены с учетом темпов внедрения государственных услуг, некоторых правовых ограничений на их предоставление, технологических проблем, а также достижений и недостатков развития цифровой инфраструктуры. Обсуждаются перспективы применения цифровой бюрократии при реализации определенных государственных услуг или ее недостатки.*

Ключевые слова: *государственное управление, электронный документ, государственные услуги, личная информация, электронные платформы, киберугрозы, системы цифровой идентификации, технологические инновации, разделение труда, Политика конфиденциальности, международный опыт.*

Abstract: *This article analyzes the modern possibilities of digital state functions and its legal barriers using modern methods. The introduction of digital technologies into modern public administration processes not only improves management efficiency, but also creates certain legal and technological problems. The results of the study will be highlighted taking into account the pace of implementation of public services, some legal restrictions on their provision, technological problems, as well as achievements and shortcomings in the*

development of digital infrastructure. The prospects of using digital bureaucracy in the implementation of certain public services or its disadvantages are discussed.

Keywords: *public administration, electronic document, public services, Person Information, electronic platforms, cyber threats, Digital Identification Systems, technological innovation, division of Labor, Privacy Policy, international experience.*

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning tez fursatda rivojlanib borishi uning davlat boshqaruvi sohasiga integratsiyalashuvi jarayonlarini ham jahon miqyosida muhim tendensiyalardan biriga aylantirib bormoqda. Bu jarayonlar albatta, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish, onlayn hujjatlar almashinuvi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Raqamli funksiyalar davlat xizmatlarini amalga oshirishning tezkor, qulay va shaffof tarzda taqdim etish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan bir qatorda, bu jarayonning ishlashi hali yangiliklarga boy bo'lganligi sababli ham uni fuqarolar, keng jamoatchilik va davlat xizmatchilari o'rtasida targ'ib qilishda ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, raqamli davlat funksiyalariga o'tish sharoitidagi ayrim huquqiy to'siqlar uning amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinmaganligi bu tizimning to'liq ishlamasligiga yoki lozim darajada ishlamasligiga olib kelmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish zarurati ham raqamli davlat funksiyalarning uzviy bo'lagi hisoblanadi. Chunki, axborotni integratsiya qilish natijasida raqamli funksiyalarning ishlashi samarali bo'lib, ortiqcha ovoragarchiliklarni oldini oladi, natijada murojaatchilarning ham vaqti tejalgan bo'ladi. Biroq bu jarayonning ham kamchiliklaridan biri bu axborotning xavfsizligi hamda undan foydalanishdagi maxfiylik siyosati masalasi. Jumladan, davlat funksiyalarini amalga oshirishda raqamli infratuzilma ham bugungi kunda asosiy rolni o'ynab ayrim muommo va kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada raqamli funksiyalarning imkoniyatlari va huquqiy muammolari keng ko'lamda ko'rib chiqiladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng ko'lamda qo'llanilishi ularning tarkibiy tuzilmasini qayta shakllantirmoqda. Ushbu maqolada axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining funksiyalarning davlat boshqaruvi hamda uning xizmatlariga ta'sirini xalqaro tajribalar asosida tushuntiriladi. Tahlillar shuni anglatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari funksiyalar ustidan vertikal nazoratni kuchaytiradi, bu asosan ikki jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, asosiy bo'limdagi davlat xizmatchilarining kuchini, ayniqsa, kun tartibini belgilash kuchini zaiflashtiradi; ikkinchidan, o'rta va yuqori bo'g'indagi rahbarlarning asosiy davlat xizmatchilari ustidan nuqtadan-nuqtagacha nazorat qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Keyinchalik, maqolada ushbu ikki o'zgarishning mumkin bo'lgan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Davlat funksiyalarini raqamlashtirishga o'tish natijasida biz raqamli byurokratiyaning yutuqlariga erishishimiz mumkin.

Dastlab byurokratiyaning o'zi nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak. Byurokratiya - (fransuzcha byuro - devon, yunoncha kratos - hokimiyat) - rasmiyatchilikka asoslangan boshqaruv va ma'muriyat tizimi. Byurokratiya alohida moddiy va ma'naviy imtiyozlarga ega ma'murlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Byurokratiyaning muqobili qog'ozbozlikdir[1]. Raqamli byurokratik ierarxiya tizimi byurokratik strukturalarga asoslangan tashkiliy boshqaruv

tuzilmasi bo'lib, u boshqaruv va nazoratga erishish uchun piramidasimon ierarxik va lavozimga asoslangan bo'linmalardan foydalanadi.

Raqamli texnologiyalar asrining kelishi bilan jamoat tashkilotlari misli ko'rilmagan darajada muammolar bilan yuzlashmoqdalar. XX asr o'rtalarida kompyuter texnikasining jadal rivojlanishi bilan jamoat tashkilotlari axborot texnologiyalari imkoniyatlarini amalga oshirishda ilg'or qadam tashlay boshladilar. 1980-yillarda kompyuter tizimlari va dasturiy ta'minot dasturlari asta-sekin joriy etilib, ish samaradorligi va ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatlari yaxshilandi. 1990-yillarda va XX asrning boshlarida Internetning keng jamoatchilikka ommalashuvi jamoat tashkilotlarining raqamli transformatsiyasiga yordam berdi va veb-saytlar qurish va onlayn xizmatlarni ko'rsatish tendensiyaga aylana boshladi. Shu bilan birga, mobil hisoblash, bulutli hisoblash, katta ma'lumotlarni tahlil qilish kabi yangi texnologiyalarni qo'llash jamoat tashkilotlarini axborotlashtirish jarayonini yanada rag'batlantirdi. Raqamli transformatsiya va aqlli boshqaruv zamonaviy jamoat tashkilotlari uchun muhim maqsadlarga aylandi. Davlat boshqaruvida texnologiyani qo'llash uzluksiz o'zgarishlar va yangi ijtimoiy shakllarga moslashishga turtki bo'lmoqda, davlat funksiyalarini raqamlashtirish esa, zamonaviy milliy boshqaruv tizimining o'zagi sifatida milliy boshqaruv samaradorligiga uning operativ usullari va samaradorligi orqali bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli davlat funksiyalariga o'tish ixtisoslashuvi, elektron mehnat taqsimoti hozirda davlat xizmatlarini yaxshilash jarayonida oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.. Shu sababli, axborot texnologiyalarining raqamli funksiyalarga ta'sirini o'rganish bizga yangi texnologiyalar siyosiy va ma'muriy tizimlarni qanday o'zgartirishi mumkinligini tushunishga yordam beradi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamoat tashkilotlarining qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siriga e'tibor qaratiladi, chunki qaror qabul qilish jarayoni tashkiliy hokimiyat tuzilmasini aks ettiruvchi asosiy omil hisoblanadi[2]. Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat fuqarolar uchun qulaylik yaratadi, balki davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga ham xizmat qilib kelmoqda. Ushbu maqola davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan.

Dastlabki yondashuvda huquqiy hujjatlar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish uchun eng muhim jihatlardan biri mustahkam huquqiy asos mavjud bo'lishi zarur. Har bir davlat o'zining huquqiy me'yorlariga tayanib, raqamli infratuzilmani yaratishi va fuqarolarga elektron xizmatlar ko'rsatishi lozim. Shunday ekan, qonunlar va me'yoriy hujjatlar tahlili orqali davlat xizmatlarining qanchalik shaffof va samarali ekanligini aniqlash mumkin. Ikkinchi metodologik yondashuv sifatida xalqaro tajriba o'rganildi. Rivojlangan mamlakatlarning raqamli funksiyalar yo'nalishidagi strategiyalarini tahlil qilish orqali biz o'zimizga mos keladigan eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashimiz mumkin. Masalan, Estoniya elektron hukumat tizimini joriy etishda katta yutuqlarga erishgan bo'lsa, Janubiy Koreya raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlarini ko'rsatishda keng qo'llagan. Bunday tajribalarni o'rganish natijasida biz o'zimizga mos modelni yaratishimiz mumkin. xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolarning fikrlarini so'rovnomalar orqali va real statistik ma'lumotlar bilan uyg'un holda o'rganiladi. Bu esa mavjud tizimning kamchiliklarini aniqlash va uni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan choralarni belgilash imkonini beradi. Raqamli

davlat funksiyalar davlat boshqaruvini optimallashtirish va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Davlat xizmatlarining tez va shaffof bo'lishi bugungi kunda juda muhim. Texnologiyalar rivojlanib, ko'plab xizmatlarni ko'rsatish internet bilan bog'langanligini guvohi bo'lyapmiz. Hozir ko'pchilik hujjatlarni rasmiylashtirish, soliqlarni to'lash yoki boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish uchun idoralarga borib navbat kutib o'tirmaydi. Chunki bu xizmatlarning barchasini onlayn bajarish mumkin. Avvallari birgina ma'lumotnoma yoki guvohnoma olish uchun odamlar soatlab, ba'zan esa kunlab vaqt yo'qotardi. Hozir esa internet orqali ariza berib, natijani elektron shaklda olish mumkin. Bu, albatta, vaqt va mehnatni tejaydi. Yana bir katta afzallik - shaffoflik. Hamma narsa avtomatlashtirilgani uchun poraxo'rlik yoki ortiqcha ovoragarchilik kamayadi. Masalan, soliq to'lovlarini olaylik. Ilgari buning uchun bankka borish, navbatda turish kerak edi, hozir esa buni internet orqali tez va oson hal qilish mumkin. To'lovlar qayerga ketayotganini ham ko'rish imkoni bor.

insonlar uydan chiqmasdan turib ham kerakli hujjatlarni rasmiylashtira oladi. Zamonaviy dunyoda texnologiyalar rivojlanishi bilan birga ish yuritish tizimida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qog'oz shaklida hujjatlar tayyorlash yillar davomida asosiy usul bo'lib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda elektron hujjatlar almashinuvi ushbu jarayonni ancha yengillashtirmoqda. Qog'ozbozlikni kamaytirish ish samaradorligini oshirish, vaqt va resurslarni tejash, hujjatlar bilan ishlash jarayonini soddalashtirish kabi ko'plab afzalliklarga ega.

Birinchidan, elektron hujjatlar tizimi ish jarayonlarini tezlashtiradi. Hujjatlarni qo'lda tayyorlash, chop etish, imzolash va jo'natish ancha vaqt talab qilsa, elektron hujjatlar orqali bu jarayon bir necha daqiqada hal bo'ladi. Xodimlar qog'oz hujjatlarni saralash, arxivlash va qidirish bilan band bo'lish o'rniga, o'z vaqtlarini muhimroq vazifalarga sarflay oladilar.

Ikkinchidan, qog'ozbozlikni kamaytirish moliyaviy jihatdan ham foydalidir. Hujjatlarni chop etish, printer va skaner kabi ofis jihozlariga xizmat ko'rsatish, qog'oz va siyoh xarajatlari - bularning barchasi kompaniya yoki tashkilotlar uchun ortiqcha xarajat bo'lishi mumkin. Elektron hujjatlar tizimi ushbu xarajatlarni keskin kamaytiradi. Ayniqsa, katta tashkilotlar uchun bu sezilarli darajada moliyaviy tejash imkonini beradi.

vaqtda va istalgan joydan ularga kirish mumkin. Bu esa hujjatlar yo'qolishi yoki tasodifan yo'q qilinishi xavfini kamaytiradi[3].

Albatta, qog'oz hujjatlardan butunlay voz kechish hali ancha vaqt talab qilishi mumkin, lekin elektron hujjatlar tizimiga asta-sekin o'tish har qanday tashkilot va jamiyat uchun katta foyda keltiradi. Bu nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy samaradorlik, tezkorlik va qulaylikni ham ta'minlaydi. Shuning uchun qog'ozbozlikni kamaytirish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda davlat boshqaruv tizimida muhim o'rin tutmoqda. Bu jarayon nafaqat davlat xizmatlarini tezlashtirish, balki xodimlarning ish samaradorligini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Raqamlashtirish ortidan ko'plab ortiqcha jarayonlar avtomatlashtiriladi, bu esa vaqtni tejash va ishni yanada soddalashtirish imkonini yaratadi. Avtomatlashtirish orqali ma'lumotlar tizimi o'z-o'zini yangilaydi, hujjatlar va arxivlar tez va oson ravishda qayta ishlanadi, natijada inson omilining ta'siri kamayadi. Bu esa xodimlarning e'tiborini muhim vazifalarga qaratish imkonini beradi. Chunki jarayonlar avtomatik tarzda bajariladi. Shuningdek, raqamlashtirish xodimlar va

fuqarolar o'rtasidagi muloqotni ham yengillashtiradi. Hujjatlar va so'rovlar elektron shaklda uzatilishi, natijada vaqt sarfi kamayadi va xatoliklar soni sezilarli darajada pasayadi. saqlanadi, chunki har bir tranzaksiya yoki o'zgartirishni tizimning barcha ishtirokchilari tasdiqlaydi. Shuningdek, blokchain tamper-proof (o'zgartirishga qarshi) xususiyatga ega, bu esa hujjatlarning haqiqiylikni tekshirishni osonlashtiradi. Sun'iy intellekt esa, ma'lumotlarni analiz qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishda qo'llaniladi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlar tahlil qilinib, noaniqliklar va xatoliklar tezda aniqlanishi mumkin. Bundan tashqari, hujjatlar va shartnomalarni avtomatik ravishda tekshirish yoki avtomatik ravishda boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish mumkin[4].

Raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qonuniy asoslar yetishmovchiligi - Ayrim mamlakatlarda davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish uchun qonuniy me'yorlar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan[5]. Avvalo, axborot texnologiyalarini davlat boshqaruvida qo'llash orqali davlat xizmatchilariga ham, fuqarolarga ham qaror qabul qilish jarayonida yengilliklarni yuzaga keltirib, yanada samarali, tezkor va asosli ishlash imkoniyatini beradi. An'anaviy boshqaruv uslublariga asoslangan, davlat boshqaruvini raqamlashtirmagan davlatlar boshqaruvda ko'p vaqt, resurs va inson omiliga ehtiyojni sezadi. Raqamlashtirish yo'lidan borayotgan boshqaruvga ega davlatlarda esa bugungi kunda asosiy ishlarni inson omilisiz kompyuter resurslari orqali ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va ularga insoniy imkoniyat sifatida qarorlar qabul qilish imkoniyati berilishi natijasida bir qancha resurslarni tejaliishiga sabab bo'lmoqda[6]. Masalan, davlat xizmatlarini elektron tizimga o'tkazish orqali davlat organlari o'zida mavjud ish o'rinlarini qisqartiradi va bu o'z navbatida davlat iqtisodiyoti uchun foyda hisoblanadi. O'zbekistonda ham bir qancha davlat xizmatlarini ko'rsatish ham bugungi kunda elektron tizimga o'tkazilmoqda. Bularga fuqarolarning passport (ID karta) olishini, soliqlar va boshqa to'lovlarni davlat organlariga bormasdan to'lash, davlat xizmatlarini olishning yagona platformadan amalga oshirish (my.gov.uz) kabi imkoniyatlarni aytishimiz mumkin. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonda davlat xizmatlarini ko'rsatishda "yagona darcha tamoyilidan" (xorijda bu jarayon "one window" deb nomlanadi) foydalanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshidagi Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini tahlil qilish asosida, bugungi kunda O'zbekistonda davlat xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalarning davlat funksiyalariga ta'sirini baholashini o'rganishimiz mumkin. Chunki DXMlari faoliyatidagi barcha xizmatlar to'liq raqamlashgan hamda barcha foydalanuvchi (davlat xizmatchisi va fuqaro)lar uchun oson, tez va qulay. Bu esa, ortiqcha byurokratiyani yo'qotishga yordam beradi. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashda ham axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Elektron monitoring tizimlari, onlayn hisobotlar va ochiq ma'lumotlar platformalari orqali jamiyatda ochiqlik,shaffoflik va ishonch muhitini kuzatish mumkin. Bu ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu jarayon davlat boshqaruvi va fuqarolar o'rtasidagi aloqani soddalashtirib, ko'plab xizmatlarni tez va samarali tarzda taqdim etish imkonini beradi. Biroq, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir qancha muhim shartlar mavjud. Avvalo, huquqiy cheklolarni bartaraf etish, texnologik xavfsizlikni ta'minlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Davlat organlari uchun texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan birga huquqiy islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina

ushbu ikki jihatni muvozanatli tarzda birlashtirish orqali raqamli funksiyalar samarali ishlashini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning fuqarolar uchun qulayligi va samaradorligini oshirish uchun davlat organlari o'z tizimlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Byurokратиya // <https://oyina.uz/uz/teahouse/962>
2. Transformation of Bureaucracy in Digital Times // <https://www.igi-global.com/chapter/transformation-of-bureaucracy-in-digital-times/344614>
3. Suyunov, S. (2025). ELEKTRON HUKUMAT: BYUROKRATIYA VA KORRUPTSIYAGA QARSHI ATRIBUT. Journal of analytical synergy and scientific horizon, 1(1.2 (B series).), 70-77.
4. Curtailing Digital State Functions: Challenges and Recommendations // <https://www.tovima.com/opinions/curtailing-digital-bureaucracy-challenges-and-recommendations/>
5. Boyxurozov, X. (2025). O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini optimizatsiyalashtirish: muammo va yechimlar. PEDAGOG, 8(1), 195-202.
6. Digital State Functions: A Decentralized and AI Powered Bureaucratic Transaction System // <https://www.publish0x.com/startupinsider/digital-bureaucracy-a-decentralized-and-ai-powered-bureaucra-xznmopj>

THE IMPORTANCE OF CYBERSECURITY IN THE DIGITAL AGE

Scientific Advisor: Toshpulatov Dilshodjon

Author: Saidova Aziza

Tashkent University of Information Technologies,

Samarkand Branch,

Faculty of Computer Engineering,

Student of Group DI24-07

Phone Number: +998 93 478 63 06

Email Address: saidovaaziza@gmail.com

Annotation: *In today's increasingly digital world, cybersecurity has become a vital component of global stability and personal safety. With the widespread use of the internet, mobile devices, and cloud technologies, individuals and organizations are more connected than ever – but also more vulnerable. Cyberattacks such as data breaches, ransomware, identity theft, and hacking pose serious threats to privacy, finances, and national security. This article explores the growing significance of cybersecurity in the digital age. It examines the types of cyber threats facing users and institutions, the consequences of cyberattacks, and the urgent need for proactive measures. The paper also evaluates the role of education, legislation, and advanced technologies like artificial intelligence in strengthening cyber defense mechanisms. By raising awareness and promoting responsible digital behavior, societies can build a safer and more resilient digital environment.*

Keywords: *Cybersecurity, Cybercrime, Cyberattack, Information security, Digital technologies, Network security, Antivirus software, Cyber threat, Cyber defense, Information systems, Unauthorized access, Password policy, Authentication, Encryption, Anti-cybercrime strategy.*

The number of cyber threats in the modern world is growing at a rapid pace. Global mass media report new incidents every day. Examples of such threats include the distribution of malicious software, password hacking, embezzlement of funds from credit cards and other banking details, as well as the spread of illegal content via the internet – such as defamation and morally corrupt information. Major international companies and government institutions are facing waves of cyberattacks, while hackers are targeting the bank accounts of ordinary citizens. These developments underscore the urgent need to establish a reliable system for protecting against digital threats. Therefore, it is important to understand what cybersecurity is and why it is crucial for each of us.

Cybersecurity refers to the protection of internet-connected systems – including hardware, software, and data – from cyber threats. In this context, the concept of "cybercrime" refers to illegal activities carried out through information and communication technologies. These include cyberterrorism, the creation and dissemination of viruses and other malicious programs, the distribution of illegal content, mass email spamming, hacking attacks, unauthorized access to websites, fraud, violations of data integrity and copyright, and the theft

of credit card numbers and banking credentials through methods such as phishing and pharming, among other cyber offenses.

Why is Cybersecurity Important?

Cybersecurity is one of the most vital aspects of any modern business. This is because governments, financial institutions, healthcare companies, and nearly every other organization collect and store large amounts of data on computers and other devices. Much of this data includes sensitive information about the company itself or the public, such as intellectual property, financial records, and personal data. These types of data are often transmitted across networks and devices, creating numerous opportunities for breaches. The world has witnessed many large-scale cyberattacks, which have led to a growing lack of trust in how organizations manage and protect information. These attacks also significantly damage a company's reputation.

Key Components of an Effective Cybersecurity Strategy and What Each Involves:

1. Network Security

Involves protecting the integrity, confidentiality, and accessibility of a company's network.

Prevents unauthorized access, misuse, or theft of data during transmission.

Uses firewalls, intrusion detection/prevention systems (IDS/IPS), and secure VPNs.

2. Application Security

Ensures that software applications are designed and maintained to resist security threats.

Involves regular updates, vulnerability testing, and secure coding practices.

Prevents data breaches due to flaws in apps or services.

3. Information Security (InfoSec)

Protects both digital and physical data from unauthorized access, alteration, or destruction.

Includes data encryption, access controls, and data classification.

Focuses on maintaining confidentiality, integrity, and availability (CIA triad).

4. Endpoint Security

Secures individual devices like computers, smartphones, and tablets that access the network.

Involves antivirus software, mobile device management (MDM), and endpoint detection and response (EDR) tools.

5. Cloud Security

Protects data, applications, and infrastructures involved in cloud computing.

Uses identity and access management (IAM), encryption, and monitoring tools.

Ensures secure migration, storage, and collaboration in the cloud.

6. Identity and Access Management (IAM)

Controls who has access to what within an organization's systems.

Implements policies like least privilege, multifactor authentication (MFA), and single sign-on (SSO).

Prevents insider threats and unauthorized data exposure.

7. Disaster Recovery and Business Continuity

Ensures that an organization can recover quickly from cyber incidents or data loss.

Includes backup strategies, recovery plans, and failover systems.

Minimizes downtime and financial losses.

8. Security Awareness and Training

Educates employees about cyber threats and best practices.

Covers phishing, password hygiene, social engineering, and how to report suspicious activity.

Human error is one of the biggest security risks—training helps reduce it.

9. Security Monitoring and Incident Response

Constantly monitors systems for anomalies and responds quickly to threats.

Uses SIEM systems (Security Information and Event Management) and SOC (Security Operations Center).

Ensures that threats are detected and neutralized before causing major harm.

Although there is currently no single international convention or regulation that governs all activities in the virtual world, our country, which is increasingly integrating into the global community, is implementing a consistent state policy aimed at the effective use of information and communication technologies, information systems, and modern computer technologies.

It is worth noting that according to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Cybersecurity," the State Security Service of the Republic of Uzbekistan is recognized as the authorized state body in the field of cybersecurity. The agency's mandate includes developing regulatory legal documents and state programs related to cybersecurity, monitoring the implementation of cybersecurity legislation, conducting operational-search activities, pre-investigation checks, investigative actions regarding cybersecurity incidents, and other related tasks.

Today, the modern digital technologies being introduced in our country are opening many opportunities and conveniences for our citizens. At the same time, the issue of ensuring the security of newly created digital technologies and information systems remains critical. In the fight against the rapidly evolving cybercrime landscape, the following key measures must be taken to ensure cybersecurity and protect against such threats:

Educating citizens on the basics of information security;

Regularly testing software for vulnerabilities;

Using reliable antivirus software;

Utilizing only officially licensed and certified software;

Applying multi-factor authentication to protect information systems;

Following strong password creation policies when using passwords;

Regularly encrypting data on computer hard drives, and other similar measures.

Conclusion: In today's digital era, the rapid advancement of information technologies has brought not only convenience but also serious threats. As global reliance on the internet and digital infrastructures increases, cybersecurity has become a matter of critical importance on an international scale. Cybercrimes now target not only large corporations and government systems but also ordinary users. Therefore, cybersecurity should be considered a priority area for every individual and institution. Uzbekistan has been taking significant steps toward building a strong legal and institutional framework for cybersecurity. The enactment of the Law "On Cybersecurity," the designation of a specialized state body, and public awareness

campaigns all contribute to the protection of the country’s digital space. However, legal and technical measures alone are not enough. Users themselves must have sufficient knowledge and awareness regarding information security. Creating strong passwords, using official and licensed software, recognizing phishing attempts and malware – these are essential everyday practices for ordinary users. To conclude, cybersecurity must no longer be viewed as the sole responsibility of IT professionals. It is a daily necessity and a personal responsibility for every citizen in an increasingly digital society. Sustainable digital development can only be achieved in a secure digital environment. Cybersecurity is not only a tool of protection – it is a safeguard for our future.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 21-iyundagi “Axborot xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, lex.uz
3. “Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik asoslari” – G.O. Alimov, T.S. Tursunov. Toshkent, 2021.
4. Andress, Jason. Foundations of Information Security. Syngress, 2020.
5. Stallings, William. Network Security Essentials: Applications and Standards. Pearson Education, 2021.
6. Kaspersky Lab. “Cybersecurity Threats and Trends Report.” www.kaspersky.com
7. Symantec Corporation. “Internet Security Threat Report.” 2023. www.broadcom.com/company/newsroom/press-releases
8. OWASP Foundation. Top 10 Web Application Security Risks (2023). <https://owasp.org>
9. Cybersecurity & Infrastructure Security Agency (CISA). <https://www.cisa.gov>
10. UZCERT – O‘zbekiston Kiberxavfsizlik markazi rasmiy sayti. <https://uzcert.uz>
11. Equifax Breach Report. U.S. Federal Trade Commission (FTC). <https://www.ftc.gov>

YURIDIK JARAYONLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH

USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN LEGAL PROCESSES

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ЮРИДИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan. Maqolada yuridik tizimda raqamli transformatsiya jarayonlari, elektron xizmatlar, sud va huquq-tartibot organlarida axborot texnologiyalarining joriy etilishi, elektron ish yuritish va elektron hujjat aylanishi tizimlari kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, elektron ish yuritishning afzalliklari va uning huquqiy kafolatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqot yuridik sohada raqamli islohotlarni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy asos yaratishga xizmat qiladi hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida samarali yechimlar taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *yuridik jarayon, axborot texnologiyalari, elektron xizmatlar, raqamli sud, elektron hujjat, raqamli islohot, elektron ish yuritish.*

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li

1st-year student of the Jurisprudence program, Fergana State University
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Annotation: *This article thoroughly examines the theoretical and practical aspects of using information technologies in legal processes. It covers digital transformation of the legal system, implementation of electronic services, use of IT in courts and law enforcement, electronic document management, and electronic proceedings. The article highlights advantages, legal guarantees, and challenges of electronic judiciary, proposing effective solutions based on international experience. This work provides a theoretical and practical foundation for digital reforms in the legal field.*

Keywords: *legal process, information technologies, electronic services, digital court, electronic document, digital reforms, electronic proceedings.*

Хабибуллаев Мухаммадражаб Обиджон угли

*Студент 1-го курса направления «Юриспруденция» Ферганский
государственный университет*
muhammadrajabh18@gmail.com +998916537883

Аннотация: В статье подробно рассмотрены теоретические и практические аспекты использования информационных технологий в юридических процессах. Описаны цифровая трансформация правовой системы, внедрение электронных услуг, применение ИТ в судах и правоохранительных органах, электронный документооборот и электронное делопроизводство. Особое внимание уделено преимуществам, правовым гарантиям и существующим проблемам электронного судопроизводства, а также предложены эффективные решения на основе анализа зарубежного опыта. Работа служит теоретической и практической основой для цифровых реформ в юриспруденции.

Ключевые слова: юридический процесс, информационные технологии, реформы, электронное делопроизводство.

KIRISH

Yigirmanchi asr oxiri va yigirma birinchi asrning birinchi choragida insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Bu o‘zgarishlardan yuridik tizim ham mustasno bo‘lib qolgani yo‘q. Bugungi kunga kelib, yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamon talabi bo‘lib, huquqiy tizimni raqamlashtirish orqali adolatli, shaffof va tezkor yondashuvga erishish maqsad qilinmoqda. Mazkur yo‘nalish huquqiy davlat tamoyillarining amalda ro‘yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarining yuridik tizimga kirib kelishi bu sohadagi jarayonlarning soddalashtirilishi, inson omiliga bog‘liq xatoliklarning kamaytirilishi, raqobatbardosh yuridik xizmatlarning shakllanishi hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga keng yo‘l ochmoqda. Hozirgi zamonda odatiy qog‘oz shaklidagi ish yurituvlar asta-sekin o‘rnini elektron hujjatlar aylanishi tizimiga bo‘shatayotgani kuzatilmog‘da. Bu esa o‘z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, yuridik firmalar hamda notarial idoralarning ish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yuridik tizim va axborot texnologiyalarining integratsiyasi ikki asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Birinchisi – tashkiliy integratsiya bo‘lib, bunda AT yuridik idoralarning ish yurituv jarayonlariga joriy qilinadi. Ikkinchisi esa funktsional integratsiyadir, ya’ni fuqarolar bilan davlat yuridik tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar raqamli vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, onlayn murojaat yuborish, elektron tartibda yuridik maslahat olish, shikoyat va arizalarni elektron shaklda topshirish, sud majlislarida videokonferensaloqa orqali ishtirok etish kabilar bunga yaqqol misoldir.

Yuridik tizimda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi asosiy ustunliklarni taqdim etadi. Avvalo, jarayonlarning tezkorligi ta’minlanadi. Raqamli hujjatlar almashinuvi, elektron imzo bilan tasdiqlash kabi imkoniyatlar orqali turli sud, tergov va yuridik maslahat ishlarining kechikmasdan hal etilishi kafolatlanadi. **Elektron raqamli imzo** - bu elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan

imzodir⁴⁰. Ikkinchidan, shaffoflik va hisobdorlik darajasi oshadi. Har bir yurituv bosqichi elektron tizimda qayd etilgani sababli noqonuniy aralashuv, korrupsiyaviy xatti-harakatlar va boshqa noqonuniy harakatlarning oldi olinadi. Uchinchidan, yuridik axborotga erkin kirish imkoniyati paydo bo'ladi. Onlayn qonunchilik bazalari, sud qarorlari to'plamlari va yuridik maqolalar ommaga ochiq bo'lganligi sababli fuqarolar o'z huquqlarini yaxshiroq anglay boshlaydilar. To'rtinchidan esa, yuridik xizmatlar aholining barcha qatlamlari uchun ommaboplashadi. Endilikda huquqiy maslahat olish uchun uzoq kutishga, hujjat topshirish uchun uzoq navbatlarda turishga hojat qolmaydi – bularning barchasi raqamli shaklda amalga oshiriladi.⁴¹

Yuridik sohada axborot texnologiyalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun kuchli elektron infratuzilma zarur. Bunday infratuzilmaning asosiy elementlari sifatida elektron hujjat aylanish tizimlari, raqamli imzolar, autentifikatsiya vositalari, yuridik xizmatlarni ko'rsatadigan onlayn platformalar, yagona elektron sud portallari va huquqiy ma'lumotlar bazalarini tilga olish mumkin. Masalan, O'zbekistonda E-SUD.UZ, Lex.uz, Pravo.gov.uz kabi platformalar faoliyat yuritmoqda. Ular fuqarolar va yuridik xodimlarga qonunchilik matnlariga, sud qarorlariga, normativ-huquqiy hujjatlarga tezkor va aniq kirish imkonini yaratmoqda.

Yuridik texnologiyalarning dunyo tajribasiga nazar tashlansa, ayrim mamlakatlarda bu boradagi ilg'or yondashuvlar alohida e'tiborga loyiqdir. Masalan, Estoniya raqamli davlat modelini muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlardan biri bo'lib, u yerda deyarli barcha yuridik xizmatlar, shu jumladan sud ishlarining yuritilishi ham elektron shaklda amalga oshiriladi. AQShda esa PACER (Public Access to Court Electronic Records) platformasi orqali fuqarolar sud ishlariga oid ma'lumotlarni mustaqil tarzda olishi mumkin. Janubiy Koreyada esa sun'iy intellekt yordamida sud qarorlarining dastlabki tahlili amalga oshirilmoqda. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham ibrat bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, yuridik texnologiyalarni rivojlantirishda normativ-huquqiy baza muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda bu borada "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida yuridik xizmatlarning raqamlashtirilishini ko'zda tutmoqda.⁴² Shuningdek, Elektron huquqiy xizmatlar to'g'risida qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi fuqarolarga ko'rsatilayotgan yuridik xizmatlarni raqamli formatga o'tkazishdir. Adliya vazirligi va boshqa vakolatli organlar tomonidan yaratilgan yagona portallar orqali shikoyatlar yuborish, davlat xizmatlaridan foydalanish, yuridik maslahatlar olish imkoniyati paydo bo'ldi. Ammo bu boradagi ijobiy holatlar bilan birga, ayrim xavf va tahdidlar ham mavjud. Ulardan eng muhimi – ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash masalasidir. Yuridik sohadagi ko'plab hujjatlar sir tutilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Agar axborot xavfsizligi yetarli darajada ta'minlanmasa, bu fuqarolarning huquq va manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, kiberxavfsizlik tahdidlari mavjud bo'lib, ular elektron hujjat tizimlariga hujumlar orqali hujjatlarni o'zgartirish, o'g'irlash yoki yo'q qilish xavfini yuzaga keltiradi. Yana bir muammo esa raqamli tenglik masalasidir – ya'ni barcha fuqarolar birdek raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Internet infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan

⁴⁰ "Elektron raqamli imzo to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni

⁴¹ "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

⁴² O'zbekiston respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi"

hududlarda, axborot texnologiyalariga ega bo'lmagan aholida yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi ehtimoli mavjud. Shunday qilib, yuridik jarayonlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu nafaqat sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki advokatlar, notariuslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar uchun ham ulkan yengilliklarni yaratmoqda.⁴³ Lekin raqamlashtirish jarayoni faqat texnik infratuzilmani yaratish bilangina cheklanmasligi, balki u qonunchilik, axloqiy mezonlar va axborot xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi yuridik tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanib borayotganligi, davlat rahbari tomonidan bu boradagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi kelajakda elektron yuridik xizmatlar sohasida yangi bosqichga chiqishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish – eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Zamonaviy yuridik tizimda axborot texnologiyalari tobora kengroq qo'llanilayotgan bir paytda, ularning aniq va izchil yo'nalishlarda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining yuridik amaliyotdagi roli faqatgina elektron hujjatlar bilan ishlashdan iborat bo'lmay, balki butun tizimni tubdan o'zgartirishga qaratilgan keng qamrovli mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu esa yuridik faoliyatning takomillashishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, yuridik amaliyotda qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarini bir nechta asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin: elektron sud tizimi, yuridik xizmatlar portallari, huquqiy axborot tizimlari, sun'iy intellekt va algoritmik yondashuvlar, raqamli notarial faoliyat, kriptografik texnologiyalar va masofaviy huquqiy xizmatlar.

Elektron sud tizimi zamonaviy yuridik amaliyotning eng asosiy poydevorlaridan biridir. Bu tizim fuqarolarga sudga murojaat qilish, hujjatlarni topshirish, da'vo arizasini rasmiylashtirish, sud jarayonlarini kuzatib borish, sud qarorlarini olish imkonini elektron shaklda beradi.⁴⁴ Masalan, O'zbekistonda joriy etilgan "E-SUD" tizimi orqali minglab fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini himoya qilishda zamonaviy vositalardan foydalanishmoqda. Bu tizim sud idoralarining ish yukini kamaytirib, yurituv jarayonlarini soddalashtirmoqda. Elektron sud tizimi orqali tomonlar o'z murojaatlarini istalgan joydan yuborishlari mumkin, bu esa transport va vaqt xarajatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, sud qarorlarini arxivlash, sud majlislarining yozuvlarini saqlash kabi texnik imkoniyatlar adolatning ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish bu – yuridik xizmatlar portallaridir. Bunday portallar orqali fuqarolar yuridik maslahatlar olishlari, shikoyat va murojaatlarini yuborishlari, davlat xizmatlari ro'yxatidan foydalanishlari mumkin. "My.gov.uz" yoki "Hujjat.uz" singari

⁴³ Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi", T.: "O'zbekiston", 2022.

⁴⁴ "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

platformalar nafaqat ariza topshirish, balki xizmatlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish, huquqiy hujjatlarni yuklab olish kabi qulayliklarni taqdim etadi. Ayniqsa, shaxsiy kabinetlar orqali foydalanuvchilar o‘zlarining huquqiy holati, murojaatlarining ko‘rib chiqilishi jarayoni va natijasi bilan tanishish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa davlat idoralari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini kuchaytiradi.

Huquqiy axborot tizimlari yuridik amaliyotning tayanch infratuzilmasidir. Bu tizimlar qonunchilik hujjatlari, sud qarorlari, normativ hujjatlar to‘plamlari, sharhlar, ilmiy maqolalar va yuridik yangiliklarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Lex.uz portali O‘zbekiston qonunchiligining rasmiy manbai sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu kabi tizimlar nafaqat yuristlar, balki oddiy fuqarolar uchun ham qonunlarga kirish imkonini taqdim etib, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda muhim vositaga aylanmoqda. Shuningdek, interaktiv huquqiy yordam xizmati orqali fuqarolar o‘zlariga tegishli qonunlar bo‘yicha savollariga tezkor javob olishlari mumkin.

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining yuridik amaliyotga kirib kelishi ham alohida e‘tiborga loyiq. Bunday texnologiyalar yuridik hujjatlarni tahlil qilish, sud qarorlarini prognozlash, shartnomalarni avtomatik tuzish, huquqiy xatolarni aniqlash kabi funksiyalarni bajarishga qodir.⁴⁵ Misol uchun, AQShda ishlab chiqilgan Ross Intelligence dasturi yuridik tadqiqotlarni tez va aniq bajarib beradi. IBM Watson esa yuridik maslahatlar berish imkoniyatiga ega sun‘iy intellekt tizimidir. Bu kabi texnologiyalar nafaqat yuristlar ishini yengillashtiradi, balki inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va xizmatlar sifatini oshiradi.

Raqamli notarial faoliyat ham hozirgi yuridik texnologiyalar orasida muhim o‘rin tutadi. Notariuslar tomonidan bajariladigan harakatlarning elektron shaklga o‘tkazilishi hujjatlarning haqiqiylikini, ishonchliligini va xavfsizligini ta‘minlaydi. Masalan, elektron raqamli imzo yordamida tasdiqlangan vasiyatnoma, ishonchnoma yoki boshqa notarial hujjatlarni masofadan turib rasmiylashtirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat notariuslar uchun, balki aholi uchun ham qulayliklar yaratmoqda. O‘zbekiston notarial tizimida “Yagona elektron notariat” tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Axborot texnologiyalaridan yuridik amaliyotda foydalanishda kriptografik texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptografiya – axborotni kodlash orqali uni maxfiy saqlash, faqat mo‘ljallangan foydalanuvchiga yetkazish imkonini beradi.⁴⁶ Elektron hujjatlarni tasdiqlashda raqamli imzo, elektron identifikatsiya, xavfsiz aloqa kanallari orqali yuborish va qabul qilish imkoniyatlari bu texnologiyaning qo‘llanish doirasiga kiradi. Ayniqsa, sud jarayonlarida, huquqiy shartnomalarni yuborish va saqlashda, advokatlik sirlarini muhofaza qilishda ushbu texnologiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yana bir muhim yo‘nalish – masofaviy yuridik xizmatlar (legal remote services) bo‘lib, ular pandemiya davrida alohida ahamiyat kasb etdi. Endilikda fuqarolar advokat bilan masofadan bog‘lanib maslahat olishlari, onlayn sud majlislarida ishtirok etishlari, yuridik hujjatlarni elektron shaklda yuborishlari mumkin. Bu yondashuv yuridik xizmatlarga bo‘lgan talabni qamrab olishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

⁴⁵ S.K.Ganiyev, A.A. Ganiyev, Z.T. Xudoyqulov Kiberxavfsizlik asoslari, O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020

⁴⁶ Shermatova Xilola Mirzayevna. Ta‘limda axborot texnologiyalari. Darslik 2-qism, Farg‘ona-2023

O‘zbekiston hududlaridagi olis aholi punktlarida yashovchi fuqarolar uchun ham yuridik xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati ta‘minlanmoqda.

Shuningdek, yuridik firmalar va advokatlik byurolari tomonidan o‘z faoliyatida maxsus yuridik dasturlardan foydalanish holatlari tobora ortib bormoqda. Masalan, yuridik hujjatlar bazasini yuritish, mijozlar bilan ishlash, ish yuritish muddatlarini nazorat qilish, ishni avtomatlashtirish kabi dasturlar samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Bu orqali yuridik tashkilotlar o‘z mijozlariga tez, ishonchli va raqobatbardosh xizmatlar ko‘rsatishga erishmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuridik amaliyotda axborot texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlari ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ular yuridik xizmatlar tizimini kompleks tarzda takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Elektron sud, yuridik portallar, huquqiy axborot tizimlari, sun‘iy intellekt, raqamli notariat va kriptografik texnologiyalar – bularning barchasi fuqarolarning huquqlarini yanada samarali himoya qilishga, adolatni ta‘minlashga va yuridik tizimga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishlar nafaqat texnologik yutuq, balki huquqiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ularning yanada rivojlanishi uchun davlat siyosati, yuridik hamjamiyat va fuqarolik jamiyatining uzviy hamkorligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
2. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
3. O‘zbekiston respublikasi “Taraqqiyot strategiyasi”
4. Mirziyoyev Sh. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi", T.: “O‘zbekiston”, 2022.
5. “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
6. S.K.Ganiyev, A.A. Ganiyev, Z.T. Xudoyqulov Kiberxavfsizlik asoslari, O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020
7. Shermatova Xilola Mirzayevna. Ta‘limda axborot texnologiyalari. Darslik 2-qism, Farg‘ona-2023

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI TUZISH VA OPTIMAL YECHIMINI TOPISH USULI

Raximov Abdulaxad Nematovich

(Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchisi)

Farmonov Ilhom Tursunboyevich

*(Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot"
yo'nalishi talabasi)*

Annotasiya: *Ushbu maqola qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy-matematik modelini tuzish va optimal yechimini topish usuli ko'rib chiqilgan. Bunda omillar mahsulot ishlab chiqarishiga ta'siri nazariy jihatdan tadqiq qilingan hamda ularning o'zaro ta'siri orasidagi bog'lanish modeli tuzish usuli bayon qilingan.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрен способ построения экономико-математической модели сельскохозяйственного производства и нахождения оптимального решения. В нем теоретически исследовано влияние факторов на производство продукции, а также излагается метод построения модели взаимосвязи между их взаимодействием.*

Annotation: *This article discusses the method of constructing an economic and mathematical model of agricultural production and finding the optimal solution. It theoretically examines the influence of factors on the production of products, and also outlines a method for constructing a model of the relationship between their interaction.*

Kalit so'zlar: *model, iqtisodiy-matematik model, tasodifiy og'ishlar ta'sir etuvchi omil, ishlab chiqarish, optimal yechim, ishlab chiqarish hajmi.*

Keywords: *model, economic-mathematical model, random deviations influencing factor, production, optimal solution, volume of production.*

Ключевые слова: *модель, экономико-математическая модель, фактор, влияющий на случайные отклонения, производство, оптимальное решение, объем производства.*

1. KIRISH

Prezidentning 07.06.2022 yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi [qarori](#) qabul qilindi. Qaror Prezidentning 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi [PF-5853](#)-son hamda 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi [PF-60](#)-son Farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy abstraksiya, kuzatish, qiyoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish.

3. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jalik mahsulotlari, xususan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish haqida mahalliy va chet el olimlari tomonidan ilmiy-tekshirish va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xorij olimlari Svi Grillixes, I.Tinbergen, V.N. Afanasev, S.A. Ayvazyan, A.M.Gataulin, N.M.Goreyeva, T.A.Dubrova, L.N.Demidova, O.P.Krastin, N.Sh.Kremer, N.P.Tixomirov, I.I.Yeliseyeva, Ye.M.Chetirkin va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat ega. Respublikamizda optimallashtirish masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishgan olimlaridan S.S.G'ulomov, B.Yu.Xodiyev, B.A.Begalov, B.Berkinov, T.Sh.Shodiyev, Yo.Abdullayev, N.B.Ashurova, S.K.Salayev, N.Q. Murodova, I.S.Abdullayev va boshqalar sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda prognozlashtirish masalalari bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

4. MATERIALLAR VA USULLAR

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali boshqarish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va yuqori iqtisodiy natijalarga erishishda iqtisodiy-matematik modellashtirish (IMM) usullari muhim ahamiyat kasb etadi. IMM xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining turli jihatlarini miqdoriy ifodalash, tahlil qilish, prognozlash va optimallashtirish imkonini beruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida IMMning asosiy maqsadi – cheklangan resurslar (yer, suv, mehnat, kapital, moddiy-texnika vositalari) sharoitida ishlab chiqarishning optimal tarkibi va hajmini aniqlash orqali xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini maksimallashtirish (masalan, foydani ko'paytirish, tannarxni kamaytirish) yoki belgilangan ishlab chiqarish hajmini minimal xarajatlar bilan ta'minlashdan iborat.

IMM yordamida quyidagi asosiy vazifalar hal etilishi mumkin:

- Ekin maydonlari tarkibini va chorva mollari bosh sonini optimallashtirish;
- Mavjud resurslarni (yer, suv, ozuqa, o'g'it va h.k.) turli ishlab chiqarish yo'nalishlari o'rtasida samarali taqsimlash;
- Ishlab chiqarish texnologiyalarining eng maqbul variantlarini tanlash;
- Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash;
- Bozor konyunkturasi o'zgarishlariga moslashuvchan ishlab chiqarish rejalarini tuzish;
- Turli boshqaruv qarorlarining kutilayotgan oqibatlarini baholash.

Iqtisodiy-matematik modelni tuzish bosqichlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy-matematik modelini tuzish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammoning qo'yilishi va maqsadni aniqlash: Bu bosqichda optimallashtirish vazifasining aniq maqsadi belgilanadi (masalan, maksimal foyda olish, minimal tannarxga erishish, ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini maksimallashtirish). Shuningdek, model yordamida javob topilishi kerak bo'lgan savollar va tadqiqot obyekti (fermer xo'jaligi, agrofirma, tuman yoki viloyat agrar sektori) aniqlashtiriladi.

2. Model o‘zgaruvchilarini tanlash: Model o‘zgaruvchilari – bu optimallashtirish jarayonida qiymati aniqlanishi kerak bo‘lgan nomlarni anglatiradi. Qishloq xo‘jaligi modellarida bular odatda turli ekinlar ekiladigan maydonlar (X_j , gektar), chorva mollari turlari bo‘yicha bosh soni (Y_k , bosh), qo‘llaniladigan texnologiyalar intensivligi va boshqalar bo‘lishi mumkin.

3. Maqsad funksiyasini shakllantirish: Maqsad funksiyasi modelning optimallashtirish mezonini matematik ifodalaydi. Agar maqsad foydani maksimallashtirish bo‘lsa, maqsad funksiyasi har bir mahsulot birligidan olinadigan foyda (C_j) va ishlab chiqarish hajmi (X_j) ko‘paytmalarining yig‘indisi sifatida ifodalanishi mumkin: $F(X) = \sum_{j=1}^n C_j X_j \rightarrow \max$ Bu yerda n – mahsulot (yoki faoliyat) turlari soni.

4. Cheklovlar tizimini aniqlash va matematik ifodalash: Cheklovlar model o‘zgaruvchilarining qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar sohasini belgilaydi. Ular mavjud resurslarning hajmi (yer maydoni, suv limiti, mehnat resurslari, moliyaviy mablag‘lar), agrotexnik talablar (almashlab ekish qoidalari, o‘g‘itlash me‘yorlari), bozor talabi, shartnomaviy majburiyatlar va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har bir cheklov tenglama yoki tengsizlik ko‘rinishida ifodalanadi. Masalan, yer resursi bo‘yicha cheklov quyidagicha bo‘lishi mumkin: $\sum_{j=1}^n a_{ij} X_j \leq B_i$ Bu yerda a_{ij} – j -mahsulot (ekin) birligini ishlab chiqarish uchun i -resurs (masalan, yer) sarfi normasi, B_i – i -resursning umumiy hajmi.

5. Model parametrlarini (koeffitsiyentlarini) aniqlash: Model koeffitsiyentlari (maqsad funksiyasidagi C_j lar, cheklovlardagi a_{ij} va B_i lar) real statistik ma‘lumotlar, normativ hujjatlar, ilmiy tadqiqot natijalari va ekspert baholari asosida aniqlanadi. Ularning aniqligi model natijalarining haqqoniyligiga bevosita ta‘sir qiladi. Bu bosqichda aynan statistik ma‘lumotlardan (masalan, ko‘p yillik hosildorlik, mahsulot tannarxi, resurs sarfi normativlari) keng foydalaniladi.

6. Model turini tanlash: Yuqoridagi elementlar asosida model turi tanlanadi. Qishloq xo‘jaligida ko‘pincha chiziqli dasturlash (LP – Linear Programming) modellari, shuningdek, chiziqsiz dasturlash, dinamik dasturlash, stoxastik modellashtirish va imitatsion modellashtirish usullari qo‘llaniladi. Chiziqli dasturlash modellari maqsad funksiyasi va cheklovlar tizimi chiziqli bog‘liqlikda bo‘lganda qo‘llaniladi va nisbatan sodda hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning chiziqli dasturlash modeli tuzilmasi (misol tariqasida)

Chiziqli dasturlash modeli qishloq xo‘jaligi korxonasida (masalan, fermer xo‘jaligida) ekinlar tarkibini optimallashtirish uchun keng qo‘llaniladi. Quyidagi jadvalda bunday modelning umumiy tuzilmasi va tarkibiy qismlari keltirilgan:

1.1.1-jadval

Qishloq xo‘jaligida ekinlar tarkibini optimallashtirish chiziqli dasturlash modelining tarkibiy qismlari⁴⁷

Komponent	Matematik ifoda	Izoh / Statistik manba
-----------	-----------------	------------------------

⁴⁷ Muallif tomonidan tuzilgan

Noma'lum o'zgaruvchilar X_j	j-turdagi ekinning ekiladigan maydoni (ga)	Modelning asosiy natijasi. Har bir X_j qiymati topilishi kerak.
Maqsad funksiyasi	$F(X) = \sum_{j=1}^n P_j \cdot X_j \rightarrow \max$	Umumiy sof foydani maksimallashtirish. $P_j = \text{narx} - \text{xarajatlar}$. Ma'lumotlar: statistik hisobotlar, normativlar.
Yer resursi cheklovi	$\sum_{j=1}^n X_j \leq S_{\text{umumiy}}$	Jami yer maydoni cheklovi. Manba: yer kadastri, statistik ma'lumotlar.
Maksimal maydon (ayrim ekinlar)	$X_j \leq S_{j,\max}$	Ayrim ekinlarga nisbatan maksimal maydon cheklovi. Manba: agronomik tavsiyalar.
Suv resursi cheklovi	$\sum_{j=1}^n w_j \cdot X_j \leq W_{\text{lim}}$	Sug'orish normasi asosida jami suv sarfi. Manba: suv xo'jaligi tashkilotlari, ilmiy tadqiqotlar.
Mehnat resursi cheklovi	$\sum_{j=1}^n l_{jk} \cdot X_j \leq L_k$	K davrdagi mehnat sarfi cheklovi. Manba: texnologik xaritalar, statistik mehnat normativlari.
Agrotexnik talablar	$X_1 \geq 0.2 \cdot \sum_{j=1}^n X_j$	Almashlab ekish tizimiga rioya qilish uchun ekin ulushi cheklovi. Manba: ilmiy tavsiyalar.
Bozor cheklovi / Shartnomalar	$X_j \geq Q_{j,\min}$ yoki $X_j \leq Q_{j,\max}$	Bozor talabi yoki shartnoma majburiyatlari. Manba: marketing va shartnoma ma'lumotlari.
Manfiy bo'lmaslik sharti	$X_j \geq 0$	Ekin maydoni manfiy bo'lishi mumkin emas. Modelning mantiqiy to'g'riligi uchun zarur.

Modelni tuzish va uning yechimini topish uchun zarur bo'lgan barcha koeffitsiyentlar va cheklov qiymatlari statistik ma'lumotlar, buxgalteriya hisobotlari, normativ-texnik hujjatlar, agronomik tavsiyalar va ekspert baholari asosida shakllantiriladi. Ma'lumotlarning sifati va aniqligi model natijalarining amaliy ahamiyatini belgilaydi. Samarqand viloyati yoki uning tumanlari miqyosida model tuzishda viloyat va tuman statistika boshqarmalari, qishloq xo'jaligi bo'limlari ma'lumotlari, fermer xo'jaliklarining yillik hisobotlari asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

6. XULOSA VA TAKLIFLAR

Optimal yechim topilgandan so'ng, quyidagi tahlillar amalga oshiriladi:

Natijalarning iqtisodiy tahlili: Optimal rejada qaysi ekinlar qancha maydonga ekilishi, qanday resurslar to'liq ishlatilishi (aktiv cheklovlar) va qaysilari zaxirada qolishi (passiv cheklovlar) aniqlanadi. Maqsad funksiyasining erishilgan qiymati (masalan, maksimal foyda) baholanadi.

Ikkilangan baholar (Shadow prices) tahlili: Aktiv cheklovlar (to'liq ishlatilgan resurslar) uchun hisoblangan ikkilangan baholar ushbu resurs hajmini bir birlikka oshirish maqsad funksiyasini qanchaga o'zgartirishini ko'rsatadi. Bu tanqis resurslarning qiymatini aniqlash va ularni ko'paytirish yo'llarini izlash uchun muhim axborot beradi.

Barqarorlik (sezgirlik) tahlili: Model koeffitsiyentlarining (narxlar, hosildorlik, resurs sarfi normalari) o'zgarishiga nisbatan optimal yechimning qanchalik barqaror ekanligi tekshiriladi. Bu bozor sharoitlari o'zgaruvchan bo'lganda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy-matematik modellashirish qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirish, boshqarish va optimallashtirishning zamonaviy va samarali usuli hisoblanadi. Bunday modellarni tuzish va ulardan amaliyotda foydalanish uchun yetarli darajada aniq statistik ma'lumotlar, malakali mutaxassislar va zamonaviy dasturiy ta'minot zarur. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi uchun ham bunday modellarni ishlab chiqish va joriy etish sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.B.Berkinov. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Fan va texnologiya", 2015,164 bet.
2. Shodiyev T.Sh. , Hakimov T.X. va boshqalar. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007 yil.
3. A.N. Raximov.Ekonometrikaga kirish. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. -T.: «Iqtisodiyot», 2023, 388 bet.
4. Кувайскова, Юлия Евгеньевна. Эконометрика : учебное пособие / Ю. Е. Кувайскова. - Ульяновск : УЛГТУ, 2017. - 166 с.
5. Raximov Abdulaxad Nematovich. Econometric analysis of production by german method. May.31.2022. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 153-157. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/47>
6. Qo'shboqov Abduhamid Norjigitovich, Raximov Abdulaxad Nematovich. Klaster tizimi va bozor iqtisodiyoti munosabatlari. «Интернаука»: научный журнал - № 43(219). Част 4. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. - 84 с.
7. Rahimov Sanjar Abdulahadovich. ISSUES ON ANALYSING PRODUCTION PROCESSES BY USING PRACTICAL ECONOMETRIC MODEL. International journal of trends in commerce and economics ISSN: 2349-543X VOL. 11. Issue 1 <http://academicjournalonline.org/index.php/ijtce/issue/archive>. 2021 y.
8. Akbarov Husan Uzbekhonovich. FACTORS AFFECTING THE PRODUCTIVITY OF FRUIT GROWING ON FARMS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2 Issue 08 Pages 50-56 2021 y.

9. <https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>. Samarqand viloyati statistika bosqarmasi ma'lumotlari (of Uzbekistan. 2023 year. Data of the statistical Directorate of the Samarkand region).

10. Raximov Abdulaxad Nematovich. Iqtisodiy masalalarni yechishda ekonometrik tahlil va Darbin-Uotson mezonini. **SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS: INTERNATIONAL AND NATIONAL CONCEPTS** International scientific - practical conference. Page 399-405. 19-20 May, 2023 | Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz.

11. Raximov Abdulaxad Nematovich. **Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning ekonometrik tahlili**. *He Journal of Economics, Finance and Innovation*, 1(3), 2023. Page 18-23. Retrieved from <http://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/25>. Published 2023-06-12. <http://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/issue/view/4>

12. Raximov Abdulaxad Nematovich. **Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni Koyk modeli bilan tahlil qilish**. **SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS: INTERNATIONAL AND NATIONAL CONCEPTS** International scientific - practical conference. Page 399-405. 19-20 May, 2023 | Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz.

“O'ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI”

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xolmurodova Sevinch Jumanazarovna

Ilmiy Rahbar: Yuridik fakulteti o'qituvchisi Jinoyat huquqi

va fuqarolik protsessi kafedrasida dotsenti

Mallayev Normamat Ramazonovich

Anotatsiya: *Ushbu maqolada elektron hukumatning paydo bo'lishi, uning rivojlanishi va jamiyat hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri. Shuningdek, Qozog'iston va Singapur davlatlarining elektron hukumatni rivojlantirish va fuqarolar hayotiga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirgan tajriba tahlili, hamda, O'zbekistonning elektron hukumatni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirayotgan islohotlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Elektron hukumat, tibbiy daftarcha, davlat xizmatlari, strategiya, Qozog'iston, Singapur, O'zbekiston.*

Elektron hukumat - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimini ifodalaydi⁴⁸. Elektron hukumat davlatga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. Davlat organlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
2. Elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi;
3. Aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilini kamaytirish;
4. Xavfsizlik, ya'ni shaxsiy ma'lumotlarning himoya qilinishi;
5. Doimiylik, ya'ni elektron xizmatlar 24/7 ishlaydi;
6. Tejamkorlik, xodimlar sonini va qog'ozbozlikni kamaytirish orqali mablag' tejash.

Bu tushuncha, 1990-yillarning boshida paydo bo'lganligiga qaramay amaliyotga so'nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Bunga sabab, albatta, zamonaviy texnologiyalarning hozirda gurkirab rivojlanib ketayotganligini ko'rsatishimiz mumkin. Elektron hukumatning O'zbekistonda rivojlanishi 2017-yildan keyin ancha jadallashdi. Hozirda bu tizim O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirilib kelinmoqda⁴⁹. O'zbekiston 2024-yilga ko'ra, dunyo mamlakatlari reytingida 63-o'rinni band qilgan. Bu 2022-yildagi 69-o'rin bilan solishtirganda, mamlakatning yuqoriga ko'tarilishini ko'rsatadi⁵⁰. Ushbu yuksalish O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga asoslangan

⁴⁸ <https://lex.uz/mact/-2833860>

⁴⁹ <https://lex.uz/docs/-2237916?ONDATE=18.10.2017%2000>

⁵⁰ <https://publicadministration.um.org/egovkb/en-us/Data-Center>

transformatsiya harakatlarining muvaffaqiyatini aks ettiradi. Shuningdek, O'zbekiston ilk bor "Juda baland rivojlanish darajasi" (Very High EDGI) guruhiga kirib, elektron hukumat sohasida katta yutuqni qo'lga kiritdi. Har yili elektron hukumatini rivojlantirish indeksi (EDGI) aynan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning elektron hukumat rivojlanish holatini taqdim etadi. EDGI buni o'rganishda quyidagi elektron hukumatning uchta muhim o'lchovini inobatga oladi: fuqarolarga onlayn xizmatlarni taqdim etish, telekommunikatsiya aloqasi va inson salohiyati. Daniya, Estoniya va Singapur davlatlari bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchi o'rinlarni band qilgan. O'zbekiston O'rta Osiyo mamlakatlari orasida Qozog'iston (24-o'rin)dan keyin 2-eng yaxshi natijani ko'rsatib turibdi⁵¹. Qozog'istonda elektron hukumat tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishiga quyidagi asosiy faktorlar sabab bo'lgan: 1) Hukumat raqamli infratuzilmani rivojlanishiga katta sarmoya kiritdi. 2) Qozog'iston aholisi uchun elektron davlat xizmatlarini amalga oshiradigan "egov.kz" kabi onlayn platformani yaratdi. Bu platformalar orqali fuqarolar ko'plab davlat xizmatlariga, jumladan, biznesni ro'yxatdan o'tkazish, ijtimoiy yordam olish va sog'liqni saqlash xizmatlariga oson kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. 3) Davlat boshqaruviga ham raqamli texnologiyalarni joriy etdi. Masalan, elektron imzolar, elektron ovoz berish tizimlari va davlat xizmatlarining raqamli shakllari kiritildi, bu esa davlat xizmatlarini samarali va shaffof qilishga yordam beradi⁵².

Bu borada O'zbekistonda ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, "my.gov.uz" yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yaratildi. Unda bugungi kunda aholiga 347 turdagi onlayn xizmatlar ko'rsatilmoqda va foydalanuvchilar soni 3 milliondan oshgan⁵³. Ammo bu Qozog'istondagi "egov.kz" portali singari amalga tez tatbiq etilib ketmayapti. Ikkinchidan, Qozog'iston raqamli davlat xizmatlarini amalga oshirishda xususiy sektor bilan ham hamkorlik olib boradi. O'zbekiston ham davlat raqamli xizmatlarini rivojlantirish uchun mablag' ajratayotgan bo'lsada, 2024-yilgi davlat budjeti bo'yicha O'zbekistonda raqamli infratuzilmaga ajratilgan mablag'lar hali o'rta darajada ekanligi aytilgan. Uchinchidan, Qozog'iston sun'iy intellekt va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarni davlat xizmatlariga tatbiq etishda faol qatnashmoqda. Misol uchun, Qozog'istonda elektron hukumat tizimlari blokcheyn texnologiyasidan foydalanmoqda, bu esa xavfsizlik va shaffoflikni oshirishga yordam beradi. O'zbekistonda esa raqamli texnologiyalarni joriy etishda sun'iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan xizmatlardan foydalanish hali to'liq rivojlanmagan.

Bundan tashqari, fuqarolarning ishonchi va ularning faol ishtiroki elektron hukumatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, Qozog'iston Open Data Portal (data.gov.uz) mavjud bo'lsa-da, fuqarolarning bu tizimdan foydalanish darajasipast. Shu sababli, elektron hukumatni amalda ommalashtirish va undan foydalanishga fuqarolarni jalb qilish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yil 1-apreldan Toshkent shahrida, 2022-yil 1-iyuldan esa butun respublika hududida tibbiyot muassasalari tomonidan o'lim haqida tibbiy guvohnoma berish tartibi bekor qilinib, faqat elektron tizim orqali o'lim haqida ma'lumotnoma shakllantirish tartibi joriy etildi hamda o'lim holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinganligi haqida tibbiyot muassasalari tomonidan

⁵¹ <https://publicadministration.um.org/egovkb/en-us/Data-Center>

⁵² <https://egov.kz/cms/information/about/help-elektronne-pravitelstvo>

⁵³ https://gov.uz/oz/digital/activity_page/e_government

berilgan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma'lumotnoma o'lim haqidagi gerbli guvohnomaga tenglashtiriladi hamda davlat organlari va tashkilotlar tomonidan qabul qilishni rad etish qat'iyani taqiqlanadi⁵⁴.

Shuningdek hozirda, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda elektron hukumatni rivoji uchun har qanday sohada raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Tibbiyot sohasini oladigan bo'lsak, dunyoda juda tez rivojlanayotgan Singapur davlati aynan sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish bo'yicha muvaffaqiyatli tajriba yarata olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ularning National Electronic Health Record (NEHR) tizimi aynan bemorlarning tibbiy yozuvlarini (shu jumladan, tibbiy daftarchalarini) elektron ko'rinishga o'tkazishga qaratilgan⁵⁵. Aynan tibbiy daftarchalar bilan bog'liq ishlar hali hamon O'zbekistonda qog'oz shaklida olib borilmoqda. Shu sababli Singapurning bu borada qilgan tajribasini tahlil qilamiz. Davlat yagona elektron tibbiy daftarcha yaratib, unda tibbiy tarix ya'ni davolanish jarayoni, kasalliklari, emlash tarixi va shu kabi ma'lumotlarni unga kiritadi. Bemorning barcha yozuvlari davlat va xususiy tibbiy tashkilotlar uchun ochiq bo'lib, ularga istalgan tibbiy muassasa shifokori real vaqt rejimida kirishi mumkin va albatta, maxfiylik choralari ham ko'rildi. Bu o'zgarish ham shifokorlarga, ham bemorlarga qulaylik yaratib berdi. Jumladan, shifokorlar bemorning sog'liq tarixini ko'rish uchun qog'oz daftarchalarni izlashga ehtiyoji qolmadi, bu davolash va diagnostika jarayonida aniqlikni oshirdi. Bemorlar esa o'zining tibbiy tarixini elektron shaklda ko'rib borishi va nazorat qilishi mumkin, emlash va tekshiruvlar haqida eslatmalar keladi va eng asosiysi endilikda tibbiy daftarchalarni yo'qotib qo'yish xavfi yo'qoldi. Bu elektron tizim bilan ishlash uchun shifokor va tibbiyot xodimlarini maxsus o'quv dasturlari orqali tayyorlanishini talab qiladi. Singapurda bu jarayon tizimi joriy qilinishidan oldin yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, elektron tibbiy daftarchalardan foydalanishni o'rgatish uchun maxsus ma'lumot kompaniyalari tashkil etdi. Ular fuqarolarga bu tizimni qulayliklari va afzalliklarini tushuntirishgan. Bu islohot aholining yangi tizimni qabul qilishi ishlarini tezlashtirdi.

O'zbekiston ham ana shunday jahon davlatlari tajribalarini o'rgangan holda elektron hukumat tizimini yangi cho'qqiga olib chiqa oladi. Bu uchun quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda: Xususan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida aynan elektron tibbiy daftarchalarni joriy etish uchun dastlabki qadamlar tashlangan edi, lekin to'raligicha amalga oshmay qoldi⁵⁶. Hozirgi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi ham sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni o'z ichiga oladi va davlat xizmatlarini tezkor, ochiq va qulay bo'lishini ta'minlash ko'zda tutadi. Unda aynan tibbiy daftarchalarni elektronlashtirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash va aholi bilan faol ishlash zarur⁵⁷. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi davlat xizmatlarini onlayn platformalar orqali taqdim etish, fuqarolar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish, korrupsiyani oldini olish va davlat resurslarini yanada samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston -

⁵⁴ https://gov.uz/oz/digital/activity_page/e_government

⁵⁵ <https://www.smartnation.gov.sg/initiatives/digital-government-services/>

⁵⁶ <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=uz>

⁵⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2030” strategiyasida joriy qilingan elektron tizimlar va platformalar fuqarolarga tezkor va qulay xizmatlar ko’rsatishga, davlat organlariga esa ish jarayonlarini optimallashtirishga imkon bermoqda. Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi amalga oshirilayotgan islohotlardan andoza olish maqsadga muvofiq bo’ladi. Xususan, Qozog’iston va Singapurning elektron hukumat tizimini rivojlantirish tajribalari O’zbekiston uchun bir qancha foydali saboqlarni taqdim etadi. Har ikki davlat ham raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat xizmatlarini samarali va shaffof qilish, fuqarolar uchun qulayliklar yaratish, va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta yutuqlarga erishgan. Masalan, Qozog’iston Respublikasida samarali davlat boshqaruviga raqamli texnologiyalarni kiritish, Singapur mamlakatida esa sog’liqni saqlash ma’lumotlar tizimini namuna sifatida olishimiz mumkin. Chunki, elektron imzo va ovoz berish tizimlari joriy etilishi samarali boshqaruvni ta’minlashga yordam beradi, fuqarolarga sog’liq ma’lumotlariga onlayn kirish imkonini va sog’liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu kabi ishlar kelajakda mamlakatimizda elektron hukumat tizimining ijobiy tomonlama yuksalishiga va jahon reytingida yuqori pog’onalarni egallashga ko’maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda “Elektron hukumat to’g’risida”gi O’RQ-395-son Qonuni;
2. <https://Lex.uz/>
3. <https://my.go.uz/>
4. Publicadministration.un.org
5. <https://gov.kz/>
6. <https://egov.kz/>
7. Strategy.uz
8. <https://smartnation.gov/>

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA KRK VA KRS SEMINAR MASHG'ULOTLARINING O'RNI

Abdullayeva Yoqut Erkinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari pedagog kadrlarining kasbiy salohiyatini oshirishda KRK (Kasbiy rivojlanish kurslari) va KRS (Kasbiy rivojlanish seminar mashg'ulotlari) ning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Maqolada KRK va KRS faoliyatining mazmun-mohiyati, ularning o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli, ilg'or tajribalar almashinuvi, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va pedagogik yangiliklarni joriy etishdagi samarasi yoritilgan. Tadqiqot davomida maktab o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan so'rovlar, kuzatuvlar va tahlillar asosida seminar va kurslarning kasbiy o'sishga ta'siri o'rganildi. Maqola yakunida ta'lim sifatini oshirish uchun KRK va KRS mashg'ulotlarini tizimli va samarali tashkil etishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy salohiyat, umumta'lim maktabi, o'qituvchi, KRK, KRS, seminar mashg'ulotlari, kasbiy rivojlanish, uzluksiz ta'lim, pedagogik kompetensiya, metodik tajriba, ta'lim sifati.*

Annotation: *This article discusses the effectiveness of using didactic games in the process of developing mathematical thinking and logical connections in primary school students. The study analyzes various game methods that attract students' attention, encourage them to think actively, and help them understand the topic more deeply. The main goal of games is to strengthen mathematical concepts, develop logical thinking, and increase students' interest in the lesson. The article also shows the advantages of a game approach using the example of practical exercises designed to fit the lesson process.*

Key words: *Primary education, mathematics, logical connections, didactic games, game method, development of thinking, learning process, creative thinking.*

Аннотация: *В статье рассматривается эффективность использования дидактических игр в процессе развития математического мышления и логических связей у учащихся младших классов. В исследовании анализируются различные игровые методы, которые привлекают внимание учащихся, побуждают их активно мыслить и помогают им глубже понять тему. Основная цель – закрепить математические понятия, развить логическое мышление и повысить интерес учащихся к уроку с помощью игр. В статье также демонстрируются преимущества игрового подхода с использованием практических упражнений, разработанных с учетом особенностей учебного процесса.*

Ключевые слова: *Начальное образование, математика, логические связи, дидактические игры, игровой метод, развитие мышления, процесс обучения, творческое мышление.*

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirib borishdan iborat. Ta'lim sifatining barqarorligi bevosita o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, yangilikka ochiqligi va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishiga bog'liq. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularni metodik va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim ustuvorliklardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur yo'nalishda Kasbiy rivojlanish kurslari (KRK) va Kasbiy rivojlanish seminar mashg'ulotlari (KRS) muhim o'rin tutadi. Ular orqali pedagoglar nafaqat o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab boradilar, balki ilg'or tajribalar, innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlarni o'zlashtiradilar. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda KRK va KRS mashg'ulotlarining ahamiyati, ularni tashkil etish mexanizmlari va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi

Nazariy asoslar: O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish zamonaviy pedagogika nazariyasida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ta'limning sifatli amalga oshirilishi, avvalo, o'qituvchining kasbiy bilimlari, metodik mahorati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi va pedagogik kompetensiyasiga bog'liq. Shu bois, pedagog kadrlarni uzluksiz rivojlantirish bugungi ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Kasbiy rivojlanish kurslari (KRK) va seminar mashg'ulotlari (KRS) o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, yangi metodik yondashuvlarni o'zlashtirish va o'z faoliyatini tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar Lev Vygotskiy, Jon Dyui, D. Shatunov, A. Markova kabi pedagogik va psixologik nazariyotchilar fikrlarida asoslangan bo'lib, ular o'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishi uzluksiz va reflektiv jarayon ekanini ta'kidlaydi.

Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, pedagoglar ham o'z kasbiy rivojlanishida tashqi ta'sirlar — o'quv kurslari, seminarlar, metodik maslahatlar orqali yangiliklarni o'zlashtiradi. Jon Dyui esa ta'limda tajriba va faoliyat asosida o'rganishni muhim deb bilib, o'qituvchining mustaqil fikrlovchi va yangilikka ochiq shaxs bo'lishini ilgari suradi.

KRK va KRS orqali amalga oshiriladigan o'quv mashg'ulotlari ta'limiy ehtiyojlarni aniqlash, zamonaviy metodlarni o'zlashtirish, fanlararo yondashuvlarni joriy qilish va sinfdagi o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan. Bularning barchasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantiradi: Metodik kompetensiya – darsni loyihalash, turli metodlardan foydalanish; Texnologik kompetensiya – raqamli vositalar va innovatsion usullarni qo'llash; Reflektiv kompetensiya – o'z faoliyatini tahlil qilish va doimiy o'zgarishga tayyor bo'lish. Shunday qilib, nazariy jihatdan asoslangan KRK va KRS mashg'ulotlari o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlaydigan asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar. Yoqubov Q. "O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar" -Muallif zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy salohiyati doimiy rivojlanishini zarurat sifatida ko'rsatadi. KRK va KRS kabi faoliyatuvchi mashg'ulotlarning nazariy asoslari va ularning o'qituvchining amaliy ko'nikmalarini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shodmonov M. "Kasbiy kompetensiyani shakllantirish

metodikasi” - Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi, uni rivojlantirish bosqichlari, shu jumladan seminar-treninglar va tajriba almashuvlari orqali mustahkamlash usullari bayon etiladi. Nizomova D. “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi” - Ushbu asarda respublikamizdagi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari, KRK va KRS mashg'ulotlarining tartibi, shakllari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Zamoniy pedagogika va psixologiya: ilmiy-nazariy to'plam (Toshkent, 2021) Bu to'plamda zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga oid nazariy qarashlar, innovatsion metodlar va psixologik yondashuvlar berilgan. Trening va interaktiv mashg'ulotlar pedagogik salohiyatni oshirish vositasi sifatida talqin etiladi. UNESCO Teaching and Learning for Sustainable Development (2005) Xalqaro darajadagi bu hujjatda o'qituvchilarning uzluksiz rivojlanishi ta'lim sifatiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Seminar-treninglar va kollegial o'rganish tizimlari o'qituvchilik mahoratini oshirishda muhim omillar sifatida ko'rsatilgan.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy salohiyatiga bo'lgan talab yanada oshib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchilarning ehtiyojlari, raqobatbardosh bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talabi o'qituvchidan doimiy yangilanish, o'z ustida ishlash va pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishni taqozo etadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda Kasbiy rivojlanish kurslari (KRK) va Kasbiy rivojlanish seminar-treninglari (KRS) muhim o'rin tutadi. “O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, xususan, trening va seminar shaklidagi mashg'ulotlar ularning metodik bilimlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi”⁵⁸



⁵⁸ Yoqubov Q. “O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar”. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – B. 45.



KRK va KRS mashg'ulotlari o'qituvchining faqat nazariy bilimini emas, balki amaliy ko'nikmalarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning chuqur va izchil bilim olishiga zamin yaratadi. Shu sababli, mazkur mavzuning o'rganilishi va ilmiy asosda yoritilishi bugungi ta'lim sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda Kasbiy rivojlanish kurslari (KKR) va Kasbiy rivojlanish seminar-treninglari (KRS) mashg'ulotlarining o'rnini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: mavjud ilmiy adabiyotlar, qonun hujjatlari, davlat dasturlari va ilg'or tajribalar o'rganildi hamda KKR va KRS mashg'ulotlarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi; maktab o'qituvchilari o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazilib, KKR va KRS mashg'ulotlarining amaliy samaradorligi va o'qituvchilar fikridagi aks-sadolari o'rganildi; □ pedagoglar, maktab ma'muriyati va metodistlar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar olib borilib, ularning kasbiy rivojlanish bo'yicha tajribalari va mulohazalari tahlil qilindi; ayrim maktablarda o'quv yili davomida o'tkazilgan KKR va KRS mashg'ulotlarining o'quvchilarning

o'zlashtirishiga va o'qituvchilarning metodik faoliyatiga ta'siri kuzatildi; olingan natijalar boshqa hududlar yoki ilg'or maktablar tajribasi bilan taqqoslanib, umumiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot metodlari kombinatsiyasi orqali mavzuga har tomonlama yondashish, nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtirishga erishildi.



Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida bir nechta umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ishtirokida so'rovnoma va suhbatlar tashkil etildi. Unda 50 nafar o'qituvchi (boshlang'ich, fan o'qituvchilari va metodistlar) jalb qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi muhim jihatlarni aniqlashga yordam berdi:

KRK va KRS mashg'ulotlarining amaliy samaradorligi – O'qituvchilarning 82 foizi KRK va KRS mashg'ulotlari orqali dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmasi shakllanganini ta'kidladi. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish, baholashning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish, differensial yondashuvni qo'llash kabi jihatlar aniq ko'rsatildi. Kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiya oshgani: O'qituvchilarning 74 foizi KRK va KRS jarayonida o'z kasbiy o'sishiga bo'lgan ishtiyoqi oshganini bildirdi.



Treninglarda tajriba almashish, kasbdoshlar bilan hamkorlikda ishlash ularni ruhlantirgan. Metodik yondashuvlar boyigan: Treninglardan so'ng dars ishlanmalar, diagnostika metodlari, baholash vositalari, darsdan keyingi tahlil usullari bo'yicha o'qituvchilarning metodik portfeli sezilarli darajada boyigan. So'rovda ishtirok etgan 26 foiz o'qituvchi esa KRK va KRS mashg'ulotlarida olgan bilimlarini amaliyotga to'liq joriy eta olmasliklarini bildirdi.



Bunga asosiy sabab sifatida dars yuklamasining ko'pligi va zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi ko'rsatildi. Tahlillarda KRK va KRS mashg'ulotlarining

samaradorligi ko'p jihatdan ularni olib boruvchi trener-murabbiylarning kasbiy saviyasiga bog'liq ekani aniqlangan. Malakali trenerlar tomonidan o'tilgan mashg'ulotlar o'qituvchilarda ijobiy taassurot qoldirgan va real amaliy o'zgarishlarga sabab bo'lgan.



Xulosa va takliflar: Tadqiqot KRK va KRS mashg'ulotlari o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynashini isbotladi.



Biroq bu mashg'ulotlarni tizimli va sifatli tashkil etish, ular natijalarini monitoring qilish va doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligi ham aniqlangan muhim natijalardan biridir. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda KRK va KRS mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: KRK va KRS mashg'ulotlarini ehtiyojga asoslangan holda tashkil etish:



Har bir o'qituvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda yo'naltirilgan mashg'ulotlar ishlab chiqilishi, ayniqsa boshlang'ich va fan o'qituvchilari uchun alohida modullar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Trener-murabbiylar salohiyatini oshirish: KRK

va KRS mashg‘ulotlarini olib boruvchi trenerlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini joriy qilish, ular uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur. Mashg‘ulotlarni interfaol va amaliy yo‘nalishda tashkil etish: Treninglar davomida nazariy ma‘lumotlardan ko‘ra, amaliy vazifalar, rolli o‘yinlar, real dars tahlillari, muammoli vaziyatlar asosida ishlash shakllarini kengroq qo‘llash tavsiya etiladi. KRK va KRS mashg‘ulotlaridan so‘ng o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarida qanday o‘zgarishlar bo‘lganini aniqlash uchun monitoring tizimi joriy etilishi, shuningdek, samaradorlik indikatorlari ishlab chiqilishi lozim.



KRK va KRS materiallarini onlayn platformalarga joylashtirish, ularni doimiy yangilab borish orqali o‘qituvchilar istalgan vaqtda ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari ta‘minlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev M. “Pedagogik innovatsiyalar va ularning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati” - Toshkent, 2020
2. Ravshanova G. “Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda trening texnologiyalari” - Ilmiy maqola, 2021
3. “Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning metodik asoslari” - Respublika Ta‘lim Markazi nashri, 2022
4. Guskey, T. R. (2002). “Professional Development and Teacher Change.” Teachers and Teaching: Theory and Practice.
5. Avalos, B. (2011). “Teacher professional development in Teaching and Teacher Education.”
6. Boltaboev A., Shokirova M. “O‘qituvchilar malakasini oshirishda zamonaviy texnologiyalar” - Ilmiy-uslubiy maqola, 2023

NOANIQLIKLAR MAVJUDLIGI SHAROITIDA ADAPTIV BOSHQARISH
TIZIMLARI

Latipov Shahriyor Baxtiyorovich

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası v.b. dotsenti.*

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda adaptiv boshqarish tizimlari muhim ahamiyat kasb etib, turli muhandislik, sanoat va texnologiya sohalarida keng qo'llanmoqda. O'zgaruvchan yoki noaniq sharoitlarda an'anaviy nazorat qonunlari samaradorligini yo'qotishi mumkin. Bu kabi holatlarda adaptiv boshqarish tizimlarini joriy etilishi lozim bo'ladi. Bunday tizimlar obyektning dinamikasi, parametrlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishlariga moslasha olishi xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Texnologik jarayonlar, adaptiv boshqarish tizimlari, parametrik, strukturaviy, koordinatali noaniqliklari, matematik model.*

Annotation: *At present, adaptive control systems are of great importance and are widely used in various fields of engineering, industry, and technology. In changing or uncertain conditions, traditional control laws may lose their effectiveness. In such cases, the implementation of adaptive control systems becomes necessary. These systems demonstrate the ability to adapt to changes in the dynamics of the object and variations in parameters over time.*

Keywords: *Technological processes, adaptive control systems, parametric, structural, coordinate uncertainties, mathematical model.*

Texnologik jarayonlarda yuzaga keladigan noaniqliklar ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Ushbu noaniqliklar, odatda, tizimlar ishlash sharoitlarining o'zgaruvchanligi, tasodifiy yoki tashqi g'alayonli ta'sirlarning mavjudligi haqida ma'lumotlarning yetarli emasligi va ishonchliligi pastligi bilan izohlanadi [1-3].

Noaniqliklar texnologik jarayonlarda ichki yoki tashqi ta'sirlar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Ichki ta'sirlar:

Strukturaviy noaniqliklar - tizimning matematik modeli yoki uning ishlash tuzilmasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaslik oqibatida yuzaga keladigan noaniqliklar. Bu turdagi noaniqliklar boshqariladigan obyektning haqiqiy ishlashini aniq ifodalovchi modelni qurishdagi cheklovlar bilan bog'liqdir.

Parametrik noaniqliklar: Tizim yoki jarayon parametrlarining aniq qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlar noaniq bo'lganda paydo bo'ladi. Bu parametrlar, masalan, modellarni qurishda kiritilgan koeffitsiyentlar yoki fizik o'lchovlar bo'lishi mumkin.

Koordinatali noaniqliklar: Tizim yoki jarayonning holat yoki boshqarish o'zgaruvchilari bilan bog'liq noaniqliklar. Masalan, o'lchashdagi xatoliklar yoki nazorat qilinayotgan kattaliklarning noto'g'ri aniqlanishi bu turdagi noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Boshqa turdagi noaniqliklar: Yuqoridagi toifalarga kirmaydigan, ammo boshqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi boshqa noaniqliklar. Masalan, o'lchovlarning kechikishi yoki tizim

ichidagi kutilmagan o'zgarishlar.

Yuqorida aytib o'tilgan noaniqliklar boshqarish tizimining aniqligini va samaradorligini pasaytirishga olib keladi. Hozirgi kunda turli adaptiv yondoshuvlar asosida ishlab chiqilgan boshqarish algoritmlari tizimdagi noaniqliklarni bartaraf etish imkonini bermoqda. Bu yondashuvlar boshqarish tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [4-5].

Parametrik noaniqliklari mavjud boshqarish tizimining matematik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{pmatrix} \dot{x}_1(t) \\ \dot{x}_2(t) \\ \dots \\ \dot{x}_N(t) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11}(q) & a_{12}(q) & \dots & a_{1N}(q) \\ a_{21}(q) & a_{22}(q) & \dots & a_{2N}(q) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_{N1}(q) & a_{N2}(q) & \dots & a_{NN}(q) \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x_1(t) \\ x_2(t) \\ \dots \\ x_N(t) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} b_{11}(q) & b_{12}(q) & \dots & b_{1N}(q) \\ b_{21}(q) & b_{22}(q) & \dots & b_{2N}(q) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ b_{N1}(q) & b_{N2}(q) & \dots & b_{NN}(q) \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} u_1(t) \\ u_2(t) \\ \dots \\ u_N(t) \end{pmatrix} \quad (1)$$

$$\dot{x}(t) = A(q) \cdot x(t) + B(q) \cdot U(t) \quad (2)$$

Strukturaviy noaniqliklar boshqariladigan obyektning matematik modelini ifodalovchi tenglamalarda paydo bo'ladi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

Kasr-ratsional: Bu turdagi noaniqliklar tizimning dinamikasiga ta'sir etadigan koeffitsiyentlarning kasr shaklida ifodalangan xatoliklarini o'z ichiga oladi. Kasr-ratsional noaniqliklar ko'pincha tizimning uzatish funksiyalarida yuzaga keladi.

Additiv: Bu noaniqlikning ko'rsatkichlari modelga qo'shimcha ko'rsatkichlar sifatida kiritiladi. U obyektning chiqish natijalariga qo'shimcha ravishda ta'sir qiladi. Additiv noaniqliklar odatda o'lchov xatoliklari yoki tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'ladi.

Multiplikativ: Ushbu noaniqlik turida parametrlar yoki o'lchovlar bir-biriga ko'paytiriladi. Multiplikativ noaniqlik tizimning natijalarini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali boshqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu turdagi noaniqliklar ko'pincha modellashtirishdagi o'zgarishlar yoki tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladi.

Strukturaviy noaniqliklar tizimning matematik modeli va uning haqiqiy dinamikasi o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadi. Bunday holatlarda noaniqlikni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Strukturaviy noaniqlikning matematik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$y(s) = W(p, q) \cdot x(p) \quad (3)$$

Kasr-ratsional:

$$\begin{pmatrix} y_1(p) \\ y_2(p) \\ \dots \\ y_N(p) \end{pmatrix} = \frac{\begin{pmatrix} a_{11}(p) & a_{12}(s) & \dots & a_{1m}(p) \\ a_{21}(p) & a_{22}(p) & \dots & a_{2m}(p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_{n1}(p) & a_{n2}(p) & \dots & a_{nm}(p) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta a_{11}(q, p) & \eta a_{12}(q, p) & \dots & \eta a_{1m}(q, p) \\ \eta a_{21}(q, p) & \eta a_{22}(q, s) & \dots & \eta a_{2m}(q, p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta a_{n1}(q, p) & \eta a_{n2}(q, p) & \dots & \eta a_{nm}(q, p) \end{pmatrix}}{\begin{pmatrix} b_{11}(p) & b_{12}(p) & \dots & b_{1m}(p) \\ b_{21}(p) & b_{22}(p) & \dots & b_{2m}(p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ b_{n1}(s) & b_{n2}(p) & \dots & b_{nm}(p) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta b_{11}(q, p) & \eta b_{12}(q, p) & \dots & \eta b_{1m}(q, p) \\ \eta b_{21}(q, p) & \eta b_{22}(q, p) & \dots & \eta b_{2m}(q, p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta b_{n1}(q, p) & \eta b_{n2}(q, p) & \dots & \eta b_{nm}(q, p) \end{pmatrix}} \cdot \begin{pmatrix} x_1(p) \\ x_2(p) \\ \dots \\ x_m(p) \end{pmatrix} \quad (4)$$

$$W(p, q) = \frac{A(s) + \eta A(s, q)}{B(s) + \eta B(s, q)}, \quad (5)$$

Additiv:

$$\begin{pmatrix} y_1(p) \\ y_2(p) \\ \dots \\ y_n(p) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} g_{11}(p) & g_{12}(p) & \dots & g_{1m}(p) \\ g_{21}(p) & g_{22}(p) & \dots & g_{2m}(p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ g_{n1}(p) & g_{n2}(p) & \dots & g_{nm}(p) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta g_{11}(q) & \eta g_{12}(q) & \dots & \eta g_{1M}(q) \\ \eta g_{21}(q) & \eta g_{22}(q) & \dots & \eta g_{2M}(q) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta g_{n1}(q) & \eta g_{n2}(q) & \dots & \eta g_{nM}(q) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1(p) \\ x_2(p) \\ \dots \\ x_m(p) \end{pmatrix}$$

(6)

$$y(p) = (W(s) + \eta W(p, q))x(p), \quad (7)$$

Multiplikativ:

$$\begin{pmatrix} y_1(p) \\ y_2(p) \\ \dots \\ y_n(p) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} g_{11}(p) & g_{12}(p) & \dots & g_{1m}(p) \\ g_{21}(p) & g_{22}(p) & \dots & g_{2m}(p) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ g_{n1}(p) & g_{n2}(p) & \dots & g_{nm}(p) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1(p) \\ x_2(p) \\ \dots \\ x_m(p) \end{pmatrix} \quad (8)$$

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 1 & \dots & 0 \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ 0 & 0 & \dots & 1 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta g_{11}(q) & \eta g_{12}(q) & \dots & \eta g_{1M}(q) \\ \eta g_{21}(q) & \eta g_{22}(q) & \dots & \eta g_{2M}(q) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta g_{n1}(q) & \eta g_{n2}(q) & \dots & \eta g_{nM}(q) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1(p) \\ x_2(p) \\ \dots \\ x_m(p) \end{pmatrix}$$

$$y(p) = W(p)(E + \eta W(p, q))x(p), \quad (9)$$

Multiplikativ noaniqlik kirish signali bilan birgalikda chiqarilayotgan natijaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa tizimning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Tizim dinamikasining o'zgarishi natijasida $W(p)$ uzatish matritsasining o'zgarishi, shuningdek, parametrlarning noaniqliklari tufayli multiplikativ ta'sirlar kelib chiqadi. Ushbu model yordamida tizimni boshqarish jarayonida noaniqliklarni hisobga olish va boshqarish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Nostatsionar noaniqlik mavjud tizimining matematik modeli:

$$\begin{pmatrix} \dot{x}_1(t) \\ \dot{x}_2(t) \\ \dots \\ \dot{x}_n(t) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11}(t) & a_{12}(t) & \dots & a_{1n}(t) \\ a_{21}(t) & a_{22}(t) & \dots & a_{2n}(t) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_{n1}(t) & a_{n2}(t) & \dots & a_{nn}(t) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta a_{11}(t) & \eta a_{12}(t) & \dots & \eta a_{1M}(t) \\ \eta a_{21}(t) & \eta a_{22}(t) & \dots & \eta a_{2M}(t) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta a_{n1}(t) & \eta a_{n2}(t) & \dots & \eta a_{nM}(t) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1(t) \\ x_2(t) \\ \dots \\ x_n(t) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} b_{11}(t) & b_{12}(t) & \dots & b_{1m}(t) \\ b_{21}(t) & b_{22}(t) & \dots & b_{2m}(t) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ b_{n1}(t) & b_{n2}(t) & \dots & b_{nm}(t) \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \eta b_{11}(t) & \eta b_{12}(t) & \dots & \eta b_{1m}(t) \\ \eta b_{21}(t) & \eta b_{22}(t) & \dots & \eta b_{2m}(t) \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ \eta b_{n1}(t) & \eta b_{n2}(t) & \dots & \eta b_{nm}(t) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} u_1(t) \\ u_2(t) \\ \dots \\ u_n(t) \end{pmatrix} \quad (10)$$

Ushbu model, o'zgaruvchan sharoitlarda tizimning dinamikasini hisobga olib, boshqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Nochiziqilik odatda obyekt yoki tizimda turg'unlikni ta'minlash qiyinlashgan joyda yuzaga keladi. Bunday nochiziqilik quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\dot{x}(t) = Ax(t) + BU(t), \quad f(\phi) = \begin{pmatrix} f_1(\phi_1) \\ \vdots \\ f_m(\phi_m) \end{pmatrix}, \quad f(0) = 0 \quad (11)$$

$$\phi = Cx(t)$$

$$\underline{k}\phi_1^2 \leq \phi_i f_i(\phi_i) \leq \bar{k}\phi_1^2 \quad (12)$$

$$\underline{k} \leq \frac{f_i(\phi_i)}{\phi_i} \leq \bar{k}, 0 \leq \underline{k} \leq \bar{k} \leq \infty \quad (13)$$

Odatda tizim ichidagi bog'lanishlar nochiqlik xususiyatiga ega bo'ladi, bular tizim ishlash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rstadi. Shuning uchun boshqarish tizimi sifatini yaxshilash va unumdorligini oshirish uchun tuzatuvchi nochiqliklar kiritiladi[7-9].

Noaniqliklar sharoitida avtomatik boshqarish tizimini turg'unligini tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Lyapunov usuli - Tizimning turg'unligini baholash uchun Lyapunov funksiyasini tuzish orqali. Ushbu funksiya yordamida tizim parametrlarining vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishi tahlil qilinadi.

Nakvist usuli - Bunda tizim chastota xarakteristikalari asosida tahlil qilinadi va ushbu xarakteristikalar yordamida turg'unlik mezonlari aniqlanadi.

Ildizi usul - Tizimning ildizlari o'zgarishiga qarab uning turg'unligi o'rganiladi. Bu usul parametrlar o'zgarishi bilan tizimning ildizlari qayerda joylashishini kuzatiladi.

Bode diagrammalari - Bode diagrammasi yordamida chastotaga bog'liq holda amplituda va faza o'zgarishlarini tahlil qilish orqali tizim turg'unligi aniqlanadi.

Polinom usuli - Tizim polinomlarining joylashishi orqali turg'unlik tekshiriladi. Bunda Raus - Gurvis mezonlaridan foydalaniladi.

Interval usuli - Tizim parametrlari noaniqlik doirasida bo'lsa, interval usuli orqali turg'unlik shartlari baholanadi.

Bu usullar turli noaniqlik va tashqi g'alayonlar sharoitida avtomatik boshqarish tizimining turg'unligini ta'minlashda va uning parametrlari o'zgarganda turg'unligini saqlashda keng qo'llaniladi.

Tashqi sharoitlarning noaniqligi haqiqiy boshqarish tizimlarining xatti-harakatlariga atrof-muhit sezilarli darajada ta'sir qiladi. Uni bartaraf etish uchun g'alayonlantiruvchi ta'sirlarni aniqlash va ularni kompensatsiya qilishning turli usullari qo'llaniladi [10-12].

Xulosa qilib aytganda, etalon modeliga asoslangan adaptiv boshqarish tizimlari noaniqliklar va tashqi ta'sirlarga samarali bo'lib, texnologik jarayonlarni boshqarishda ishonchli, samarali va moslashuvchan bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu tizimlar murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini ta'minlaydi. Bunday tizimlar parametrik noaniqliklar sharoitida ham o'zini sozlash xususiyatiga ega bo'lib, bu esa texnologik jarayonlarni boshqarish tizimini samarali ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Целигоров Н. А., Целигорова Е. Н., Мвасару М. Г. Математические модели неопределённости систем управления и методы, используемые для их исследования // Инженерный вестник Дона. - 2012. - Т. 23. - №.4-2. - С. 1-6.

2. Botirov, T., Latipov, S., Baqoyev, H., Xashimova, F., Botirov, U. Cheklangan buzilish kompensatsiyasi bilan adaptiv boshqaruv algoritmlari. E3S Web of Conferences da (2024. 525-jild, 05023-bet).

3. Ботиров Т.В., Латипов Ш., Баракаев А., Намозов Н. Синтез интервальных

управляющих устройств в адаптивных систем управления с эталонной моделью. In *Инновационные геотехнологии при разработке рудных и нерудных месторождений*, (2020). pp. 231-234.

4. Цыпкин Я.З. Робастно оптимальные дискретные системы управления, *Автомат. и телемех.*, 1999, №3, 25-37;

5. Yusupbekov N. R., Igamberdiev H. Z., Mamirov U. F. Stable algorithms for adaptive control and adaptation of uncertain dynamic objects based on reference models // *CEUR Workshop Proceedings*. - 2021. - Т. 2965. - С. 296-302.

6. Канушкин С В. Управление робототехническими комплексами охранного мониторинга в условиях неопределенности. *Правовая информатика*, 2019. №2, С.40-48.

7. Добровидов А.В. Автоматические методы выделения полезных сигналов на фоне помех в условиях непараметрической неопределенности, *Автомат и телемех.*, 2011, №2, С.56-70.

8. Igamberdiev H. Z., Mamirov U. F. Regular algorithms for the parametric estimation of the uncertain object control // *World Conference Intelligent System for Industrial Automation*. - Cham: Springer International Publishing, 2020. - С. 322-328

9. Белов А.А., Андрианова О.Г. Синтез робастного управления параметрически неопределенными линейными системами для подавления случайных внешних возмущений, *Автомат. и телемех.*, 2020, №4, С.94-109.

10. Botirov T. V., Latipov Sh B., Rajabov K.B. Synthesis of interval self-adjusting regulators in adaptive control systems // *Научное обозрение: актуальные вопросы теории и практики*. - 2022. - С. 58-59.

11. Шеленок Е.А. Периодическое адаптивное управление нелинейным динамическим объектом с входным насыщением в условиях неопределенности / *Информатика и системы управления*, 2021, №4(70).122-135 с.

12. Латипов Ш. Б. Адаптивная система управления с эталонной моделью в условиях параметрической неопределенности // *Journal of Advances in Engineering Technology*. 2024. №1.

**QIZ BOLALAR SHAXSIY RIVOJLANISHIDA MILLIY-MA'NAVIY
TARBIYANING METODOLOGIK ASOSLARI**

Rustamova Shaxzoda Maripovna

*Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat
markazi dotsenti, Psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: *Qiz bola tarbiyasi uning kelajakda baxtdi yashashi uchun garovdir. Ushbu maqolada qizlar tarbiyasi jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar haqida fikr yuritilib, ularning qiziqishlari, hayotiy muammolari o'rganilshi, ular o'rtasida ko'proq suhbat, badiiy kecha, uchrashuv va muloqotlarni uyushtirish, turli xil to'garak, sport seksiyasi, ilmiy tadqiqot uyushmalarini ko'paytirish, tanlov, anjuman, munozara, bahs va boshqa ommaviy tadbirlar haqida eslatiladi.*

Kalit so'zlar: *qiz bola tarbiyasi, qizlar didi, hissiy kechinma, psixologik yetuklik, o'z-o'zini baholash, o'zlikni anglash.*

Аннотация: *Воспитание девочки-залог ее счастливой жизни в будущем. В этой статье рассматриваются аспекты, на которые следует обратить внимание в процессе воспитания девочек, и рассказывается об их интересах, изучении жизненных проблем, организации большего количества бесед, художественных вечеров, встреч и диалогов между ними, организации различных кружков, спортивных секций, увеличения научно-исследовательских объединений, проведения конкурсов, съездов, дискуссий, дебатов и других массовых мероприятий.*

Ключевые слова: *воспитание девочек, вкусы девочек, эмоциональное переживание, психологическая зрелость, самооценка, самосознание.*

Annatation: *Raising a girl is a pledge for her to live happily in the future. This article will focus on aspects that should be considered in the process of girls' education and will explore their interests, life problems, discuss more conversations between them, art night, meeting and organizing dialogues, various circles, sports section, increasing scientific research associations, competitions, conferences, discussions, debates and other public events.*

Keywords: *girl child education, girl taste, emotional forgiveness, psychological maturity, self-assessment, self-awareness.*

Inson jamiyatda yashar ekan, uning shaxsi shakllanishi jarayonida ma'naviy-intellektual salohiyati muhim rol o'ynaydi. Bolaning kamoloti uchun xalaqit berayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni ilmiy asosda o'rganish va ularni hal etish, o'quvchi-yoshlarning orzu-intilishlari, didi, dunyoqarashi, hissiy kechinmalarini tushunish, ularga yaqindan yordam berish mamlakatimizning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

Inson o'zligini ro'yobga chiqarishi o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib yetsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi va oldiga muhimroq maqsadlar qo'yadi. Farzandlar,

ayniqsa, qiz farzandlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga ezgu his-tuyg'ularni singdirish muhimdir. Bu tuyg'u biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. Chunki - bu, tuyg'u insonning ma'naviy shakllanishi jarayonida voyaga yetadi.

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyat o'zining tub mohiyati bilan shaxslarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'la zabt etishni emas, balki ma'naviy-ruhiy jihatdan zabt etishni, ularni ongli intizomga bo'sundirishni, g'oya orqali boshqarish va faollikka undashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Psixologik yetuklikka ega shaxs turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay oladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha obyektiv baholay olishda ham namoyon bo'ladi. Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishi, ya'ni ichki intizomni yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bog'liq. Bu o'z navbatida muloqot, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada, turli guruhlarda ijobiy munosabatlarning o'rnatilishiga imkon beradi. Psixologik yetuklikni shakllantirishda ko'rgazmali va og'zaki psixologik targ'ibot usullaridan foydalanishimiz mumkin. Ko'rgazmali psixologik targ'ibot usulidan foydalanish uchun bizga vatanparvarlik, totuvlik, mehribonlik kabi sifatlar aks etgan, yoshlar ruhiyatida chuqur iz qoldiradigan tarqatma materiallar, plakatlar kerak bo'ladi.

Og'zaki psixologik targ'ibotning ma'ruza qilish, turli chiqishlar, hisobot berish, suhbat, uchrashuvlar o'tkazish, munozara shakllari mavjud. Jan Piaje «bolaning ijtimoiylashuvi» jarayonini o'rganar ekan, uning o'z tengqurlari bilan turli mavzularda qiladigan munozara yoki bahslari, undagi egoistik, shaxsiyatparastlik mohiyatini susaytirib va shu tariqa o'z-o'zini anglash bilan bir qatorda o'zgalarning mavqelarini anglash va o'zida shaxsga xos sifatlarini o'stirishni aniqladi.

Har qanday odamda buyuklikka intilish bo'ladi. Bunday intilish yoshlarni o'z ustida ishlashga, o'z faoliyatini va xulq-atvorini tahlil qilishga olib keladi. Bunda insonning tafakkur jarayonida o'ziga o'zi «Bugun men qanday bilim va tajribalarni o'zlashtirdim?», oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'lida «Bugun men nima qildim va nimalarga erishdim?», o'z ruhiy holatidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida «Bugun mening kayfiyatim qanday bo'ldi, ruhim nimalarga moyil bo'ldi?», boshqalarga yordam, xizmat ko'rsatish maqsadida «Bugun men boshqalarga nima yordam berdim?», tetiklik va jismoniy bardamlik holatini saqlash maqsadida «Bugun mening ahvolim qanday bo'ldi, men sog'ligim uchun nima qildim?» kabi savollarni berish va o'zini o'zi taftish qilish har bir insonning umr boyligi bo'lgan vaqtni tejashga o'rgatadi. Inson kamoloti u vaqt tuyg'usini egallagandan keyingina boshlanadi. Inson vaqtni his eta boshlagan paytdanoq o'z-o'zini nazorat qila boshlaydi. Kelajakka intilib yashayotgan shaxs o'z vaqtidan samarali foydalanadi, o'zida ma'naviy barkamollikni namoyon etadi.

Buyuk Suqrot o'z falsafiy bahslarining birida o'zlikni anglash haqida «avval o'zingni bil», deb da'vat qiladi. Demak, bilish jarayonida muhim bosqich yoki bilimning muhim obyekt insonning o'zidir. O'zlikni anglash orqali insonning ma'naviyati shakllanadi.

O'quvchilarning o'z-o'zini idrok qilishlarini uni ijobiy ishlarga yo'naltirish orqali rivojlantirish kerak. Bunda ular ijobiy tajriba orttirsin, ya'ni o'zi, oilasi, sinfi, guruhi, jamoasiga

manfaatli ish qilib, olqish olsin. O‘quvchilarni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan manfaatdorligini oshirish lozim. Ularning o‘zini shaxs sifatida anglashi, o‘z ijobiy va salbiy sifatlarini tahlil qilishi, boshqa shaxslar ichida o‘z shaxsini alohida ajratish kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantiradi. Bu esa shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimini yuzaga keltiradi. Psixologik bilimdonlik shaxsni o‘z-o‘zini qo‘lga olishga, o‘z-o‘ziga buyruq berishga, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash va o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi.

Shaxs shakllanishining muhim shartlaridan biri baholash qobiliyatining rivojlanishidir. Bu qobiliyat shaxsiy xarakter xususiyati hisoblanib, shaxsning ma’naviyati va har tomonlama rivojlangan bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir insonning ruhiy quvvati atrofdagilar ruhiy quvvati bilan bevosita bog‘liq ekan, eng avvalo, qizlarni ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlarida o‘zi hamda o‘zgalarga to‘g‘ri va odilona baho berishga o‘rgatishimiz zarur. Zero, qiz bola avlod davomchisi. Bo‘lajak onada shakllangan xususiyatlar kelajakda uning farzandlarida aks etadi.

Demak, bu jihatdan o‘quvchilar bilan verbal va noverbal ijtimoiy psixologik treninglar, breynshtorminglar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Maqsadli treninglar ularni ma’naviy jihatdan boyitishi, nutqi va fikrlashini kengaytirish bilan bir qatorda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar tashkilotlari, ma’naviyat va ma’rifat jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla, oila instituti o‘rtasida mustahkam aloqa bog‘lanishi kerak.

O‘quvchi-yoshlarning qiziqishlari, hayotiy muammolari o‘rganilib, ular o‘rtasida ko‘proq suhbat, badiiy kecha, uchrashuv va muloqotlarni uyushtirish, turli xil to‘garak, sport seksiyasi, ilmiy tadqiqot uyushmalarini ko‘paytirish, tanlov, anjuman, munozara, bahs va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkillash lozim. Farzandlar, ayniqsa, qizlar ma’naviyatini tarbiyalashda axloqiy qadriyatlardan foydalanish va bunda axloqiy ta’sir ko‘rsatish texnologiyasini joriy etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амонашвили Ш.А. Обучение. Оценка. Отметка. – М., 1980.
2. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды.: В 2 т. – М. 1980.Т
3. Davletshin M.G. va boshqalar “Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya” T.TDPU. 2009.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА
В КИТАЕ**Абидов Нозимхон Алимович***Ташкентский государственный университет востоковедения
старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»***Салихова Алина Муратовна***Ташкентский государственный университет востоковедения
старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»*

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции сельскохозяйственного производства в Китае, включая адаптацию агроэкосистем к различным климатическим и почвенным условиям. Основной акцент сделан на исследовании стратегических направлений обеспечения национальной продовольственной безопасности. Особое внимание уделено анализу эффективности государственных программ поддержки аграрного сектора и их влиянию на устойчивость продовольственной системы страны.

Abstract. The article examines current trends in agricultural production in China, including the adaptation of agroecosystems to various climatic and soil conditions. The main emphasis is placed on the study of strategic directions for ensuring national food security. Particular attention is paid to the analysis of the effectiveness of state programs to support the agricultural sector and their impact on the sustainability of the country's food system.

Annotatsiya. Maqolada Xitoyda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hozirgi tendentsiyalari, shu jumladan agroekotizimlarning turli iqlim va tuproq sharoitlariga moslashuvi ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlarini o'rganishga qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari samaradorligi va ularning mamlakatimiz oziq-ovqat tizimi barqarorligiga ta'sirini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ключевые слова: сельскохозяйственное производство, агроэкосистемы, интенсивное земледелие, Белая книга о продовольственной безопасности, плодородные земли, искусственное орошение, сельхозугодия, пахотные земли, ирригация.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, agroekotizimlar, intensiv dehqonchilik, Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha oq kitob, unumdor yerlar, sun'iy sug'orish, qishloq xo'jaligi erlari, ekin maydonlari, sug'orish.

Key words: agricultural production, agroecosystems, intensive farming, White Paper on Food Security, fertile lands, artificial irrigation, farmland, arable land, irrigation.

Китай уже несколько десятилетий сохраняет мировое лидерство по объемам сельскохозяйственного производства. Страна культивирует широкий спектр культур, включая традиционные для региона рис, пшеницу и чай, а также картофель, томаты,

хлопок и различные масленичные растения. В аграрном секторе занято свыше 300 миллионов человек, что делает его ключевой отраслью национальной экономики.

Агроэкосистемы адаптированы к разнообразным природным условиям. В горных районах, включая Тибет, наиболее выгодно разводить крупный рогатый скот и рабочих животных для сельскохозяйственных работ. Обширные равнины на севере прекрасно подходят для выращивания зерновых и бобовых культур, которые затем поставляются на мировой рынок. В засушливых регионах, таких как Шаньси и Ганьсу, фермеры делают ставку на засухоустойчивые растения, сорта которых непрерывно совершенствуются агрономами. Благодаря плодородным почвам на равнинах (например, в Шаньдуне и Хэбэе) удастся собирать по два и более урожаев в год, успешно культивируя зерновые и масличные культуры.

Наиболее продуктивным аграрным регионом считается бассейн реки Янцзы, который ежегодно вносит основной вклад в общий объем сельхозпродукции. Провинции Сычуань и Гуандун также выделяются благоприятным климатом для интенсивного земледелия. В субтропических зонах успешно выращивают даже теплолюбивые культуры, такие как цитрусовые и ананасы, большая часть которых отправляется на экспорт.

Основу китайского успеха составляет переход от традиционной экстенсивной модели сельского хозяйства к современной системе устойчивой интенсификации. Такой подход позволил не только увеличить объемы производства зерновых культур, но и качественно изменить структуру питания населения - сегодня в рационе китайцев значительно больше высокобелковых продуктов, таких как мясо, рыба и молочная продукция.

Китай сталкивается с серьезными вызовами в обеспечении продовольственной безопасности, включая учатившиеся природные катаклизмы и осложнение торговых отношений с основными поставщиками сельхозпродукции. В ответ на эти угрозы страна разработала комплексную стратегию, закреплённую в нормативных документах.

Основопологающим документом стала Белая книга о продовольственной безопасности (2019), где сформулированы ключевые принципы: достижение базового самообеспечения зерном и гарантированная безопасность пищевой продукции. Эти положения дополняются строгими нормами Закона о безопасности пищевой продукции (2015), который вводит уголовную ответственность за нарушения.

Для реализации этих принципов создана многоуровневая система контроля:

- Национальные центры мониторинга качества
- Региональные инспекционные органы
- Местные контрольные службы

Особое внимание уделяется совершенствованию управления агропромышленным комплексом, внедрению инновационных технологий, поддержке отечественных производителей, развитию пищевой перерабатывающей отрасли, оптимизации использования ресурсов.

Принятые меры уже показали свою эффективность, позволив Китаю существенно снизить зависимость от импорта и создать надежную систему обеспечения населения качественными продуктами питания даже в условиях глобальной нестабильности.

Однако, несмотря на впечатляющие производственные показатели, Китай сталкивается с необходимостью импорта продовольствия. Эта ситуация обусловлена такими факторами как огромная численность населения (около 1,5 млрд человек), ограниченные ресурсы плодородных земель, необходимость искусственного орошения большинства сельхозугодий, частые природные катаклизмы (засухи, ураганы).

Перед китайским правительством стоит сложная задача обеспечения продовольственной безопасности. Для ее решения реализуется комплекс мер:

- ✓ Внедрение современных агротехнологий
- ✓ Государственная поддержка сельхозпроизводителей
- ✓ Оптимизация землепользования
- ✓ Развитие системы ирригации

Благодаря последовательной аграрной политике, Китаю удается поддерживать стабильное снабжение внутреннего рынка, хотя вопрос полного самообеспечения продовольствием остается актуальным. Особое внимание уделяется инновационным методам ведения сельского хозяйства, позволяющим увеличивать урожайность на ограниченных земельных ресурсах.

Активная поддержка государства выражается и через системы адресного субсидирования и контроль импорта продуктов питания. Ведется постоянная модернизация трудоемких методов возделывания сельскохозяйственных культур.

На сегодняшний день в приоритете увеличение площади посевных земель, позволяющих собирать несколько урожаев в год. Но, к сожалению, возможности сельского хозяйства Китая не безграничны, и уже в ближайшем будущем неизбежно произойдет снижение продуктивности земель сельскохозяйственного назначения ввиду следующих факторов:

- К 2030 году площадь орошаемых земель существенно уменьшится ввиду истощения водных ресурсов, включая подземные. По последним расчетам произойдет сокращение использования воды на ирригацию (орошение) до 14 %.
- Применение удобрений «на максимуме», что приводит к истощению пахотных земель и ухудшению экологии в Китае.
- Более 40% всех пахотных земель в Китае практически исчерпали свой ресурс. Слой чернозема уменьшается из-за ветровой эрозии и влаги. Происходит окисление почв⁵⁹.

На сегодняшний день Китай практически полностью удовлетворяет свои запросы за счет внутреннего производства зерновых на 96% и масличных культур на 20%. Но ситуация далеко не однозначная, в будущем Китаю все равно придется

⁵⁹ <https://u-techgroup.ru/selskoe-hozjastvo-kitaja/>

импортировать значительное количество зерновых. Все дело в том, что огромные площади пахотных земель истощаются и очень скоро станут непригодны для получения хороших урожаев. Оказывает влияние еще масса факторов, таких как изменение климата и ухудшение общей экологической обстановки.

Китайская стратегия обеспечения продовольственной безопасности доказала свою эффективность благодаря продуманному сочетанию рыночных механизмов и государственного регулирования. Основу этой стратегии составляют глубокие экономические преобразования, включающие либерализацию цен, приватизацию сельхозпредприятий и создание конкурентной среды в агропромышленном комплексе.

Значительную роль в модернизации сельского хозяйства сыграло активное привлечение зарубежных инвестиций и технологий. Китай умело использует международное сотрудничество, устанавливая партнерские отношения как с развитыми странами, так и с развивающимися экономиками. Особое внимание уделяется технологическому обмену и совместным исследовательским проектам в области агротехнологий.

В условиях ужесточения международной конкуренции и санкционного давления, Китай демонстрирует гибкий подход во внешней политике. Будучи постоянным членом СБ ООН, страна сохраняет конструктивный диалог с западными партнерами, одновременно укрепляя сотрудничество со странами Азии, Африки и Латинской Америки. Эта многовекторность позволяет обеспечивать стабильные поставки необходимых ресурсов и технологий.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Белая книга "Продовольственная безопасность Китая" [Электронный ресурс] // Информационное бюро Государственного Совета Китайской Народной Республики, 2019. - URL: <http://www.scio.gov.cn/zfbps/32832/Document/1666192/1666192.htm>
2. Сельское хозяйство Китая: краткая характеристика современного состояния [Электронный ресурс] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/selskoe-hozyaystvo-kitayakratkaya-harakteristika-sovremennogo-sostoyaniya>
3. Сельское хозяйство в Китае: как накормить 1,5 млрд человек? [Электронный ресурс]. URL: <https://u-techgroup.ru/selskoe-hozjastvo-kitaja/>
4. Ерохин В.Л., Гао Т. Продовольственная безопасность Китая: современное состояние и стратегические ориентиры [Текст] / Ерохин В.Л., Гао Т. // Маркетинг и логистика. – 2019. – № 5 (25). – С. 12–32.

**RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIMGA TA'SIRI:
MUAMMO VA IMKONIYATLAR**

Sodikova Nozanin Nodirjonovna
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri, uning samaradorlik darajasi, afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan ta'lim muhiti o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqayotgani ta'kidlanadi. Xususan, onlayn platformalar, sun'iy intellekt, virtual laboratoriyalar va ta'limiy dasturlar orqali ta'limning individuallashtirilgan, interaktiv va moslashuvchan shakllari yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma yetishmovchiligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, hamda texnologiyaga ortiqcha tayanish kabi muammolar ham mavjud. Maqolada raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'limdagi o'rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda uning istiqboldagi imkoniyatlari haqida xulosa beriladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli pedagogika, zamonaviy ta'lim, texnologik ta'lim vositalari, sun'iy intellekt, raqamli savodxonlik, onlayn ta'lim, interaktiv metodlar, virtual ta'lim muhiti, muammo va imkoniyatlar.*

KIRISH

Globalashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda ta'lim sohasining raqamli transformatsiyalashuvi dolzarb masalaga aylangan. An'anaviy ta'lim shakllari zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashib, o'qitish jarayonini yanada samarali, interaktiv va moslashuvchan qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, raqamli pedagogika tushunchasi ta'lim tizimining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamli pedagogika - bu raqamli texnologiyalar asosida ta'lim berishning metodikasi va didaktik tamoyillarini o'zida mujassam etgan yangicha yondashuvdir.

Bugungi kunda masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt yordamida individual o'quv yo'llarini shakllantirish, raqamli platformalar orqali fanlarni o'zlashtirish, hamda o'quv jarayonini vizuallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli pedagogikaning keng joriy etilishi muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, va ayrim hollarda texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'limga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sir omillari tahlil qilinadi, mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda raqamli pedagogika bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayonining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida J. Anderson (2019), M. Fullan (2020), H. Beetham va R. Sharpe (2021) kabi olimlar raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning

mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

O‘zbekistonda esa raqamli ta’lim sohasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, A. Jo‘raev (2021) raqamli texnologiyalarning boshlang‘ich ta’limga integratsiyasini tahlil qilgan bo‘lsa, G. Tursunova (2022) raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish imkoniyatlarini o‘rgangan.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli pedagogika nafaqat ta’lim jarayonining interaktivligini oshiradi, balki o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim adabiyotlarda (masalan, UNESCO hisobotlari, 2023) bu texnologiyalarning noto‘g‘ri va cheklangan foydalanilishi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ham ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili raqamli pedagogikaning imkoniyatlari bilan bir qatorda, uni amaliyotga tadbiiq etishda mavjud muammolarni chuqur o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotda raqamli pedagogikaning zamonaviy ta’limga ta’sirini aniqlash va baholash maqsadida sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot usullari uyg‘unlashgan holda qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Nazariy tahlil: Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, konferensiya materiallari, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari tahlil qilindi.

So‘rovnoma usuli: Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 50 nafar o‘qituvchi va 100 nafar talaba o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi va muammolari aniqlab olindi.

Suhbat (intervyu): Pedagogik tajribaga ega 10 nafar o‘qituvchi bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazildi. Bu orqali raqamli ta’lim vositalarining amaliyotdagi afzallik va kamchiliklari yuzasidan fikrlar olindi.

Tahlil va umumlashtirish: Olingan natijalar matnli va statistik jihatdan tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma, intervyular va adabiyotlar tahlili asosida quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

1. Raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’siri:

So‘rovnoma ishtirokchilarining 76 foizi raqamli texnologiyalar (interaktiv taqdimotlar, videodarslar, onlayn testlar) ta’limni yanada tushunarli va qiziqarli qilganini ta’kidladilar. 68 foiz talaba raqamli resurslar orqali mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengayganini qayd etdi.

O‘qituvchilarning fikricha, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilar bilan individual ishlash va baholash jarayoni yengillashtirilmoqda.

Muammolar va cheklovlar:

Ishtirokchilarning 54 foizi texnik infratuzilma (internet tezligi, qurilmalar yetishmovchiligi) bilan bog‘liq muammolarni ta’kidladi.

43 foiz o‘qituvchi raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligini, xususan, ilg‘or platformalardan to‘liq foydalana olmaslikni muammo sifatida ko‘rsatdi.

Ayrim hollarda texnologiyalarga haddan ortiq tayanish o‘quvchilarning amaliy va muloqot ko‘nikmalarini cheklab qo‘yayotgani qayd etildi.

Pedagogik yondashuvlarning o'zgarishi:

O'qituvchilarning 72 foizi raqamli texnologiyalar ta'lim metodikalariga yangicha yondashuv olib kirganini bildirgan. Jumladan, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya (o'yinlashtirish), teskari sinf (flipped classroom) kabi metodlar qo'llanilmoqda.

Raqamli vositalar o'quv materiallarini vizual, audio va interaktiv shaklda taqdim etishga imkon berayotgani didaktik ko'rgazmalilik prinsipini kuchaytirmoqda.

Imkoniyatlar va istiqbollari:

Raqamli pedagogika masofaviy va gibrid ta'lim shakllarining rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari, adaptiv testlash tizimlari va raqamli o'quv kontentlar orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlari oshmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim tizimida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar yuzaga keltirmoqda. Xususan, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalari rivojlanmoqda, o'qituvchilarning dars jarayonini tashkil etishdagi yondashuvlari esa interaktiv va innovatsion tus olmoqda. Bu holat ilg'or xorijiy tadqiqotlar natijalari bilan ham uyg'unlashadi. Jumladan, H. Beetham va R. Sharpe (2021) raqamli texnologiyalar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirishi, hamda o'zlashtirish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Shunga qaramay, milliy ta'lim tizimida raqamli pedagogikani joriy etishda mavjud bo'lgan qator muammolar e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'plab o'quv muassasalarida zarur texnik infratuzilmaning yetishmasligi, internet tarmog'i barqarorligining pastligi, hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilmagani asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalarning salohiyatidan to'liq foydalanishni cheklaydi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat – raqamli texnologiyalarni qo'llashda pedagogik maqsadlilik tamoyiliga qat'iy rioya qilish zarurligidir. Ya'ni, texnologiyalar ta'lim maqsadlariga xizmat qilishi, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Aks holda, texnologiyalarning o'zini maqsadga aylantirish xavfi yuzaga keladi.

Tadqiqot raqamli pedagogikaning yuksak salohiyatga ega ekanini, ammo bu salohiyatdan to'laqonli foydalanish uchun tizimli yondashuv, infratuzilmaviy islohotlar va o'qituvchilarni doimiy qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot natijalari va muhokamalar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli pedagogika zamonaviy ta'lim tizimini tubdan yangilash, ta'lim jarayonining samaradorligi va interaktivligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytiradi, o'quv faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Biroq raqamli ta'limga o'tish bir qator tizimli yondashuvlarni, xususan, texnik infratuzilmani takomillashtirish, pedagog kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish, va ta'lim mazmunini texnologik vositalarga moslashtirishni talab qiladi. Shu jihatdan, raqamli pedagogika imkoniyatlarini to'liq

ro‘yobga chiqarish uchun nafaqat texnologik, balki metodik va ijtimoiy omillarni ham inobatga olish zarur.

Shuningdek, ta’limda raqamli vositalarni qo‘llashda muvozanatni saqlash, insoniy omil va jonli muloqotni chetda qoldirmaslik dolzarb ahamiyatga ega. Faqatgina texnologiyalarga asoslanib qolish emas, balki ularni pedagogik maqsadlarga xizmat qiladigan vosita sifatida ongli va maqsadli ravishda qo‘llash muhimdir.

Mazkur tadqiqot raqamli pedagogikaning imkoniyatlarini tahlil qilish bilan birga, uni joriy etishdagi mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qildi. Kelajakda bu yo‘nalishda chuqurroq empirik tadqiqotlar o‘tkazish, milliy kontekstga mos ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda innovatsion yondashuvlar asosida metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anderson, J. (2019). *Digital Learning: Theoretical Frameworks and Practical Applications*. London: Springer.
2. Fullan, M. (2020). *Education Reimagined: The Future of Learning*. Ontario: Pearson Education.
3. Beetham, H., & Sharpe, R. (2021). *Rethinking Pedagogy for a Digital Age: Designing for 21st Century Learning*. London: Routledge.
4. UNESCO. (2023). *Digital Learning Report: Global Trends and National Strategies*. Retrieved from: www.unesco.org
5. OECD. (2022). *The Digital Education Outlook 2022: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots*. Paris: OECD Publishing.
6. Жўраев, А. (2021). Бошланғич таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари. // Педагогика фанлари журнари, №3, 45-50-б.
7. Турсунова, Г. (2022). Педагогик жараёнда рақамли саводхонликни шакллантиришнинг илмий-амалий асослари. // Ўзбекистонда таълим ва фан, №6, 21-26-б.
8. Axmedov, R. (2020). Raqamli ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi. // O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, №4, 33-38-b.
9. Bukhariy, S. (2021). Zamonaviy o'quv tizimida raqamli resurslarning ahamiyati. // Ilm va Taraqqiyot, №2, 60-64-b.
10. Курбонов, Н. (2023). Масофавий таълим ва рақамли платформалардан самарали фойдаланиш. // Жамият ва инновациялар, №1(10), 112-118-б.

**ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ ИШТИРОКЧИСИ СИФАТИДА МУТАХАССИС
ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ****Маъруфалиев Ахрорбек Авазбек ўғли***ИИВ Академияси мустақил изланувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада жиноят процесси иштирокчиси сифатида мутахассиснинг ривожланиш тарихи, мутахассисни ишда иштирок этиш тартиби, мутахассис фикрининг жиноят ишлари тергов қилишдаги ўрни таҳлил қилинган. Шунингдек мақолада миллий ва хорижий олимларнинг бу борадаги қарашлари билан илмий баҳс мунозарага киришилган. Жиноят ишлари юртида мутахассис иштироки бўйича хорижий давлатлар қонунчилиги ўрганилиб, миллий қонунчиликка тегишли ўзгартiriш киритиш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: мутахассис, гумон қилинувчи, айбланувчи, корхона, муассаса, ташкилот, суриштирувчи, терговчи, прокурор.

Аннотация. В данной статье проанализирована история развития института специалиста как участника уголовного процесса, порядок его участия в уголовном деле, а также значение заключения специалиста в процессе расследования уголовного дела. В статье также рассматриваются научные дискуссии и сопоставляются мнения отечественных и зарубежных учёных по данной проблематике. Изучено законодательство иностранных государств, касающееся участия специалиста в уголовном процессе, и разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений в национальное законодательство.

Ключевые слова: специалист, подозреваемый, обвиняемый, предприятие, учреждение, организация, дознаватель, следователь, прокурор.

Annotation. This article analyzes the historical development of the specialist as a participant in the criminal process, the procedure for their involvement in criminal proceedings, and the significance of the specialist's opinion in the investigation of criminal cases. The article also engages in scholarly discussion, comparing the perspectives of national and foreign researchers on the topic. Legislation from foreign countries regarding the participation of specialists in criminal proceedings is examined, and proposals and recommendations are developed for introducing relevant amendments to national legislation.

